


GOLDEN BRAIN

Scientific Journal

ISSN: 2181-4120



Volume 1, Issue 15



CiteFactor
Academic Scientific Journals



Google
Scholar



® digital object
identifier

zenodo

2023/15
June

ISSN 2181-4120
VOLUME 1, ISSUE 15
JUNE 2023



<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain>

“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 1, ISSUE 15, June, 2023

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

Editorial Secretary: J. Eshonkulov

INTEGRAL. BOSHLANGICH FUNKSIYA. ANIKMAS INTEGRAL VA UNING XOSSASI. ASOSIY FORMULALAR JADVALI.

Darmonova Adolat Bahodir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

***Annotatsiya:** Maqolada “Integral. Boshlangich funksiya. Anikmas integral va uning xossasi. Asosiy formulalar jadvali” “Bumerang” texnologiyasi yordamida o‘qitish usuli yoritilgan. Bumerang texnologiyasi turli mazmun va harakaterga (muommoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishda qulay bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi, hamda bir mashg‘ulot davomida har bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi navbat bilan talaba yoki o‘qituvchi rovida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashiga imkon beradi. Talabalarni mashg‘ulot jarayonida darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab berish fikrini aniq bayon eta olish hamda bir dars davomida talabalarni baholay olishga qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Integral, boshlang‘ich funksiya, aniqmas integral, dars, talaba, o‘qituvchi, mavzu, baholash, guruh, o‘quv material.*

***Abstract:** In the article "Integral. Initial function. Anikmas integral and its property. The table of basic formulas " The method of teaching with the help of "Boomerang" technology is explained. Boomerang technology is convenient for learning topics with different content and movement (problematic, controversial, different content) and includes oral and written forms of work. and during one session, during each session, each participant performs different tasks, alternately in the role of a student or a teacher, and allows him to collect the necessary points. During the training, students are directed to work with various literatures and texts outside of class, to keep the learned material in mind, to be able to express their thoughts clearly, and to be able to evaluate students during one lesson.*

1. Boshlang'ich funksiya. Aniqmas integral va uning xossasi.

$y=f(x)$ funksiya (a, v) integralda berilgan bulsin.

$F(x)$ esa shu oralikdadi differensiallanuvchi funksiya bulsin.

1-Ta'rif. Agar $F(x)$ funksiyaning xosilasi $F'(x)$ berilgan $f(x)$ funksiya teng bo'lsa, $F'(x) = f(x)$ yoki $dF(x) = f(x) dx$ bo'lsa, u holda $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi deb ataladi.

Misolllar: 1. $F(x) = x^2$ bo'lsin. Bu funksiyaning boshlang'ich funksiyasi

$$F(x) = \frac{1}{3}x^3 + c \text{ bo'ladi.}$$

2. $f(x) = \cos x$ bo'lsin. Bu funksiyaning boshlang'ich funksiyasi $F(x) = \sin x$ bo'ladi, chunki $F'(x) = (\sin x)' = \cos x = f(x)$

Agar $f(x)$ funksiya (a, b) da uzluksiz bo'lsa, u holda bu funksiya shu oraliqda boshlang'ich funksiya ega bo'ladi. $f(x)$ funksiya (a, b) da berilgan bo'lib, u shu oraliqda ikkita $F(x)$ va $F(x)$ boshlang'ich funksiyalariga ega bo'lsin.

Ta'rifga binoan $F'(x) = f(x)$, $F'(x) = f(x)$ bo'ladi.

Demak, $F'(x) = f(x)$, u holda yuqorida keltirilgan natijaga ko'ra $F(x)$ va $F(x)$ funksiyalar bir-biridan o'zgarmas songa farq qiladi.

$$f(x) = F(x) + C \quad (C - \text{const})$$

Demak, berilgan $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyalari cheksiz ko'p bo'lib, ular bir-biridan o'zgarmas songa farq qiladi. Agar $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiya bo'lsa, unda $f(x)$ ning istalgan funksiyasi

$$F(x) + C \quad (C - \text{const}) \text{ ko'rinishda bo'ladi.}$$

2-ta'rif: Agar $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi bulsa, u xolda $F(x) + C$ ifoda $f(x)$ funksiyaning aniqmas integrali deyiladi va $\int f(x) dx$ kabi belgilanib,

$$\int f(x) dx = F(x) + C, \quad (C - \text{const}) \text{ ko'rinishda yoziladi.}$$

Bu yerda $f(x)$ – integral ostidagi funksiya

$$F(x) dx \text{ – integral ostidagi ifoda}$$

\int - integral belgisi

x – integralning uzgaruvchisi

$f(x)$ – oshlangich funksiyasini topish amali funksiyani integrallash deyiladi.

Aniqmas integralning xossalari.

1. Aniqmas integralning hosilasi integral ostidagi funksiyaga tengdir

$$(\int f(x) dx)' = f(x)$$

2. Aniqmas integralning differensialini integral ostidagi ifodaga tengdir:

$$d\int f(x) dx = f(x) dx$$

1 va 2 xossalar aniqmas integral ta'rifidan kelib chikadi.

3. Funksiya differensialining aniqmas integrali u funksiyadagi ixtiyoriy

o'zgarishni qo'shilganiga tengdir $\int d[F(x)] = F(x) + C$

$$\text{Isbot: } \int d[F(x)] = \int F'(x) dx + C$$

4. O'zgarish ko'paytuvchini integral belgisi oldiga chiqarish mumkin, ya'ni

$$\int a f(x) dx = a \int f(x) dx$$

Isbot: integral ta'rifiga asosan

$$[\int a f(x) dx]' = a f(x)$$

Ikkinchi tomondan $[a \int f(x) dx]' = a [\int f(x) dx]' = a f(x)$

Shunday qilib $\int a f(x) dx = a \int f(x) dx$

5. Bir nechta funksiyaning algebraik yig'indisidan olingan aniqmas integral shu funksiyalardan olingan integrallarning algebraik yig'indisiga teng, ya'ni

$$\int [f_1(x) + f_2(x) - f_3(x)] dx = \int f_1(x) dx - \int f_2(x) dx + \int f_3(x) dx$$

Isbot : ta'rifga asosan

$$(\int [f_1(x) + f_2(x) - f_3(x)] dx)' = f_1(x) + f_2(x) - f_3(x)$$

Ikkinchi tomondan $(\int f_1(x) dx + \int f_2(x) dx - \int f_3(x) dx)' =$

$$= (\int f_1(x) dx)' + (\int f_2(x) dx)' - (\int f_3(x) dx)' = f_1(x) + f_2(x) - f_3(x)$$

Natija. X o'zgaruvchidan boshqa u o'zgaruvchiga o'tilganda integral ko'rinishi o'zgarmaydi, ya'ni

$$\int f(x) dx = F(x) + C$$

$$\int f(u) du = F(u) + C$$

Asosiy integrallar jadvali.

$$\text{I. } \int x^m dx = \frac{x^{m+1}}{m+1} + C \quad (m \neq -1)$$

$$\text{II. } \int dx/x = \ln |x| + C \quad x \neq 0$$

$$\text{III. } \int \sin x dx = -\cos x + C$$

$$\text{IV. } \int \cos x dx = \sin x + C$$

$$\text{V. } \int a^x dx = \frac{a^x}{\ln a} + C$$

$$\text{VI. } \int e^x dx = e^x + C$$

$$\text{VII. } \int dx/\cos^2 x = \operatorname{tg} x + C$$

$$\text{VIII. } \int dx/\sin^2 x = -\operatorname{ctg} x + C$$

$$\text{IX. } \int dx/(1+x^2) = \operatorname{arctg} x + C$$

$$\text{X. } \int \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}} = \operatorname{arcsin} x + C$$

$$\sqrt{1-x^2}$$

$$\text{XI. } \int \operatorname{tg} x \, dx = -\ln |\cos x| + C$$

$$\text{XII. } \int \operatorname{ctg} x \, dx = \ln |\sin x| + C$$

$$\text{XIII. } \int \frac{dx}{a^2 + x^2} = \frac{1}{a} \operatorname{arctg}(x/a) + C$$

$$\text{XIV. } \int \frac{dx}{\sqrt{a^2 - x^2}} = \operatorname{arcsin}(x/a) + C$$

$$\text{XV. } \int \frac{dx}{\sqrt{x^2 \pm a^2}} = \ln |x + \sqrt{x^2 \pm a^2}| + C$$

$$\text{XVI. } \int \frac{dx}{x^2 \pm a^2} = \frac{1}{2a} \ln \left| \frac{a+x}{a-x} \right| + C$$

Bu integrallardan birining, masalan $\int \frac{dx}{a^2 + x^2} = \frac{1}{a} \operatorname{arctg} \frac{x}{a} + c$

to'g'riligini ko'ramiz.

Integrallash usullari.

1. Bevosita integrallash usuli.

2. Differensial belgisi ostiga kiritish usuli.

$$x = \varphi(u), \quad dx = \varphi'(u) du \text{ deb olsak}$$

$$\int f(x) dx = \int f[\varphi(u)] \varphi' du \text{ buladi}$$

Bunday usul o'zgaruvchini almashtirish usuli deb ataladi. Sodda xollarda integral belgisi ostidagi differensial ifodani kuyida kursatilganidek:

$$dx = (1/a) d(ax + b); \quad 2x dx = d(x^2) \quad \cos x dx = d(\sin x) \quad dx/x = d(\ln x)$$

va shunga o'xshash almashtirib va kavslar ichidagi ifodalarni u deb faraz qilish asosida yangi o'zgaruvchi u ni kiritish amalini ko'ngilda bajarish tavsiya qilinadi.

Bu usul bilan integrallash bevosita integrallash deyiladi.

$$1\text{-misol: } \int \frac{dx}{1+9x^2} = \frac{1}{3} \int \frac{d(1+(3x)^2)}{1+(3x)^2} = \frac{1}{3} \arctg 3x + c$$

Bo'laklab integrallash.

Bu usul ikki funksiyaning ko'paytmasini differensiallash formulasidan kelib chiqadi. Faraz qilaylik, $u(x)$ va $v(x)$ – x ning differensiallanuvchi funksiyalari bo'lsin.

Bu funksiyalar ko'paytmasining differensialini topamiz:

$$d(uv) = v du + u dv$$

$$\text{bundan } udv = d(uv) - vdu$$

Oxirgi tenglikning ikkala qismini integrallab, quyidagini topamiz:

$$\int udv = \int d(uv) - \int vdu \quad \text{yoki} \quad \int udv = uv - \int vdu$$

Bu formula bo'laklab integrallash formulasi deyiladi.

$$\text{Ushbu I } \int x^m \sin x dx; \quad \int x^m \cos x dx; \quad \int x^m e^x dx$$

Tipidagi integrallar uchun $x^m = u$

qolgan ko'paytuvchilar $= dv$ belgilash qulaydir

$$\text{II } \int x^m \ln x dx; \quad \int x^m \arcsin x dx; \quad \int x^m \arccos x dx;$$

$$\int x^m \arctg x dx; \quad \int x^m \text{arcctg} x dx;$$

tipidagi integrallar uchun

transsendent ko'paytuvchi = u
 qolgan kupaytuvchilar = dv } deb belgilash qulaydir.

III. $\int e^{ax} \sin bx \, dx$; $\int e^{ax} \cos bx \, dx$

Tipidagi integrallar uchun

kolgan kupaytuvchilar $e^{ax} = u$
 $= dv$ } deb olish kulaydir.

$$\text{Misol: } \int \ln x \, dx = \left. \begin{array}{l} \ln x = u \quad du = dx/x \\ dx = dv \quad v=x \end{array} \right| = x \ln x - \int x \cdot (1/x) \, dx = x \ln x - \int dx = x \ln x - x + C$$

Xulosa: Demak, integrallashni bo'laklab ishlash mumkin. Integrallashning usullari bevosita integrallash usuli va differensial belgisi ostiga kiritish usullari mavjud. Aniqmas integrallash jadvali asosida misollar bajariladi.

Adabiyotlar:

1. Т.Азларов, Ҳ.Мансуров. Математиканализ. 1-қисм. Тошкент «Ўқитувчи», 1986.
2. Г.Н.Берман. Сборник задач по курсу математического анализа. Москва, «Наука», 1985.
3. Я.С.Бугров, С.М.Никольский. Элементы линейной алгебры и аналитической геометрии. Москва, «Наука», 1980.
4. А.А.Гусак. Высшая математика. 1-том. Минск, 2001.
5. Т.Жўраев, Ҳ.Мансуров ва бошқ. Олий математика асослари. 1-қисм. Тошкент «Ўқитувчи», 1999.

6. И.А.Зайцев. Высшая математика. Москва, «Наука», 1991.
7. Д.В.Клетеник. Сборник задач по аналитической геометрии. Москва, «Наука», 1986.
8. Х.Р.Латипов, Ш.Таджиев. Аналитик геометрия ва чизиқли алгебра. Тошкент «Ўқитувчи», 1995.
9. В.П.Минорский. Сборник задач по высшей математике. Москва, «Наука», 2000.
10. Н.С.Пискунов. Дифференциал ва интеграл ҳисоб. 1-том, Тошкент, «Ўқитувчи», 1972.
11. Д.Т.Письменный. Конспект лекций по высшей математике. Часть-1. Москва, «Наука», 2000.
12. Ё.У.Соатов. Олий математика 1-жилд. Тошкент, «Ўқитувчи», 1992й.

“KOMPLEKS SONLAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA “BUMERANG” TEKNOLOGIYASI

Darmonova Adolat Bahodir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada “Kompleks sonlar” mavzusini “Bumerang” texnologiyasi yordamida o‘qitish usuli yoritilgan. “Bumerang” texnologiyasi turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishda qulay bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan talaba yoki o‘qituvchi rolida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashiga imkoniyat beradi, talabalarni mashg‘ulot jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha talabalarni baholay olishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Kompleks sonlar, “Bumerang” texnologiyasi, dars, talaba, o‘qituvchi, mavzu, baholash, gurux, o‘quv materiallari.

BOOMERANG TECHNOLOGY IN TEACHING PRIMITIVE RECURSIVE FUNCTIONS

Darmonova Adolat Bakhodir qizi

Chirchik State Pedagogical University

Abstract: The article describes how to teach "Complex Numbers" using Boomerang technology. Boomerang technology is convenient for the study of topics with different content and character (problematic, controversial, different meanings), including oral and written forms of work, and during one session each allows the participant to perform various tasks, in turn in the role of a student or teacher, to collect the required score, to teach students in the classroom, outside the classroom to work with different literature, texts, memorize the studied material, so to be able to express themselves freely and to evaluate all students during a lesson.

Keywords: Complex numbers, Boomerang technology, lesson, student, teacher, topic, assessment, group, teaching materials.

Hozirgi vaqtda ilg'or pedagogik texnologiyalar (interfaol usullar) mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishli tayyorgarlik ko'riladi. Bu matematika fani darslarini o'tishda juda muhim hisoblanadi. Bunda o'quvchilarning tayyorgarliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi. Xususan: mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qilish ko'nikmalari va boshqalar...

Otilgan buyumning otuvchiga qaytib kelishini ta'minlovchi o'roqsimon otish quroliga bumerang deyiladi. Ta'limda bumerang metodining ma'nosi pedagog tomonidan tashlangan muammoli masala yoki mavzuning talabalar tomonidan o'zlashtirilgan holda o'qituvchiga og'zaki yoki yozma shaklda qaytishidan iborat.

1. Darsda o'rganiladigan mavzuning rejasida 4 ta qism mavzular bo'lsa, o'quv xonasidagi talabalar ham 4 guruhga ajratiladi. Rejadagi birinchi qism mavzu o'qituvchi tomonidan tayyorlangan javoblari bilan birinchi guruh talabalarining har biriga taqdim etiladi. Shu tariqa rejadagi boshqa qism mavzular ham javoblari bilan birgalikda o'ziga mos nomerdagi guruhlarining talabalariga tarqatiladi. Har bir guruhdagi talabalar o'zlariga javoblari bilan taqdim etilgan bitta qism mavzuni o'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda o'rganib chiqadilar.

2. Shundan keyin 4 guruh talabalarini aralashtirilib, yangi tarkibdagi 4 guruh tashkil etiladi. Bu yangi guruhlarining har birida dastlabki 4 guruhlarining barchasidan bir nechtadan talabalarining ishtirok etishiga erishiladi. Natijada butun o'quv materialini yaxlit jamoa bo'lib o'rganish imkoniyati tug'iladi. Muhimi, talabalarda o'quv materialini mustaqil o'rganish, hamkorlikda ishlash, bilganlarini boshqalarga tushuntirish bilish ko'nikma va malakalari shakllanadi.

3. O'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda mavzuni jamoa bo'lib o'rganish yakunlangach, talabalar dastlabki guruhlariga qaytishadi va savol-javoblar boshlanadi. O'qituvchining tashkilotchiligi asosida savollar boshqa guruhlar tomonidan bitta jamoaga beriladi. Jamoa ichidan o'zlari tanlagan bir talaba

sheriklarining to'plagan ballarini yozib, jamlab, natijalarini o'qituvchiga topshiradi. Barcha guruhlar shu tarzda savol-javobdan o'tkaziladi. Bunda qo'yilgan savolga to'g'ri javob bergan talabaga 3 ball, to'g'ri qo'shimcha qilganga 2 ball, to'g'ri replika qilganga 1 ball, umuman fikr bildirmaganga 0 ball qo'yiladi.

4. Har bir guruh mavzu bo'yicha o'zlari bittadan savol tuzib, unga javob berishni boshqa jamoalarga taklif etadi. To'g'ri javob bergan jamoaning umumiy baliga 3 ball qo'shib, boshqalarga 0 ball qo'yiladi. Hech kim javob bera olmasa, savolni tuzgan jamoaning o'zi javob bersa, ularning umumiy baliga 3 ball qo'shib qo'yiladi.

Endi har bir talabani baholash uchun ularga mavzu bo'yicha oldindan tayyorlangan test topshiriqlari tarqatiladi. Bir guruhning ish natijalarini boshqa jamoa talabalari tayyor javoblar asosida tekshirib, o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan shkala bo'yicha ball qo'yiladi.

5. Dars o'qituvchi tomonidan talabalar ishtirokida mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Guruhlar va talabalarga to'plagan ballar e'lon qilinib, rag'batlantirish amalga oshiriladi. Kelgusi dars uchun kerak bo'ladigan topshiriq va vazifalar shakllantiriladi.

Guruh talabalarining tayyorgarlik darajasiga, o'quv materiallarning hajmi, oson yoki qiyinligiga bog'liq ravishda dars vaqtida yetishmovchilik kutilsa, to'rtinchi bosqichni o'tkazmaslik mumkin.

Bumerang texnologiyasini o'tkazish bosqichlari

1- bosqich. Guruh talabalari 4-5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi;

- o'qituvchi har bir guruh va uning har bir a'zosiga mustaqil o'rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun alohida-alohida aniq yozma tarqatma material beradi. Ularning soni guruhlar va talabalar soniga bog'liq. Agar 5 ta kichik guruh bo'lsa, u holda umumiy mavzu 5 ta kichik matnlarga bo'linib har bir guruhga beriladi;

- faoliyat samarali bo'lishi uchun har bir guruhga berilgan matndan har bir talabaga beriladi. Shunday qilib, 5 ta guruh umumiy mavzu asosida 5 xil matnga, har bir talaba esa o'z guruhiga tushgan matnga ega bo'ladi.

Namuna sifatida “Kompleks sonlar” mavzusini 5 ta qismga ajratib kichik guruhlarga tarqataylik:

1. Kompleks son va uning algebraik, trigonometrik, ko‘rsatkichli shakllarihamda ular ustida amallar.

2. Algebraning asosiy teoremasi.

3. Kubik tenglama

4. Kardano formulasi.

5. Yuqori darajali tenglamalar.

2- *bosqich*. Guruhlarga berilgan matnni guruh a‘zolari yakka tartibda alohida o‘rganishlari, matnni eslab qolishlari, keyin esa kerak bo‘lsa boshqalarga yoki o‘qituvchiga gapirib berishlari, iloji boricha matnni o‘zlashtirib olishlari kerakligini o‘qituvchi uqtiradi va tayyorgarlik uchun matnni katta yoki kichikligiga qarab 10-15 daqiqacha vaqt beradi. O‘zi esa guruh va talabalarning ish faoliyatini kuzatadi.

3-*bosqich*. O‘qituvchi oldindan tayyorlab qo‘yilgan raqamlar yozilgan kichik qog‘ozlar bilan xar bir guruh yoniga kelib guruh a‘zolaridan ushbu qog‘ozlardan bittadan raqam tortib olishlarini so‘raydi (qog‘ozlar soni guruhdagi talabalar soniga bog‘liq, masalan guruhda 5 kishi bo‘lsa, qog‘ozdagi raqamlar 1,2,3,4,5 etib tayyorlanadi. Kichik guruhlardagi barcha talabalar raqamlar yozilgan qog‘ozdan olishlari kerak. Nechta guruh bo‘lsa, shuncha guruh a‘zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog‘ozlar tayyorlanadi. O‘qituvchi raqamlar bo‘yicha talabalardan yangi guruhlar tuzishlarini so‘raydi. Masalan, hammada 1-raqamini olganlar bitta yangi guruh, 2-raqamlilar ikkinchi, 3- raqamlilar uchinchi guruhni, 4-raqamlilar to‘rtinchi guruhni, 5-raqamlilar beshinchi guruhni tashkil etishlarini so‘raydi. Guruh a‘zolari yangi guruhga o‘zlari bilan o‘rgangan matnlarini ham olib o‘tishadilar.

4-*bosqich*. Raqamlar bo‘yicha yangi guruhlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar o‘z-o‘zidan to‘planib qoladi, ya‘ni 5 xil matn o‘rganilgan bo‘lsa, bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil to‘planadi, umumiy mavzu bo‘yicha 5 talaba va 5 xil matn to‘planadi.

5-bosqich. Yangi tuzilgan guruhning har bir a'zosi endi o'ziga 2 ta vazifa, ya'ni o'qituvchi va talaba vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko'rsatadi:

- o'qituvchi (o'rgatuvchi) sifatida, o'zi avval o'rgangan materialni gapirib beradi, o'zi mustaqil o'rgangan materialning asosiy joylariga barchaning diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a'zolarining tushunish va o'zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi.

- talaba sifatida, guruh a'zolarining navbatma-navbat so'zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

- o'qituvchi esa ularga o'z matnlarini faqat so'zlab berishlari kerakligini uqtiradiva bunga 20 daqiqacha vaqt beradi (matn hajmiga va umumiy mavzuning qiyin, osonligiga qarab vaqt ajratiladi).

Bu bosqichda trening boshlanishida tarqatilgan barcha material talabalar tomonidan o'zlashtirilgan hisoblanadi.

6-bosqich. Guruhdagilar bir-birlariga o'z matnlarini gapirib berib, barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, o'qituvchi o'rganilgan material guruh a'zolari tomonidan qanchalik o'zlashtirib olganini tekshirib ko'rish uchun har bir guruh a'zolarining bir-birlariga o'z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkinligini tushuntiradi. Shunday qilib, guruh ichida ichki nazorat, ya'ni savol-javob orqali o'tkaziladi. Bu esa guruhdagi talabalarni bir-birlariga so'zlab bergan materiallarini boshqalar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga, o'zining bilimini yanada mustahkamlashiga yordam beradi.

7-bosqich. O'qituvchi barcha talabalarni yana qaytadan avvalgi joylariga qaytishlarini so'raydi, ya'ni talabalar yana mashg'ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

8-bosqich. O'qituvchi o'quv xonasidagi talabalarning barchasi hammaga tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lganliklarini hisobga olgan holda, har bir talabadan o'rganilgan materialni so'rashi mumkinligini aytadi.

9-bosqich. Talabalarga tarqatilgan o'quv materialining ular tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi talabalarning nazorat savollariga bergan javoblarini reyting ballari orqali baholashini tushuntiradi, masalan, savollarga berilgan javoblar- agar to'liq javob bo'lsa - 3 ball, qo'shimcha qilinsa - 2 ball, o'tirgan joydan luqma tashlansa - 1 ball, javob berilmasa - 0 ball qo'yilishi belgilanadi.

Baho sistemasida - to'liq javob uchun 5 baho, qo'shimcha uchun 4 baho, luqma tashlansa 3 baho, javob bermasa 2 baho qo'yishni belgilash mumkin.

Guruh a'zolarining javoblarini yuqorida ko'rsatilgan tartibda baholash, ballarni qo'yib borish, umumlashtirish uchun har bir guruh o'ziga guruh qatnashchilaridan birini "hisobchi" etib tayinlashi mumkin ("hisobchi" ham davrada bo'layotgan savol-javoblar muloqotida ishtirok etadi).

10-bosqich. O'qituvchi tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5-6 ta) bilan talabalarga murojaat qiladi (savollar iloji boricha hamma matnlarga tegishli bo'lgani ma'qul, shuningdek, o'qituvchi o'quv xonasidagi barcha talabalarni javob berish uchun qamrab olishga harakat qiladi).

Savollardan namunalar:

1. Kompleks son deb nimaga aytiladi?
2. Kompleks sonning algebraik shakli qanday bo'ladi?
3. Kompleks sonlarning yihindisi, ayirmasi, ko'paytmasi va bo'linmasi qandaytopiladi?
4. Kompleks sonlarning trigonometrik ko'rinishi qanday?
5. Muavr formulasi nimadan iborat?
6. Eyler formulasi qanday?
7. Algebraning asosiy teoremasi nimadan iborat?
8. Kardano formulasi qanday?
9. Yuqori darajali tenglamalarni yechishning qanday usullarini bilasiz?

Belgilangan savollarga javob berish tugagach, o'qituvchi doskaga guruhlar tomonidan to'plangan ballarni yozadi va mashg'ulotning keyingi bosqichiga o'tadi.

11-bosqich. O‘qituvchi har bir guruhni o‘z yozma materiallarining mazmunidan kelib chiqqan holda bittadan savol tayyorlashlari kerakligini aytadi va guruhlarga savol tuzishlari uchun 5 - 7 daqiqa vaqt ajratadi.

12-bosqich. Guruhlar bir-birlariga savollar beradilar, guruhlardagi “hisobchilar” esa guruh a’zolarining javoblarini yuqorida belgilangan tartibda baholab boradilar. Javoblar to‘g‘ri bo‘lsa, savol bergan guruh javobni to‘ldirmaydi.

13-bosqich. O‘qituvchi guruh a’zolari to‘plangan ballarni yana bir marta doskaga yozadi va to‘plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymatini aniqlaydi. To‘plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymati barcha guruh a’zolariga teng bo‘linadi (kelishganlik asosida). Izoh: agar to‘plangan ballarni guruh a’zolariga teng bo‘lishda talabalartomonidan norozilik bo‘lsa, ya’ni ba’zi guruh a’zolari guruhning faoliyatida faol ishtirok etib, umumiy jamoaviy faoliyatda passiv bo‘lgan bo‘lishsa, yoki umuman ishtirok etmagan, qiziqmagan bo‘lishsa, bunday holatda vaziyatni yechishni guruh a’zolariga yuklatiladi. Guruhning yechimi to‘g‘ri hisoblanadi, yoki o‘qituvchi o‘z fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars jarayonida talabalarning javoblari, faol yoki passivliklarini kuzatib boradi.

Umuman olganda, agar talaba faollik ko‘rsatmagan, yoki savol - javoblarda ishtirok etmagan bo‘lsa ham uning shu dars jarayonida biron narsani eslab qolib o‘zlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik ball berilishi mumkin. Bu talabani keyinchalik shu shakldagi darslarda faolroq bo‘lishga undaydi. Yuqoridagi kabi vaziyat vujudga kelsa uning yechimini har bir o‘qituvchi sharoitga qarab o‘zi hal etishi yoki guruh, jamoaga tashlashi mumkin.

Ba’zida guruhning “hisobchilari” ballarni qo‘yishda noaniqlik yoki qo‘shib yozishlari mumkin, natijada, ba’zi guruhlarning umumiy to‘plangan ballari boshqa guruhlarnikidan juda kam farq qilishi mumkin. Talabalarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlangan “hisobchi”lariga bog‘liq ekanligini o‘qituvchi oldindan eslatib o‘tadi. Agar umumiy to‘plangan ballarni guruh a’zolariga taqsimlaganda shu mashg‘ulot uchun belgilangan maksimal balldan ortib ketgan

bo'lsa, u holda shu mashg'ulot uchun kerakli ballni olib qolib, ortiqchasini keyingi mashg'ulotlarga yoki yakuniy nazoratga o'tkazish mumkin.

14-bosqich. Har bir talabaga ballar qo'yilgach o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi.

Talabalarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o'z fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga murojaat qiladi:

- bugungi mashg'ulotdan nimalarni bilib oldingiz?
- nimalarga o'rgandingiz?
- nimalar siz uchun yangilik bo'ldi?
- yana nimalarni bilishni istar edingiz?

15-bosqich. O'qituvchi talabalarning javoblarini diqqat bilan tinglab ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. Maqolada keltirilgan texnologiya yordamida darslarni samarali tashkil qilish mumkin [1-30]. O'quv mashg'uloti davomida o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish maqsadida turli zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nafaqat fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradib balki ularning chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar tizimi:

1. Avezov A.X., Hakimova S.H., Hamroyeva Y.A. Analitik geometriya va chiziqli algebra bobini takrorlashda grafik organayzer metodlari // Scientific Progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1680-1688.
2. Avezov A.X., Amrullayeva A.N., Namozova M.M. "Aqliy hujum" va "Keys study" metodlari yordamida "funksiya hosilasi" mavzusini o'qitish // Scientific Progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1689-1697.
3. АВЕЗОВ А.Х. On The Application of the Finite Element Method in Dynamic and Static Problems of the Mechanics of A Deformable Body // International Journal

WWJMRD, 5:6, (2019); p.10-14.

4. Курбонов Г.Г. Интерактивные методы обучения аналитической геометрии: метод case study. Наука, техника и образования. 2020. №8(72). стр 44-47.

5. A.Sh.Rashidov. Development of creative and working with information competences of students in mathematics. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8:7 (2020), Part II, pp. 10-15.

6. Авезов А.Х. Некоторые численные результаты исследования трехмерных турбулентных струй реагирующих газов // Вестник науки и образования. – 2020. – №. 17-2 (95), С. 6-9.

7. Курбонов Г.Г., Зокирова Г.М., Проектирование компьютерно-образовательных технологий в обучении аналитической геометрии. Science and education. 2:8 (2021), Pp. 505-513.

8. Avezov, A.Kh., Akhmedov, M.S., Saidzhonova, M.S., Ata-Kurbanova, F.B. Numerical simulation of three-dimensional turbulent reacting gas jets arising nozzle rectangular based "K-ε" turbulence models // Journal of Multidisciplinary Engineering Science and Technology. – 2015. – №. 2. – С. 7.

9. Расулов Х.Р., Раупова М.Х. Математические модели и законы в биологии // Scientific progress, 2:2 (2021), p.870-879.

10. Avezov A.X., Raxmatova N. EYler integrallarining tadbiqlari // Scientific progress, 2:1 (2021), с.1397-1406.

11. Ахмедов О.С, Курбонов А.А. Одаренность, как социально-педагогическая проблема // Science and Education. 2:10 (2021). P.291-302.

12. Ахмедов О.С. Профессия – учитель математики // Scientific progress, 2:1(2021), p.277-284.

13. Rashidov A.Sh. Use of differentiation technology in teaching mathematics. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8:3 (2020), Part II, pp. 163-167. Kurbonov G.G., Istamova D.S., The Role of Information Technology in Teaching Geometry in Secondary Schools. Scientific progress. 2:4(2021), Pp. 817- 822.

14. Ахмедов О.С. Методы организации работы с одаренными учащимися // Science and Education. 2:10 (2021). P.239-248.

15. Rashidov A.Sh. Interactive methods in teaching mathematics: CASE STUDY method. XXXIX Международной научно- практической заочной конференции «Научные исследования: ключевые проблемы III тысячелетия» (Москва, 2-3 августа, 2020 года) с.18-21.

16. Курбонов Г.Г. Информационные технологии в преподавании аналитической геометрии. Проблемы педагогики. 2021. №2(53). стр. 11-14.

17. Авезов А.Х., Amrullayeva A. N., Namozova M.M. «Aqliy hujum» va «keysstudy» metodlari yordamida «funksiya hosilasi» mavzusini o‘qitish // Scientific progress, 2:6 (2021), с.1689-1697.

18. Rasulov T.H., Rashidov A.Sh. The usage of foreign experience in effective organization of teaching activities in Mathematics. International journal of scientific & technology research. 9 (2020), no. 4, pp. 3068-3071.

19. Курбонов Г.Г. Преимущества компьютерных образовательных технологий при обучения темы скалярного произведения векторов. Вестник наука и образования. 2020. №16(94). Часть.2. стр 33-36.

20. Умарова У.У. “Формулалар ва уларнинг нормал шакллари” мавзусини ўқитишда ўйинли методлар (pp. 810-817).

21. Авезов А.Х. Некоторые численные результаты исследования трехмерных турбулентных струй реагирующих газов // Вестник науки и образования, 17:95-2, (2020), с. 6-9.

22. Avezov A.X., Fayzullaeva N.V., Aminova Sh.Y. Avtonom differensial tenglamalarning qo‘zg‘almas nuqtalari tasnifi haqida // Science and Education, scientific journal, 2:11 (2021), p.101-113.

23. Avezov A.X. Matematika fanini o‘qitishda tafakkur uslublari va shakllari // Science and Education, scientific journal, 2:11 (2021), p.739-748.

24. Авезов А.Х. Умумтаълим мактаблардаги математика дарсларида ахборот технологияларини ривожлантириш тамойиллари // Science and Education, scientific journal, 2:11 (2021), p.749-758.

25. Avezov A.X. Oliy matematika fanini o‘qitishda tabaqalash texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari // Science and Education, scientific journal, 2:11 (2021), p.778-788.

Расулов Х.Р. Об одной нелокальной задаче для уравнения гиперболического типа // XXX Крымская Осенняя Математическая Школа- симпозиум по спектральным и эволюционным задачам. Сборник материалов международной конференции КРОМШ-2019, с. 197-199.

ПРОБЛЕМА ИССЛЕДОВАНИЯ СВОЕОБРАЗИЯ СТИЛИСТИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА РОМАНОВ ЛЬВА ТОЛСТОГО

Косимов Алижон Рахматович

старший преподаватель кафедры русской филологии,
Ферганский государственный университет

Носирова Садафхон Азаматовна

студентка 4 курса направления
Филология и обучение языкам: русский язык
Ферганский государственный университет

***Аннотация.** Настоящая статья посвящена изучению проблемы исследования своеобразия стилистического мастерства романов Льва Толстого. Как мы знаем, что Л. Толстой отрицал существующие жанры, особенно жанр романа, и всю метафорическую систему преемников, а также современников с утверждением новейшего отношения диалекта и образного жанра романов. У Льва Николаевича Толстого очень своеобразный стиль письма; он пишет поэтично, использует сатиру и юмор.*

***Ключевые слова:** роман, стиль, деревенский быт, язык романов, пейзаж, проза, многоязычие.*

Л.Н. Толстой как художник слова проявлял в своих произведениях непревзойденное стилистическое мастерство. Наиболее ярко его гений художественного слова воплотился в его непревзойдённых художественных творениях.

Слово "мастерство" термином не является и в словари не входит. Тем не менее, оно часто встречается в темах сочинений в самых разных сочетаниях: «Мастерство Грибоедова-драматурга», «Мастерство психологического анализа в романах Тургенева», «Поэтическое мастерство Тютчева» и тому подобное. В

1969 году был издан сборник «Мастерство русских классиков», а ещё раньше — монографии разных авторов, посвящённые мастерству Некрасова (К.И. Чуковский), Тургенева (А.Г. Цейтлин), Пушкина (А.Л. Слонимский), Л.Толстого (Л.Мышкова) и других.

Чем больше мы прочтём учёных сочинений на тему "мастерство писателя", тем яснее нам станет тот простой факт, что каждый автор вкладывает в это слово своё собственное значение; при этом простой здравый смысл подсказывает нам и нашим ученикам некоторые общие соображения, которые, по-видимому, следует сформулировать, не прибегая к авторитетам.

Во-первых, стилистическое мастерство писателя означает незаурядность его мировосприятия, его мироощущения: художник, способный выражать лишь банальности, не заслужит в своих читателях звания мастера. Именно поэтому прописи в стихах, популярные у некоторых (впрочем, многих) читателей и читательниц, при всей симпатии к их высоконравственным авторам, поэзией не стали и вполне оправданно забылись. Во-вторых, мастер — мастер формы; он пишет так, как до него писать не умели (впрочем, это справедливо лишь для искусства XIX–XX веков; традиционные, канонические искусства — например иконопись — имеют совсем другие критерии). И, наконец, главное: то, что говорит писатель, соответствует тому, как он это говорит; пожалуй, согласие между формой и содержанием художественного текста, единство их — важнейший признак подлинного мастерства. Из этих нехитрых постулатов мы и будем исходить.

Глубокое противодействие, которое сформировало стиль Толстого, было противодействие тургеневскому роману. «Автор должен иметь свой неповторимый характер, последовательное и ясное осмысление того, о чем он пишет». Тургенев ценил свою способность и одинаковое понимание, глубокого анализа, показывал с разных сторон прекрасный характер людей, не настаивая и не претендуя на конечную истину, - и это возмущало Толстого. Он нуждался в писателе, главным свойством которого было бы «поиск истины», выявляющий и

уничтожающий ложь, исследующий, сомневающийся, непоколебимый в своих исканиях, строгий в убеждениях, добытых им.

Толстой создает идеализированные персонажи, что само по себе может быть очень плохо, потому что у такого персонажа нет места для роста на протяжении всей книги. Однако Толстой не делает всех своих персонажей идеальными, скорее он использует их, чтобы противопоставить уродливую часть жизни, изображаемую им [1].

В романе «Семейное счастье», Толстому было не удобно. Мастерски звучал тон повествователя в лице юной особы, который не дает ему покоя. Что-то тургеневское проявлялось в этом произведении, поэзию этого произведения создавали живущий в красочном кусте соловей, «круги света и тени», «волшебная стена красоты», выдающие недовольство Толстого. В частности, в образе природы, душевном смятении и поисках героев, он пытался размахнуться по всей ширине, мыслить, отстаивать мысль в образах. На подступах к образованию стилистического ядра «Войны и мира» стоял не этот его ранний роман, а кавказские и особенно севастопольские рассказы. Автор тут совсем отступает в сторону – события, людей, характеры, рядовых солдат и офицеров, и не все они герои, которые превознесены над другими. В поисках истины, во взрыве мнимой истины показывает деятельность писателя и его творчество как автора в целом. В «Войне и мир» видно уже везде: употребление одного отдельного слова, выбор нужных ему этимологически-синтаксических форм, осмысление любого элемента поэтического сочинения, философская направленность каждого изображения, развитие действия, общее строение произведения.

Все образы романа равномерно немаловажные звенья ради формулирования мысли. Из потребности сопоставлять, противопоставлять, сочетать, связывать, заполнять одно другим «сопрягать» получаются и необыкновенность и синтаксической составляющей романа эпопеи. Толстой «описывает словами не ее самую улыбку, а ее «содержание», ее психический эквивалент», вручает не ак

корд голоса, не видимый жест, а неуклонно их душевнее свойство и действие. В романе точно поставлены сложные извилистые пути душевного развития каждого из героев. В любом своем поступке, чувстве, слове или жесте персонаж романа предан себе и в именно это время подвержен давлению событий предоставленного именно в этой части произведения, побуждениям, в одействиям на него. Да, в данном случае автор во власти своего героя.

Писатель не столько вмешивается, он постоянно в действии, он всегда здесь. «Своеобразие реализма Толстого дает обширный охват в том, что в его произведениях не столько показывается правда, но также демонстрируется путь к ней и ход ее искания».

Еще одной особенностью прозы Толстого являются «ключевые слова». Выражения и слова которые являются идеальным стержнем образования романа. Часто в эпизодах, которые идут наперекор доминирующему чувству изображенной сцены, звучит голос автора, и возникает неожиданная, строгая идея [1].

Деревенский быт Вронского и Анны кажется таким благоустроенным, разумным, блестящим; Анна так уверена и логична беседует за столом, в уединенном разговоре с близкой другой. Но только как «путаницу кружащихся сумасшедших мыслей» воспринимает все это Долли. Во всём романе писатель, как и в «Войне и мире», даёт понять, направляет читателя в след за собой, раскрывает самые тайные мысли своих персонажей, сливается в них, переворачивает и направляет их: «..всегда сочувствовал ему, - сказал себе Алексей Александрович, и это было ложью, он никогда не сочувствовал...». В произведение «Воскресенье» более сильно, чем в прошлых художественных произведениях Толстого, находится авторское начало, субъективная оценка писателя, описывающего действующих в романе персонажей и их поступков, особенно отрицательных, явлений их жизни. Огромное количество персонажей воплощает все самые значимые мысли автора и направляет его для определения выводов [1].

Стоящий на первом месте мотив - проявление сытых: «толстый, прекрасно одетый господин», «сытое тело», «толстый смотритель», «сильно перекормленный человек», «жирный лавочник», «человек с прекрасным пищеварением». Чаще всего о человеке говорится всего одним или двумя эпитетами: «с толстошеей хозяйкой» или «толстый величественный человек». Этим самым и доказывается роль и образ до самого конца. Эпитетом в одном лице высказывается ещё больше и полно, обобщающая характеристика превосходящих классов в целом и сущность общества.

Эпитет, являющийся саркастическим это «улыбающийся приказчик» приобретающий характер постоянного эпитета народного песенного эпоса с вариациями, незаменимых значений эпитета, - «улыбаясь», «этой улыбкой что-то обещая», «не переставая улыбаться» и пр. Это не просто характеристика приказчика, его лейтмотив, но и философская направленность всего романа: в романе мир «ликующих, праздно болтающих» полностью противоречит другому миру [2].

Язык романов Л. Толстого - это глубоко личный и несомненно главный язык. У Толстого присутствует безразличие к художественной форме; не оригинальность речи, не изящество, не звучность, а только ее полнота, ее тождественность сознанию и чувству составляет художество речи в его понимании. В прозе Толстого мы видим конечное разрушение граней между языком разговорным и литературным, создается «тождество эпистолярного и художественного стиля Толстого». И мы видим, что в его романах наблюдается «многоязычие». И состоит оно в том, что в романе «слились особенности речи письменно-литературной пушкинской школы и речи разговорной дворянской интеллигенции того же периода... слились особенности языка эпохи автора и эпохи изображаемых событий... что сложный по своему основному составу основной языковой материал «Войны и мира» заново вобрал в себя стихию народной речи...». При потоке разных диалектов — канцелярского, военного, пчеловодческого, охотничьего, наконец, о вторжении немецкой и французской

речи и все они - в пределах единственного русского языка. Писатель говорит современным на его взгляд языком, персонажи употребляют многие выражения и везде проникает «стихия народной речи».

Таким образом, стремление к полной психологической правде, к раскрытию индивидуально многообразных и все-таки точных и строгих законов душевной жизни человека составляет цель и сущность реализма Толстого. Лежащая на поверхности доля правды Толстого как художника не привлекала. Взрывать твердые скалы, пробивать путь в глубины, опрокидывать прописные истины, добывать противоречащие им, новые - вот что признавал он художеством, и к чему лежала его душа. «Срывание всех и всяческих масок» - господствующая черта в реализме Толстого. Толстого не использует манипулятивные приемы вроде притворства, преувеличения, искажения и т.д. Мы редко видим в его работах выдумки. У него нет особого интереса к языку; он враг риторики, виртуозности и хитрости. Он считал, что искусство есть не что иное, как украшение и очарование.

Список литературы:

1. Давлатова, Мансура Мансуровна, Гулчихра Насыровна Давлятова, and Алижон Рахматович Косимов. "Лингвокультурологический подход при обучении русскому языку в билингвальной образовательной среде." *ББК 81.2 Л59 73* (2021).
2. Косимов А. Р., Гафурова У. А. ЗНАЧЕНИЕ МЕДИАТЕКСТОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА //Universum: филология и искусствоведение. – 2022. – №. 4 (94). – С. 41-43.
3. Kosimov, Alijon Rakhmatovich, and Xumora Mukhammadisa Kizi Iminova. "Idea-Aesthetic Concept of the Writer in the Aspect of the Development of Modern Uzbek Literature." *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding* 8.5 (2021): 274-279.
4. Rakhmatovich K. A., Saidjanovna T. U. К ВОПРОСАМ ПЕРЕВОДЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //Zbiór artykułów naukowych recenzowanych. – Т. 190.

CHET TILI O‘QITISH METODIKASI

Jo‘raboyeva K.N

O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti

Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrası

2- bosqich (fransuz tili) yo‘nalishi talabasi

Axmedov X.A

Ilmiy rahbar O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti o‘qituvchisi

Abstract: *This article talks about the methodology of foreign language teaching, the history of its development as a science, the types of modern methods used in the methodology of foreign language teaching and their use.*

Key words: *methodology, innovation, foreign language, communication, didactics, intercultural communication.*

Hozirgi davr ta‘lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. *Innovatsion – inglizcha “yangilikni kiritish (tarqatish)” ma‘nolarini anglatadi.* Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan.U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi,ularning yangilikka bo‘lgan munosabati va boshqalarni o‘rgangan. Ilmiy yo‘nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o‘zaro farqalanadi. *“Yangilik”- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma‘nosini anglatadi. “Innovatsiya”- bu ta‘lim, ma‘lum bosqichlari bo‘yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi.* Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlanib bormoqda.Ilm dunyomizga ilg‘or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda.Ta‘lim sohalariga ilg‘or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o‘rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo‘lmaydi.

■ *Chet til o'qitish metodi* – deyilganda chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi.

■ *Metod* atamasi “*ta'lim usullari yig'indisi*” va “*ta'limning yo'nalishi*” ma'nolarida qo'llanadi. Masalan, chet til o'qitishning tarjima metodi, tog'ri metod, ongli-qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi. O'zbek maktablarida chet til o'qitish metodikasini yaratishga atalgan qator tadqiqotlarda tajriba-sinov qilish namunasini eslab o'tish o'rinlidir. Iqtidorli metodist-olim Hoshimjon Soynazarov¹ ilmiy ishlarida ingliz tili leksik birliklarini retseptiv planda (idrok etib tushunishda) til tajribasining ko'chish me'yori eksperimental va nazariy asoslab berilgan. Yetuk metodist prof. Tojimat Qodirovich Sattorov² chet til grammatikasini faol o'zlashtirish eksperimental metodikasini ishlab chiqqan. Nemis tili sintaksisini o'zbek auditoriyasida o'rgatish bo'yicha ham ibratli tajriba-sinov o'tkazilgan³. Bir nechta ilmiy ishlarda chet tilni o'rgatish sohasidagi bajarilgan tajriba sinovlar ibratomuz namunalar darajasiga ko'tarilgan. Tajriba sinov mavzusida metodistlardan Eduard Abramovich Shtulman⁴ chuqur ilmiy tadqiqot olib borgan.

■ Aynan bu bilimlarimiz ongimizda saqlab qolishimiz, kommunikativ didaktikaga oid ma'lumotlarni o'rganishimiz, “*kommunikatsiya*” tushunchasidan kelib chiqqan holda, “madaniyatlararo muloqot” terminiga o'zaro mazmuniy jihatdan bog'lanadi.

■ *Madaniyatlararo muloqot* - turli ma'daniyat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, urf-odatlarini, qadriyatlarini sistemasi va boshqalar tog'risidagi muloqoti-ma'lumotidir. Madaniyatlararo muloqot formulasi sabrlik, bag'rikenglik hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotda ijtimoiy-madaniy xatolarga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Masalan, nemis xalqida, “Tee oder Kaffee?” ya'ni “choymi yoki kofemi” degan savolga ona tilimizda, - “Tee”, “choy”- deb javob beramiz, lekin nemis tilida esa bunday javob tog'ri kelmaydi. Nemis tilida, “Bitte, Tee” ya'ni, “Marhamat, choy” deb javob beriladi. So'z kishilarni muloqot orqali bir-biriga bog'laydi. Bu jarayonda kommunikativ vositalar, ko'rgazmalilik, zamonaviy

texnologiya turlari, usullari, izchillik prinsipi ta'minlansa, ta'limning sifati va samaradorligi oshib boraveradi⁵.

Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi. *Kommunikativ didaktika* metodini qo'llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi. Chet til o'rganish natijasida o'zga mamlakat madaniyati ham o'zlashtiriladi. Chet til ta'limida kerakli bilimlarni egallash uchun "*mashqni tashkil qilish texnologiyasi*" muhim ahamiyat kasb etadi⁶. Barcha bilimlarni o'zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat chet til ta'limida balki barcha soha bilimlarini o'zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Chet til o'rganish jarayonini kommunikativlikka yondashgan holda tashkil qilish, keyingi bosqich madaniyatlararo muloqot darajasiga yetkazish, bunday natijalarga erishish uchun esa, so'ngi qadam, "*mashq texnologiyasi*" ga e'tibor qaratish muhim. Chet til o'rgatish jarayonini natijaviy tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlar egallash lozim.

REFERENCES

1. H. Saynazarov. Teaching English vocabulary in the upper classes of the Uzbek school: Kand. diss. - JL, 1982.
2. T. K. Sattarov. The methodological content of teaching the active grammar of the English language in the Uzbek general education school: Ph.D. diss. - M., 1982.
3. R. N. Kremer. Teaching the speech syntactic skills of the German language to students of the national group (on the basis of the language university course): candidate. diss. - JL., 1987.
4. E. A. Shtulman. A methodological experiment in the system of research methods. - Voronezh: VSU, 1976.
5. B. B. Zhoraboyev. (2020). Communicative production in German language teaching. 215-220.
Muvofiqlikni tahlil qilish matnda ishlatiladigan barcha soʻzlar roʻyxatini va ularning paydo boʻlish chastotasini yaratishni oʻz ichiga oladi. Ushbu roʻyxat muallifning tildan foydalanishidagi naqshlarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin, masalan, baʼzi soʻzlar yoki iboralarning chastotasi. Misol uchun, agar biz Shekspirning “Gamlet” pyesasi boʻyicha tahlilni oʻtkazadigan boʻlsak, biz “oʻlim” soʻzining spektakl davomida tez- tez uchrab turishini koʻrishimiz mumkin, bu esa oʻlim mavzusining asosiy mavzusi ekanligini koʻrsatishi mumkin.

Kalit soʻzlarni tahlil qilish matndagi eng muhim soʻzlarni ularning paydo boʻlish chastotasi va matnning umumiy maʼnosi uchun ahamiyati asosida aniqlashni oʻz ichiga oladi. Misol uchun, agar biz Choʻlpon sheʼriyatining kalit soʻz tahlilini oʻtkazadigan boʻlsak, “tabiat”, “oʻlim”, “oʻlmaslik” va xalq kabi soʻzlar uning ijodi uchun muhim ekanligini koʻrishimiz mumkin. Umuman olganda, leksik statistik tahlil adabiyotning mavzulari, gʻoyalari va yozuv uslubi haqida tushunchaga ega boʻlish uchun foydali vosita boʻlishi mumkin.

Umuman olganda, leksik statistik tahlil badiiy matnning mavzulari, gʻoyalari va yozuv uslubi haqida tushunchaga ega boʻlish uchun foydali vosita boʻlishi mumkin. Muallifning tildan foydalanishidagi qonuniyatlarni aniqlash orqali biz matn va uning mazmunini chuqurroq tushunishimiz mumkin.

Badiiy matnning leksik tahlili badiiy asardagi maʼno va mavzularni yetkazish uchun tildan foydalanishni tahlil qilishni oʻz ichiga oladi. Dostoyevskiy adabiy asarlariga kelsak, leksik tahlil muallifning yozish uslubi, mavzulari va gʻoyalari haqida tushunchaga ega boʻlish uchun matnda ishlatilgan soʻz va iboralarni tekshirishni oʻz ichiga oladi. Dostoyevskiy ijodidagi leksik tahlilning bir misolini uning “Jinoyat va jazo” romanida topish mumkin. Ushbu romanda "ayb" soʻzi tez-tez uchraydi, bu esa bu romanning markaziy mavzusi ekanligini koʻrsatadi. "Azob" soʻzi ham roman davomida keng qoʻllaniladi, bu muallifning ayb va azob oʻrtasidagi munosabatni oʻrganayotganini koʻrsatishi mumkin.

Dostoyevskiy ijodidagi leksik tahlilning yana bir misolini uning “Aka-uka Karamazovlar” romanida topish mumkin. Ushbu romanda “inson mavjudligining siri”

iborasi bir necha bor uchraydi, bu esa romanning markaziy mavzusi inson ekanligini ko'rsatadi. "Imon" so'zi ham roman davomida tez-tez ishlatiladi, bu esa muallifning imonning inson hayotidagi rolini o'rganayotganini ko'rsatishi mumkin. Umuman olganda, leksik tahlil adabiy asarning mavzulari, g'oyalari va yozuv uslubi haqida tushunchaga ega bo'lish uchun foydali vosita bo'lishi mumkin. Matnda qo'llanilgan so'z va iboralarni o'rganib chiqib, muallif ko'zlagan ma'no va xabarni chuqurroq tushunishimiz mumkin.

Ushbu yondashuv adabiy matnlarda tildan foydalanishni tahlil qilish va tilni tushunish va ishlab chiqarish bilan bog'liq kognitiv jarayonlar haqida tushunchaga ega bo'lish uchun psixologiya va tilshunoslik sohalarini birlashtiradi. Psixolingvistika o'z mohiyatiga ko'ra, odamlarning muloqot qilish uchun tildan qanday foydalanishi va tilni ularning ongida qanday qayta ishlashi bilan shug'ullanadi. Adabiy tahlilga bunday yondashuv matnda qo'llanilgan so'z va iboralarni o'qish va tushunish bilan bog'liq kognitiv jarayonlar haqida tushunchaga ega bo'lishni o'z ichiga oladi. So'z va iboralarning chastotasi va kontekstini o'rganish orqali biz matnni tushunish bilan bog'liq aqliy jarayonlar haqida tushunchaga ega bo'lishimiz mumkin. Psixolingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri bu astarlash g'oyasidir. Bu bitta so'z yoki tushunchaning taqdimoti keyingi so'zlar yoki tushunchalarni qayta ishlashga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan hodisani anglatadi. Misol uchun, agar biz "olma" so'zini o'z ichiga olgan jumlaning o'qiydigan bo'lsak, keyingi jumladagi "meva" so'zini tanib olish va qayta ishlash ehtimoli ko'proq. Ushbu kontsepsiyani matndagi so'zlar va iboralarning chastotasi va kontekstini o'rganish orqali adabiy tahlilda qo'llanilishi mumkin, bu muallif o'quvchini muayyan g'oyalar yoki mavzularni qayta ishlashga qanday tayyorlagani haqida tushunchaga ega bo'ladi. Psixolingvistikadagi yana bir muhim tushuncha leksik noaniqlik g'oyasidir.

Bu so'z ishlatilgan kontekstga qarab bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin bo'lgan hodisani anglatadi. Masalan, "oq" so'zi rang ma'nosi yoki oqmoq fe'l ma'nosini anglatishi mumkin. Ushbu kontsepsiyani adabiy tahlilda muallifning matnda bir nechta ma'no va talqin qilish uchun tildan qanday foydalanishini tekshirish orqali

qo'llash mumkin. Xulosa qilib aytish mumkinki, badiiy matnning leksik statistik tahliliga psixolingvistik yondashuv o'qish va tushunish bilan bog'liq kognitiv jarayonlar haqida tushunchaga ega bo'lish uchun qimmatli asos bo'lib xizmat qiladi. Matndagi so'z va iboralarning chastotasi va kontekstini o'rganish orqali biz matnni tushunish bilan bog'liq bo'lgan aqliy jarayonlar va muallif o'quvchini muayyan g'oyalar yoki mavzularni qayta ishlashga tayyorlash usullari haqida tushunchaga ega bo'lishimiz mumkin.

Dostoyevskiyning "Jinoyat va Jazo" asari leksik statistik tahlilni psixolingvistik yondashuv bilan jonlantirish uchun yaxshi bir namuna hisoblanadi. Bu yondashuv psixologiya va lingvistikani birlashtiradi va til izohlash va ishlab chiqish jarayonlarida qatnashgan psixologik jarayonlarni tahlil qilishga imkon beradi. Bu yondashuvning asosiy konseptlari atrofida priming va leksikalikda ikkita yoki undan ko'p ma'nolar yashashining ideyasi o'rnini oladi. "Priming" fenomeni bir so'z yoki konseptning ko'rsatilishi keyingi so'zlarni yoki konseptlarni qayta tahlil qilishga ta'sir ko'rsatishi tushunchasiga asoslangan. Misol uchun, "olma" so'zini o'z ichiga olgan jumladan keyin, "meva" so'zini keyingi jumlada ko'proq tushunishga tayyor bo'lamiz. Bu konsept badiiy tahlilga psixolingvistik yondashuv bilan nisbatan osonlik bilan qo'llash mumkin.

Leksikalikning ikkita yoki undan ko'p ma'nolari mavjud bo'lgan so'zlar bilan bog'liq konsept ham badiiy tahlil uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bu konsept, so'zlar va ifodalar ko'proq ma'noni ifodalaydigan, shuningdek, bir-biridan farqli ko'rsatkichlarni tahlil qilishga imkon beradi. Misol uchun, "Jinoyat va Jazo" asarida "qon" so'zi ko'p marta ishlatilishi, yurgizib ko'rsatadi, shuningdek, "jarohat" so'zi ham ko'p marta qayta qayta ishlatilganligi bilan, bu so'zning asarda ahamiyatli rolini anglatadi. Juda ko'p misollar bilan tushuntirish mumkin, lekin umuman olganda, psixolingvistik yondashuv leksik statistik tahlilni tashkil etish uchun foydali bir qadam bo'lib, badiiy tahlil orqali yozuvning ma'nosi va ishlab chiqish usullariga doimiy tushunishga imkon beradi.

Badiiy matnni leksik statistik tahlil qilish bosqichlari odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Korpusni tanlash: tahlil qilish uchun adabiy matn korpusi.

2. Tokenizatsiya: matnni qismlarga ajratish, individual soʻzlar yoki belgilar.
3. Matnni tozalash: matndan tinish belgilari, toʻxtash soʻzlari va boshqa muhim boʻlmagan elementlarni olib tashlash.
4. Nutq qismini teglash: matndagi har bir soʻzning grammatik kategoriyasini aniqlash.
5. Lemmatizatsiya: Har bir soʻzni asos yoki lugʻat shakliga keltirish.
6. Chastotalar tahlili: Matndagi har bir soʻzning kelishini hisoblash.
7. Kollokatsiyani tahlil qilish: Tez- tez birga keladigan soʻzlarning juftlari yoki guruhlarini aniqlash.
8. Muvofiqlikni tahlil qilish: matnda aniq soʻzlarning paydo boʻlishi kontekstini oʻrganish.
9. Sentiment tahlili: Matnning emotsional ohangini aniqlash.

Matnga ishlov berilgandan soʻng, maʼlumotlarni tahlil qilish uchun turli statistic usullardan foydalanish mumkin. Masalan, matndagi alohida soʻzlar yoki soʻzlar guruhining chastotasini hisoblash va bu soʻzlarning turli turlari boʻyicha taqsimlanishini tekshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.B., Ахмедова М. X. Психолингвистиканинг назарий асослари. – Тошкент, 2016
2. Leontiyev A. A. Psixolingvistika asoslari. M.: "Sensiz", 1999 yil.
3. Gluxov V. P., Kovshikov V.A. Psixolingvistika. Nutq faoliyati nazariyasi. MAST; Astrel, 2006-yil.
4. Nutq psixologiyasi tarixining qisqacha tavsifi. IA:<http://www.scipsychology.ru/ctr/1115.html>
5. Zorkina O. S. Matnni oʻrganishga psixolingvistik yondashuv toʻgʻrisida // Til va madaniyat. Novosibirsk, 2003. S. 205-210.
6. Saxarniy L.V. Psixolingvistikaga kirish. L.: Leningrad davlat universiteti nashriyoti, 1989.54 p.

BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Yo'ldosheva Sarvinoz Ilhom qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich magistranti

Email: ilkhamovna1998@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya darslarida kreativligini shakllantirish nazariyasi va ahamiyati yoritilgan, shuningdek, o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish eng muhim omil ekanligi nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'qituvchilari, kreativlik, qobiliyat, tafakkur, mehnatsevarlik, kasbga yo'naltirish, texnologiya darslari.

Bugungi kunda respublikamizda kreativ fikrlaydigan, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan kadrlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunday yoshlarga ta'lim-tarbiya va bilim berish uchun ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qaroriga muvofiq:

- ✓ respublikada texnik ijodiyot, badiiy ijodiyot maktablarini tashkil etish;
- ✓ o'quvchi yoshlarning ijodiy ishlarini ommalashtirish, shuningdek, bolalar maktablarining to'garak a'zolari tomonidan yaratilgan mahsulotlarni olib chiqish maqsadida "Art shop" elektron do'konlarini tashkil etish va sotuvni yo'lga qo'yish;
- ✓ bolalar maktablarida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab "STEAM – ta'lim" (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – muhandislik, Art – san'at, Mathematics - matematika) dasturi joriy etish vazifa etib belgilandi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni ijodiy mehnatga, mustaqil fikrlashga o'rgatish, kasb-hunarga yo'naltirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish muhim muammolardan biridir. Shunday ekan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ijodiy mehnatga o'rgatish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda texnologiya darslarining o'rni katta hisoblanadi. Texnologiya darslarida o'quvchilar chuqur va mustahkam bilim bilan qurollandilar. Bu jarayonda o'quvchilar tanlagan kasbiga qiziqishi, mehnatkash kishilarga hurmatda bo'lishi tarbiyalanadi.

Har bir texnologiya darslari o'quvchilarni diqqatini, xotirasini, farqlash bilimini, fikr yuritishni, o'z ishini rejalashtirishni va o'z vaqtida amalga oshirishni, o'z-o'zini nazorat qilish vazifalarini o'z ichiga oladi.

Shuni bilamizki, boshlang'ich sinf umumiy o'rta ta'limning poydevori bo'lib, unda bola shaxsini ilk ko'rinishlari shakllanadi. O'quvchilarni kreativlik qobiliyatini shakllantirishda turli materiallar bilan ishlashda oddiydan murakkabga yo'naltirilsa, yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilsagina o'quvchilarning kreativligi yanada tez shakllanib boradi.

1-sinf o'quvchilarining kreativlikka o'rgatishda tabiiy material bilan ishlashda ayrim kasblarda ishlatiladigan asboblarning nomlarini va nima maqsadda ishlatilishini bilish, yog'och materiallaridan olinadigan daraxtlarini tanishi va ularning nomlarini bilishi, ayrim gazlama turlari nomi, xususiyatlarini va ulardan tayyorlanadigan buyumlarni bilishi, qandolatchilikda ishlatiladigan homashyolar va tayyorlanadigan maxsulotlarni bilishi, kartondan eng oddiy shakldagi buyumlarni qirqib tayyorlashi, ularning rasmini chizish, bo'yash, eng oddiy naqshlar bilan bezash, tugma qadash, oddiy choklarni tikish, gazlamalarning qirqish kabi ko'nikmalarni bilishlari kerak.

2-sinfda texnologiya darslarida ayrim kasblar mahsulotlari yoki tayyorlanadigan buyumlar eskizlarini chizish va oddiy bezaklar bilan ishlash, bir necha kasblar sohasida ishlatiladigan asboblarning tuzilishi hamda ishlatilishini bilish, ayrim tabiiy materiallardan oddiy tasvir va naqshlar tuzish, yog'och materiallarning qattiq-yumshoqligi, suvga, zahga va boshqa ta'sirlarga chidamliligini bilish, gazlamalarning haroratga saqlanishga chidamliligi, tuproq, loy, sopol va boshqa materiallarning asosiy

xususiyatlarini bilish, qog‘oz va karton gazlamalarini qirqish va kesish asboblardan to‘g‘ri foydalanish, kashtachilik va tikuvchilikda qo‘llaniladigan asosiy chok turlarida tikish, ayrim ekinlarni o‘stirishning eng oddiy qoidalarini bilishlari zarur.

3-sinfda har xil oddiy buyumlar va mahsulotlar tayyorlash jarayonlari ketma ketligi hamda xom ashyoning bilish, ularni so‘zlar va turli tasvirlar, jadvallar orqali ifodalay olish, ommaviy ishlatiladigan mehnat qurollarining turlarini va ulardan to‘g‘ri foydalanishni bilish, qog‘oz va karton, gazlama va boshqa materiallardan oddiy shakldagi gular yasash, sopol buyumlar va kashtachilik buyumlari uchun oddiy naqshlar ishlash, eng oddiy applikasiya va mozaika ishlarini bajarish, milliy hunarmandchilik kasblariga oid eng oddiy iqtisodiy huquq va ekologik masalalarni bilish, loydan milliy o‘yinchoqlar yasash, ularni bo‘yash naqshlar bilan bezash, yog‘och va boshqa har xil materiallardan oddiy buyumlar va o‘yinchoqlar yasash, gazlamalardan oddiy buyumlarni tikish va kashta naqshlar bilan bezash, pazandalikning ayrim texnologik jarayonlarini bajarish kabi vazifalarni bajarishda o‘quvchilarni ijodkorlikka o‘rgatishda, kreativlikka undashga juda ham qo‘l keladi.

4-sinfda esa yog‘ochdan oddiy buyumlar va oziq -ovqat tayyorlash jarayoni uchun texnologik jadval hamda grafik tasvirlarni bajarish hamda ayrim oziq-ovqat mahsulotlarini turli shakllarda tayyorlash uchun eskizlar chizish, zargarlik, gilamdo‘zlik, kulolchilik va boshqa kasblarda naqqoshlikdan foydalanishning eng oddiy usullarini bilish, ayrim kasblar sohasidagi materiallarga ishlov berishning zamonaviy usullari va asbob-uskunalami bilish, har xil materiallardan ko‘p hunarmandchilik buyumlari va o‘yinchoqlar tayyorlash, qo‘g‘irchoqlar uchun ko‘ylaklar tikish va kashta gullari bilan bezash, taomlar pishirish uchun sabzavotlar tayyorlashni bilish o‘quvchilarni ijodkorlikka o‘rgatishda qulay deb hisoblaymiz.

Psixologlarning ta’kidlashicha, fikrlash, ya’ni tafakkur - odam miyasida sodir bo‘ladigan jarayon. Sezgi organlari ojizlik qilgan o‘rinlarda odam va olamning xususiyatlari tafakkur orqali o‘rganiladi. Tafakkur aqliy faoliyatning, ongli xatti-harakatlarning majmui. U tevarak-atrof, vogelik hamda ijtimoiy muhitni bilish quroli, inson faoliyatini to‘g‘ri va samarali amalga oshirishning asosiy shartidir.

XULOSA

Demak, umuman fikrlanganda narsa-hodisalarning boshqalar tomonidan kashf etilgan jihatlari bilib olinadi. Mustaqil fikrlanganda esa, odam olam hodisalari va hayotiy vaziyatlar mohiyatini o'zgalarnikiga o'xshamagan yo'sinda, ularnikidan boshgacha yo'l bilan bilib oladi. Texnologiya mashg'ulotlarini muvafaqqiyatli o'tishi texnologiya ta'lim va tarbiyasida samarali erishish ko'p jihatdan ishni to'g'ri rejalashtirishga bog'liq. Texnologiya darslarini xususiyatlari shundan iboratki, bolalar texnologiya va texnik ijodkorligini rivojlantirishga oid bilimlari ko'nikma va malakalarini xilma-xil amaliy ishlarni bajarish o'zlariga kerakli va ijtimoy ahamiyatga ega bo'lgan buyumlarni tayyorlash jarayoni egallab oladilar. Bu jarayonda o'qituvchining asosiy vazifasi har chorak uchun texnologiya darslarini shunday rejalashtirishdan iboratki, bunda o'qituvchi bolalar tomonidan hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan kengaytirish va murakkablashtirish ishlarni va bolalar jamoasini kundalik hayotida kerak bo'lgan buyumlar tayyorlash va boshqa ishlarni bajarish bilan birga qo'shib olib borishni nazarda tutish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarori.
2. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P "Mehnat va uni o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. TDPU 2007-yil.
3. X. Sanakulov, D. Yakubova R. Lutfitdinova. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. Darslik. - Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2020.- 224 b.
4. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishning nazariyasi va amaliyoti. G.Quttibekova, D.Kulboyeva, T:- O'zbekiston 2020-y

UNUTILGAN DAVLAT – AL-ANDALUS

Mamurov Diyorbek Saydullo o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

Tarix fakulteti III kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Al-Andalus bu Ispaniyada asrlar davomida mavjud bo‘lgan musulmon davlatining nomi. Bu davlatga arablar asos solgan. Al-Andalus yevropaning eng ilgor davlati bo‘lgan. Bu yerda ilm fan rivoj topgan. Musulmon dunyosida yaratilgan asarlar manashu yer orqali Yevropaga tarqalgan. Al-Andalus davlati o‘zining qudratini cho‘qqisiga Abdurrahmon Nosir davrida erishgan. Uning davrida ilmiy uyg‘onish boshlangan edi. Yevropa hukmdorlari uning harbiy mahoratiga havas ila boqishar edi. Lekin Abdurrahmon Nosir vafotidan so‘ng al-Andalus davlatida tushkunlik davri boshlanadi. Bundan esa xristian dunyosi foydalanib qoladi. Mahalliy xristian hukmdorlari birlashib al-Andalus davlatiga qarshi kurash boshlaydilar. Bu kurash tarixda rekonkista¹ siyosati nomi bilan kiradi.

Kalit so‘zlar: *Al-Andalus, Ilberiya yarimoroli, Vestgot qirolligi, arablar fathi, Toriq ibn Said, Muso ibn Nusayr, Ummaviylar sulolasi, Sapta port shari, Vestgot qirolli Rodrik, Abdurrahmon Nosir, rekonkista, Kordova, Alfonso VI, Toledo shahri.*

Al-Andalu bu arablar tomonidan Ilberiya yarimoroliga berilgan nom. Bu nomdan avval bu yerlar Vandalusiya deb nomlangan. Chunki arablar kelgunga qadar bu yerda asosan german qabilari istiqomat qilar edi. Arablar shimoliy afrikani istilo qilgan vaqtlarda shimoliy Afrikada germanlarning vandal qabilalari istiqomat qilar edi. Shuning uchun arablar qayerda german qabilari yashasa o‘sha yerni Vandalusiya deb

¹ Rekonkista- musulmonlar egallagan hududlarni xristianlashtirish va ulardan tortib olishga qaratilgan harbiy yurishlar nomi.

atashar edi. Lekin Ilberiya yarimorolida germanlarning vandal qabilalari emas, balki vestgotlar yashar edi. G'arbiy Rim imperiyasi qulaganidan so'ng Ilberiya yarim orolida hokimyatni germanlarning vestgot qabilasi egallab oladi. Ularning davridagi boshqaruv Rim hukmdorlarning boshqaruvidan farq qilmagan edi. Bu yerga musulmonlar yangi davr yangi madaniyatni olib kelishadi. Al-Andalus fath etilgunga qadar arablar Arabiston yarimoroli, Kichik Osiyo, Eron, O'rta Osiyo, Misr va shimoliy Afrikada katta katta hududlarni istilo qilib mahalliy aholini islom diniga o'tkazishga erishadilar. Shimoliy afrikadagi barbar qabilalari islom dinini qabul qilganidan so'ng arablar nihoyatda katta qudratga ega bo'lishgan¹. Chunki barbarlar son jihatdan ko'p va jangovar qabila bolishgan edi. Ular islom dinini qabul qilganlaridan so'ng shimoliy Afrikadagi barcha yurish va istilolarda qatnashishadi. Barbar qabilalarining yetakchisi va sarkardasi bo'lgan Toriq ibn Said bu yurishlarda katta shuhrat qozongan edi. Arablar shimoliy Afrikaning eng g'arib qismi hozirgi Marakosh hududlarini egallagandan so'ng e'tiborlarini Yevropa mamalakatlariga qaratadilar. Chunki Yevropa va Afrikani ajratib turuvchi tor bo'g'oz manashu yerda joylashgan edi. Shimoliy Afrikadagi atlas tog'laridan turib kuzatilsa Ilberiya yarimoroli sohillarini ko'rish mumkin. Bu davrda Ilberiya yarim orolidagi Vestgot qirolliklariga qarshi mahalliy aholining noroziligi oshib bormoqda edi. Vestgot qirolliklari chuqur ichki ziddiyatlar qurshovida qolgan edi. Bu vaziyatdan arablar foydalanib qolishga harakat qilishgan. Ularning asosiy maqsadi qanday qilib bo'lmasin mahalliy aholini islom diniga o'tkazish edi. Shunday qilib arablar Ilberiya yarimoroli fathiga tayyorgarlik ko'ra boshlashadi. Ummaviylar sulolasi tomonidan shimoliy afrika noibi etib Muso ibn Nusayr tayinlanadi. Muso ibn Nusayr asli kelib chiqishi arablarning quraysh qabilasidan edi. U shimoliy afrika fathida ishtirok etyadi. Uning davrida barbar qabilalari to'liq islom dinini qabul qilishgan. U Andalusiyani istilo qilishni reja qila boshlaydi. 5Lekin bu rejani amalga oshirishda bir muammo bor edi. Andalusga olib otuvchi bogozning eng tor yeri 11-13 kmga teng edi. Arab qo'shinlarida esa kemalar mavjud emas edi. Shuningdek Andalusga olib boruvchi port shahar ya'ni Saptashahri

¹ [Wikipedia//musulmon madaniyati](https://en.wikipedia.org/wiki/Muslim_civilization)

g'ayridinlar qo'lida edi. Saptar port shahrining hokimi Julian degan ispan bo'lgan. Muso ibn Nusayr Andalusiya fathini Toriq ibn Saidga ishonib topshiradi. Bunga bir qancha sabablar bor edi. Chunki Toriq ibn Said kelib chiqishi barbarlardan edi. Qo'shinning ham katta qismini barbarlar tashkil etar edi. Bu tadbir shubxasiz faqatgina arablarning foydasiga ishlagan. Barbarlar ozlarining orasidan yetishib chiqqan sarkardani o'zlari uchun yetakchi etib tayinlangnidan juda ham hursand bo'lishgan. Urushdan avval xalifalik qo'shinlari Ilberiya yarimorolini o'rganish uchun o'z ayg'oqchilarini turli tomonlarga jonata boshlaydilar. Bu ayg'oqchilar to'plagan malumotlar shuni ko'rsatganki Saptar port shaharining hokimi Julian bilan Ispaniya hukmdori Rodrik bilan aloqalari yaxshi emas edi. Bundan esa musulmonlar foydalanib qolishga intilganlar. Ular Saptar hokimiga maktub yo'llab hamkorlikka undashadi. Julian Ispaniya hukmdori Rodrikka qarshi kurashish uchun musulmonlardan foydalanishga harakat qiladi. Ikki o'rtada esa sulh tuzilgan. Sulhga ko'ra Julian Saptar shari hokimligida qoladi va musulmonlarni Andalusiya hududlariga o'tish uchun kemalar bilan taminlaydigan bo'ladi. Shunday qilib musulmonlar uchun Andalusiya uchun yo'l ochilgan edi. Bu yurishga Toriq ibn Said boshchilik qiladi. Musulmon qo'shinlari milodiy 711-yilda Gibraltar bo'g'ozidan kechib o'ta boshlaydi. Dastlab Toriq ibn Said 7ming qo'shin bilan Gibraltardan kechib o'tadi. Ispaniya hukmdori Rodrik musulmon qo'shinlarini Andalus sarhadlariga kirib kelganini eshitib 100minglik qo'shin bilan ularga qarshi kurashishga o'tlanadi. Rodrikni 100minglik qo'shin bilan kelayotganini eshitgan Toriq ibn Said Muso ibn Nusayrga elchi jo'natadi. Muso ibn Nusayr Toriq ibn Saidga yordam uchun yana 5ming kishilik piyoda qo'shinni jonatgan edi. Toriq ibn Said o'z qoshinlarini Gibraltar bo'g'ozidan sal shimolroqda joylashgan Birbod vodiysiga joylashtiradi. Musulmonlar va Rodrik o'rtasidagi jang 8kun davom etgan. Bu jangda musulmonlar o'zlarini sabr bardoshini va matonatini namoyish etadi. Uzoq davom etgan jangdan so'ng musulmonlar qo'shini qirol Rodrik qoshinlarini tormor etadi. Bu jangda qirol Rodrikning o'zi ham halok bo'ladi¹.

¹ Internet manbasi// you tobe// andalus history

Musulmonlar safidan esa 3ming kishi qurbon berilgan. Manashu Birbod vodiysidagi jangdan so'ng Andalus tarixida yangi davr boshlangan¹. Musulmon madaniyati va musulmon hukmdorligi o'rnatiladi. Bu yerlarda Ummaviylar xalifaligining noibligi tuziladi. Bu yerlar noibi etib Toriq ibn Said tayinlanadi. U o'zining harbiy yurishlarini shimolga qarata davom ettiradi. U bu yo'nalishlarda Marda, Aspiliya, Tulaytulo, va boshqa shaharlarni zabt etishadi. Tohir ibn Said uzoq davom etgan janglardan so'ng Barselona grafligini ham istilo qilishadi². Musulmonlar o'zining hokimyatlarini mustahkamlash maqsadida mahalliy aholini islom diniga o'tkazishga harakat qilishgan edi. Lekin bu harakatga mahalliy aholi juda ham qattiq qarshiligiga duch kelishadi. Lekin musulmonlar o'zlarining qattiqqo'l siyosatlari tufayli mahalliy aholini islom diniga o'tkazishga erishishadi. Bu yerda asta sekinlik bilan tinch hayot tiklanadi. Bu yerlar markaziy halifalik shaharlaridan farqli ravishda yahudiy va xristian jamoalari mavjud edi.

VIII asrga kelib xalifalikning markaziy qismida halifalik uchun kurash kuchaygan edi. Buning natijasida ummaviylar sulolasiga mansub turli siyosiy arboblardan turli hududlarga qochib keta boshlaydilar. Shunday siyosiy arboblardan bir ummaviylar sulolasiga mansub bo'lgan xalifa Hishamning nabirasi Abdurrahmon I edi. Abdurrahmon I Andalusiyada yangi amirlikka asos soladi. Abdurrahmon I 756-yilda Andalusiyada Qurdoba amirligiga asos soladi. Qurdoba amirligi 912-yildan boshlab xalifalik maqomini oladi. Qurdoba amirligida 7ta amir hukmdorlik qiladi. Ularning shajarasi quyidagiday bo'lgan;

1. Abdurrahmon 756-788-yillar
2. Xisham I 788-796-yillar
3. Al-Xakam 796-822-yillar
4. Abdurrahmon II 822-852-yillar
5. Muhammad I 852-886-yillar

¹ Islom hazorasi. Ahmad Muhammad Mubashshir Ahmad. Movarounnahr nashriyoti Toshkent. 2004-yil.

² Wikipedia// andalus tarixi

6. Al-Mundir 886-888-yillar

7. Abdulloh 888-912-yillar¹

Milodiy 912-yildan boshlab Qurdoba amirligi halifalik maqomini oladi. Ushbu xalifalikning asoschisi Abdurrahmon Nosir hisoblanadi. Abdurrahmon nosir 21 yoshida xalifalik tahtiga chiqadi. U yoshligida juda ham ko'p iztiroblarini o'tkazgan. U o'z davri va o'z zamonasi uchun juda ham qudratli davlat tuzadi. Bu davlatda maorif, ta'lim va ilm marifat yuksaladi. Uning harbiy salohiyatiga yevropa hukmdorlari havas ila boqishar edi. Abdurrahmon Nosir hukmdorlik yillari Andalus tarixining oltin davri xisoblanadi. Andalusda xalifalik maqomida 8ta hukmdor hukmronlik qilgan edi. Ular;

1. Abdurrahmon Nosir 912-961-yillar

2. Al-Hakam 961-976-yillar

3. Hishom II 976-1000, 1010-1013-yillar

4. Muhammad II 1009-yil

5. Sulaymon 1009, 1013-1016-yillar

6. Abdurrahmon IV 1018-yil

7. Muhammad III 1024-1025-yillar

8. Hisham III 1027-1031-yillar²

Abdurrahmon Nosir vafotidan so'ng Andalus davlatida ichki nizolar kuchayib boradi. Bundan esa Ilberiya yarimorolining shimolidagi mayda xristian davlatlari foydalanib qoladi. Ularning talonchilik va tazyiqlari kuchayib boradi. Ilberiya yarim orolining shimoliy qismlarida argoniya kastilioya leon kabi xristian davlatlari mavjud edi. Ularning musulmonlarga qarshi olib brogan kurashlari tarixda rekonkista nomini oladi. Bu urushga esa Rim papasi salib yurishi nomini beradi. Chunki ularning asosiy maqsadi bu hududlarni musulmonlardan tortib olish va mahalliy aholini xristianlashtirish edi. Shimoldagi ikki xristian davlati Kastiliya va leon qirolliklari birlashib musulmonlarga qarshi kursh boshlaydi. Bu kurash natijasida musulmonlar

¹ Andalusia Umayyad Route.2016-yil. 17-bet.

² Andalusia Umayyad Route.2016-yil. 13-bet.

qolida bo'lgan Ilberiya yarim orolining markaziy shaharlari boy beriladi. bir vaqtlar Vestgot qirolligining poytaxti bolgan Toledo shahri bu yurishlarda katta ahamiya kasb etgan. Chunki bu shahar strategic joylashuv o'rniga ko'ra judxa ham qulay bo'lgan. Xristian qo'shinlari XI asrning dastlabki yiollarida bu shaharni bosib olishga harakat boshlashgan edi. dastlabki urinishlar besamar yakunlanadi. Musulmonlar bu shaharni yirik chegara qal'a shaharga aylantirishadi. Lekin xristina qo'shinlarining XI asrning ikkinchidagi harbiy yurishlari havfli tus ola boshlaydi. Bu yurushlarga Kastiliya va Leon qiroli Alfonso VI boshchilik qiladi. Uzoq davom etgan urushlar natijasida musulmomnlarning chegara shahri bo'lgan Toledo shahri xristian qo'shinlari tomonidan egallanadi. Bu voqea milodiy 1085-yilda sodir bolgan edi¹. Toledo shahrining qo'ldan ketishi musulmonlar uchun judda ham qattiq zarba bo'ladi. Bu voqeadan so'ng musulmonlar orasida ixtilof paydo bo'ladi va Andaluf xafifaligi bir necha qismlarga bo'linib ketadi. Bu davrda hukmdorlik qilgan xalifalar shimoliy Afrikada davlat tuzgan Almovidlar sulolasiodan yordan so'raydi. Almovidlar yrodamida qurdoba xalifaligi saqlab qolingan. Lekin bu voqea uzoq dfavom etmagan. Almovidlar yordami tufayli saqlanib qolgan xalifalik o'z mustaqilligini yo'qotib u ularga qaram bo'lib qolishiga olib keladi. Toledo shahri qoldan ketgandan so'ng musulmonlar o'zini qayta tiklay olmaydi². Va ular bir qancha mustaqil amirliklarga bo'linib ketishadi. Ispanlar esa yana kuch to'plab musulmonlarga qarshi yurishlarini davom ettirishadi. Ular musulmonlarga qarashli bo'lgan Alarkos sharini qamal qillshadi. 14 oylik qamaldan so'ng Alarkos shahri 1195-yilda ispanlar tomonidan egallanadi. Alarkos shahrining egallanishi musulmonlarga juda ham katta kulfat olib keladi. Shahardagi musulmon aholi ommaviy ravishda qatl qilinadi. Rekonkista siyosati natijasida Piriney yarimorolida yashagan musulmon aholi juda ham dahshatli qiynoqlarga solinadi.

Ispanlar shundan so'ng musulmonlarga qarshi kurashish uchun dengiz kuchlaridan foydalana boshlashadi. Ular musulmonlarga qarshli bolgan O'rta yer

¹ Jahon tarixi 1-qism. E. Qosimov, E. Nuriddinov, R. Mullajonova, F. Ismatullayev, N. Rasulova, Sh. Zokirov, A. Abduazimov, T. Ponomaryova, M. Nasritdinova. Toshkent 2013-yil. 410-bet.

² El Islam político en el mediterraneo. Cidob Barsezona centre international affairs. 2013-yil. 44-bet

dengizining g'arbiy qismida joylashgan Menorka, Malyorka, Elvissa orollariga talonchilik va bosqinchilik yurishlarini kuchaytirgan edi. Ularning harbiy kemalari bu uyerning mahalliy aholisiga hujum qilar va talar edi. Ispanlar Menorka orolini 1232-1287-yillar oraligida ishg'ol etadilar. Ular faqatgina bu orol bilan cheklanib qolmasdan 1229-yilda malyorka 1235-yilda esa elvissa orolini ioshg'ol etishgan edi. Ispanlar quruqlik hududida ham rekonkista siyosatini davom ettirishgan buning natijasida 1212-yil Las Navas de Tolosa, 1236-yil Kordova, 1243-yilda Mursia, 1248-yil Sevilya, 1262-yilda esa kadis shahri ishgol etiladi. Musulmonlar qo'lida esa Gibraltar bo'g'ozining sharqiy qismi qoladi¹. Ular bu yerda 1492-yilga qadar o'zlarining hukmdorligini saqlab qolgan. 1492-yilda ispanlar bu yuerda o'z hukmronligini o'rnatadi. Shunday qilib Ispaniya xududlarida mavjud bo'lgan musulmonlar davlati barham topadi.

Xulosa

Musulmon halqlari uzoq yillar davomida jahon siyosatida muhim ro'l o'ynab kelgan. Ularning Al-Andalus davlati xam yevropa taraqqiyoti va tarixida judda ham katta o'rin egallaydi. Bu yerdagi ilm marifat markazlariga ta'li olish uchun yevropaning juda ham ko'plab hududlaridan talabalar kelgan. Bu yer orqali butun yevropaga musulmon madaniyati tarqaladi. Bu madaniyat hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. O'sha davrlarda bunyod etilgan memoriy yodgorliklar hozirgi kunda ham o'zining go'zalligi va mahobati bilan dunyo xalqlarini lol qoldirib kelmoqda.

¹ Abd al-Rahman III . M. Fierro. One world publications. Oxford 2005-yil 15-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wikipedia//musulmon madaniyati.
2. Wikipedia// andalus tarixi
3. Jahon tarixi 1-qism. E. Qosimov, E. Nuriddinov, R. Mullajonova, F. Ismatullayev, N. Rasulova, Sh. Zokirov, A. Abduazimov, T. Ponomaryova, M. Nasritdinova. Toshkent 2013-yil. 466bet
4. Internet manbasi// you tobe// andalus history
5. El Islam politico en el mediterraneo. Cidob Barcelona centre international affairs. 2013-yil. 376-bet.
6. Abd al-Rahman III . M. Fierro. One world publications. Oxford 2005-yil
7. Islom hazorasi. Ahmad Muhammad Mubashshir Ahmad. Movarounnahr nashriyoti Toshkent. 2004-yil. 77bet
8. Andalusia Umayyad Route.2016-yil. 92bet.

MUHAMMADNIYOZ NISHOTIYNING “HUSN-U DIL” ASARINI O‘RGANILISHI

Ro‘zmetova Maqsuda Azimboy qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
adabiyotshunoslik fakulteti 1-bosqich magistranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitining yetuk vakillaridan biri bo‘lgan Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn-u Dil” dostoni haqida so‘z yuritiladi. Asarning kimlar tomonidan va qaysi jihatidan o‘rganilgani talqin qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** Nishotiy, “Husn-u Dil” dostoni, asar qahramonlari, asarni tadqiq etgan olimlar, badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari talqini.*

Adabiyotshunosligimiz yozuvchilar merosini obyektiv tadqiq etish borasida so‘nggi yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida ko‘pgina yutuqlarga erishdi. Biroq hanz asl bahosini olmagan, tahlil-u tahqiqqa arzigulik asarlar mavjud. Ularni o‘rganish, mazmunini ochib berish bugungi kunda adabiyot ilmi bilan shug‘ullanayotgan olimlarimiz zimmasidagi hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan biridir. Ana shulardan biri Mavlono Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn-u Dil” dostoni hisoblanadi. Garchi asar haqida V.Abdullayev, X.Rasul, M.Qosimov, I.Adizova kabi olimlarning tadqiqotlari bo‘lsa-da, hozirgacha asarning mohiyati biror-bir ishda to‘g‘ri ochib berilgan emas. Ya’ni “Husn-u Dil”ning butunlay tasavvufiy mazmunidagi manba ekanligi hozirgacha isbot etilgan cha yo‘q¹.

Muhammadniyoz Nishotiy o‘z davrining yetuk shoirlaridan biri bo‘lgan. Xova madrasalarida tahsil olgan. Xorazm xonligida siyosiy ahvol og‘irligi tufayli Nishotiy

¹ Izoh: birgina Adizova I. “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” qo‘llanmasida “Husn-u Dil”ning tasavvufiy mazmundagi asar ekanligini aytib o‘tgan.

Buxoroa kelgan, g'ariblik va muhtojlikda yashagan. Shoirning adabiy merosi "Husn-u Dil²" dostoni, "Qushlar munozarasi" manzumasi hamda 1500 misra she'r, 38 g'azal, 14 muxammas, 1 qasida va musaddasdan iborat. Shoirning "Husn-u Dil" dostoni ijodining cho'qqisidir. U sharq xalqlari orasida mashhur syujet asosida nazmda yaratilgan. Doston 15584 misra, 62 bobdan iborat.

Dostonda "Husn va Dil"ning qiyin sarguzashtlari aks etgan. Dostondagi Aql, Ishq, Vafo, Mehr, Nomus, Himmat, Sabr, Raqib kabi obrazlar orqali kishilardagi muayyan xususiyatlar ifodalangan. Shoir ijodiga bag'ishlangan ishlarda hayoti borasidagi shunday taxminlarga duch kelamiz:

Nishotiy dostonning yozilishini aniq ko'rsatib:

Muddati tarixini etsam bayon,

Xatmi Dil-u Husndur, ey nuktadon, - deydi.

Bu tarixiy doston milodiy 1778-yilda yozilgani ma'lum bo'ladi. Ayyomiy "O't chaqnagan satrlar" kitobida Nishotiy dostonni 77 yoshida yozgan deydi. U bu ma'lumotning manbasini ko'rsatmaydi. Agar shu dalil to'g'ri bo'lsa, Nishotiy 1701-yilda tug'ilgan, deyish mumkin bo'ladi¹.

Nishotiy ijodiga doir qarashlar V.Abdullayev, X.Rasul, M.Qosimova, A.Qayumov, M.Tursunov, B.Valixojayev, M.Abdurahmonova, Ayyomiy, I.Adizovalarning tadqiqotlarida uchraydi². Ammo ularda "Husn-u Dil" orifona

²Nishotiy. "Husn-u Dil". Lirika.-T.: G'.G'ulom, 1967. 22 – 23-betlar.

² Abdullayev V. Xokisor va Nishotiy.-Samarqand, 1960.

Abdullayev V. XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o'zbek adabiyoti. Dok.diss... Samarqand, 1958.

Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob.-T.: O'qituvchi, 1964.

Xolid Rasul. Nishotiy va uning "Husn-u Dil" dostoni//O'zbek adabiyoti masalalari.-T.:1962, 4-son.

Xolid Rasul. Nishotiy. Husn va Dil. Lirika.-T.: G',G'ulom, 1967. 1-18-betlar.

Rasulov X. O'zbek epik she'riyatida xalqchillik.-T.:1973. 29-56-betlar.Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy.-T.: Fan, 1975.

O'zbek adabiyoti. III tom.-T, 1959. 444 – 467-betlar.

Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti.-T, 1961. 5-bet

Tursunov M., O'rinboyev B. O'zbek adabiy tili tarixi.-T.: Fan, 1982. 101 – 104-betlar

Valixojayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan.-T.:Fan, 1974.

Abduvohidova M. Nishotiyning "Shohboz va Bulbul" munozarasi//Adabiy meros.-T.: 1976, 3 – son

Ayyomiy. O't chaqnagan satrlar.-T.:1983.

mazmunda emas, balki dunyoviy-real borliq haqidagi asar sifatida tekshiriladi, dostonning zohiriy ma'nolari borasida so'z yuritiladi.

Muhammadniyoz Nishotiy ijodi, "Husn-u Dil" dostoni bo'yicha yana Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi (PhD) Ametova Ulbo'sin, Muqumiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi (PhD) A.Olmosxon Ilhomjon qizi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi Ilyos Ismoilovlar ham o'zlarining izlanishlarini, tadqiqotlarini olib borganlar. Bu uchala olim ham asarning turli tomonini o'rganganlar.

Muhammadniyoz Nishotiyning ijodini, "Husn-Dil" dostonini o'rganishda olim Ulbo'sin Ametovanning o'rni ham katta. Olima o'zining "O'zbek mumtoz adabiyoti" da Kubroviylik an'analari monografiyasining 3-bobini Nishotiy ijodiga qaratgan. Ushbu monografiya 3 bobdan:

1-bob. "Badiiy asarda tasavvufiy an'analari va ularning nazariy asoslari",

2-bob. "Shayx Najmiddin Kubro, Kubroviylik ta'limoti va Navoiy ijodi",

3-bob. "Nishotiy ijodida Kubroviylik an'analari"lardan tashkil topgan.

Mavzuga tegishli bo'lgan 3-faslida Najmiddin Kubro va Muhammadniyoz Nishotiy asarlarida ramz va obrazlar tahlili, Kubroviylik ta'limoti va "Husn-u Dil" dostonida "o'n usul" ranglar uyg'unligi tomonidan o'rganilgan va ochib berilgan.

Muhammadniyoz Nishotiy ijodiga Najmiddin Kubro irfoniy merosining ta'siri shayx asarlaridagi tasavvufiy istilohlardan *husn*, *fuod*, *vahm*, *aql*, *hayrat* singari jihatlarning Nishotiy "Husn va Dil" dostonida lirik personajlarga aylantirilib, jonli badiiy manzara hosil qilishi misolida aniqlangan;

Olima asardagi har bir obrazga izoh berib o'tgan:

Sadr – ko'krak, islom javharining o'chog'i, oriflarga ko'ngillardan ko'ngillarga ma'rifat quyiladigan joy,

Qalb – yurak, iymon javharining o'chog'i, oriflar Haqdan bir on ham ajralmaydigan nuqta,

Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi:-T, 2006. 178 – 188-betlar

Shigof – xalqni sevish, xalq uchun kuyunish joyi, murshidlarni ota-onadan ham marhamatli etguvchi joy,

Fuod – ko‘ngilning mushohada maskani, oriflarning ilhomlarida hech bir ziddiyat va o‘zgarish ko‘rinmaydigan joy,

Hibbat ul-qalb – Haqqa qaratilgan muhabbat makoni, oriflarni yuzaga chiqarish va yo‘q etish ilmi o‘rgatiladigan joy,

Suvaydo – g‘aybiy mukoshafa joyi, oriflarga haqiqiy irfon ehson etiladigan joy

Muhjat ul-qalb”- ilohiy nurlar tajalliy qiladigan joy, murshidlarga irshod hukmi ato etiladigan nuqtadir.

Muhammadniyoz Nishotiyning bunday obraz yaratishida, asarning g‘oyaviy-badiiyatida biz Najmiddin Kubro tomonidan tasavvufga olib kirilgan “ofoq va anfus” nazariyasi bilan mushtarakligi haqida so‘z yuritadi.

“Husn va Dil” asarini tahlil qilish jarayonida adibning “Favoyih ul-jamol” risolasidagi ruhiy hollarni qay darajada badiiy aks ettirganiga e’tibor qaratgan.

Najmiddin Kubroning irfoniy asarlari va so‘fiyona ruboiylari bilan Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn va Dil” dostoni ma’lum boblari taqqoslanar ekan, mana shunday fikriy o‘xshashliklarga guvoh bo‘lindi va adib bu asarni yozishdan oldin shayxning asarlari va Kubroviylik ta’limoti bilan yaqindan tanish bo‘lganligiga, o‘z asarlarini yaratishda ulardagi g‘oyalarga tayanganiga ishonch hosil qilindi.

Olima Abdurahmonova Olmosxon Ilhomjon qizi “Nishotiy munozaralarining matniy tahlili” mavzusida o‘zining Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini yozgan.

Unda Nishotiy munozaralarini o‘rganish ilmiy muammo sifatida, dostondagi munozaralarning tavsifi, nashri va ilmiy tahlili, munozaralarning yig‘ma matnini yaratish xususiyatlari tomonidan o‘rganilgan.

Ushbu taqdiqot ishida:

Munozara janridagi asarlarning paydo bo‘lishi, tarixiy taraqqiyoti, yuzaga kelish sabablari aniqlanib, Nishotiy munozaralari janridagi asarlar turkumi o‘rganilib, janrlar taraqqiyotidagi o‘rni misollar orqali asoslangan.

Qo‘lyozma manbalar, tarixiy ma‘lumotlardan “Husnu Dil” dostoni matni asosida shoir hayoti va ijodiga doir yangi ma‘lumotlar (tug‘ilish sanasining asoslanishi, Buxoroga ketish sabablari, dostonning kimga bag‘ishlanganligi) ilk marta ilmiy istifodaga olib kirilgan.

Nishotiy munozaralariga oid mavjud qo‘lyozma manbalar doirasi muayyanlashtirilib, bir manba (156 raqam ostidagi qo‘lyozma)ning shu paytgacha xato tarzda kelayotgan (katalogda hijriy 1351-yil, aslida hijriy 1301-yil) sanasiga aniqlik kiritilgan va nusxalarning ilmiy, adabiy hamda matniy o‘ziga xosliklari ko‘rsatilib, matniy xatolarni tuzatishga oid ko‘rsatma va tavsiyalar berilgan. Munozara janridagi asarlar matnidan tushirib qoldirilgan 56 misra tiklangan. Nishotiyning munozara janridagi barcha asarlarining yig‘ma-qiyosiy matni tayyorlanib, ularning to‘liq transkripsiyali varianti ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya 3 bobdan iborat bo‘lib, ular quyidagicha:

1-bob. “Nishotiy munozaralarini o‘rganish ilmiy muammo sifatida” deb nomlangan va “Munozara janri mohiyati va tadriji” faslida janrning lug‘aviy va istilohiy ma‘nolari, yetakchi xususiyatlari, genezisi, jahon va milliy adabiyotdagi taraqqiyoti, badiiy-estetik tafakkur tarixidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

2-bob. “Dostondagi munozaralarning tavsifi, nashri va ilmiy-adabiy tahlili” deb nomlanib, uning ilk faslida “Nishotiy munozaralari qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifi” muammosi o‘rganildi. Nishotiy munozaralari aks etgan qo‘lyozma manbalarning monografik tavsifi berildi. Aytish lozimki, qo‘lyozmalar orasida muallif dastxat nusxasi keltirilmagan.

3-bob. “Munozaralarning yig‘ma matnini yaratish xususiyatlari” nomli ushbu bobning dastlabki faslida “Manbalarning qiyosiy tahlili”da berilgan. Asarning ilmiy-tanqidiy yoki yig‘ma-qiyosiy matnini tuzishda professor Q.Sodiqov aytganidek, avvalo, asarning har bir qo‘lyozma nusxasi belgilab chiqiladi¹.

Yana bir olim Ismoilov Ilyos Abduqayumovich ham o‘zining “Nishotiy “Husn-u Dil” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari” mavzusida ilmiy ishini olib borgan.

¹ Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. – Toshkent, 2017. – B. 175

Ushbu ilmiy ish ham 3 bobdan iborat bo‘lib, barcha boblarida “Husn-u Dil” dostoni o‘rganilgan. Tadqiqotning maqsadi: “Husn-u Dil” dostoni to‘g‘risida mavjud ishlarni o‘rganib, tegishli xulosalar chiqarish va dostonning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tadqiq etib, tasavvufiy mazmunni o‘zida aks ettirish bo‘lgan.

Olim dostonni Hazrat Alisher Navoiyning “Xamsa” asariga javoban yozilgan doston ekanligini, dostonning kompozitsion qurilishining o‘ziga xosligini, dostonda g‘oya va badiiyat uyg‘unligi, mohiyat, timsol ramzlari jihatidan, dostonning amaliyotga tatbiqi masalari, doston badiiyatini o‘rgatish va amaliy tavsiyalar jihatidan o‘rgangan va o‘zining ilmiy ishlarini olib brogan.

Doston qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti (inv. №1198, 7013, 1997, 1666, 1027), SamDU (inv. №21828) qo‘lyozma fondlarida saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev V. XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o‘zbek adabiyoti. Dok.diss. Samarqand, 1958.
2. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob.-T.: O‘qituvchi, 1964.
3. Abdurahmonova O. Nishotiy munozaralarining matniy tahlili. Toshkent 2021.
4. Adizova I. O‘zbekiston mumtoz adabiyoti tarixi. - T,2006.
5. Ametova U. O‘zbek mumtoz adabiyotida Kubroviylik an‘analari.- T.: Mumtoz so‘z 2021.
6. Ismoilov I. Nishotiy “Husn-u Dil” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Toshkent 2021.
7. Xolid Rasul. Nishotiy va uning “Husn-u Dil” dostoni//O‘zbek adabiyoti masalalari.- T.:1962, 4-son.
8. Xolid Rasul. Nishotiy. Husn va Dil. Lirik.-T.: G‘,G‘ulom, 1967. 1-18-betlar.

УДК.911.2.

О СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ТРЕБОВАНИЙ К НАЗВАНИЯМ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Сейтнийазов Кошкарбай Матенович

Нукусский государственный пединститут имени Ажинияза. г. Нукус

Республика Узбекистан.

E-mail: q.seitniyazov@gmail.com

***Аннотация:** Статья посвящена анализу законов, постановлений и других нормативно-правовых документов, принятых в целях реализации национальной топонимической политики в Узбекистане, и усовершенствования механизмов их практического применения. Кроме того, в статье анализируются вопросы внесения изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «О наименованиях географических объектов», а также эффективной координации деятельности в данном направлении, обеспечения четкого и единообразного применения законодательства. А также изучено необходимость дальнейшего совершенствования государственной политики в сфере наименования и переименования географических объектов.*

***Ключевые слова:** географический объект, географическое название, государственный реестр, экспертиза имени, национальная стандартизация, использование и охрана наименования.*

Введение. В последние годы проводятся последовательные реформы с целью дальнейшего совершенствования механизмов открытого общения с общественностью, учета мнения большинства при принятии важных документов, имеющих значение в жизни людей. В новой редакции с дополнениями и изменениями принят Закон Республики Узбекистан «О

наименованиях географических объектов», в котором нашли отражение важные черты истории, образа жизни, традиций, профессий и хозяйственной деятельности нашего народа (02.11.2022 г. № ЗРУз-799) является ярким примером. До настоящего времени действующий закон (12.10.2011г. № ЗРУз - 303) состоит из 24 статей, в 6 из которых внесены изменения и дополнения.

В новой редакции Закона Республики Узбекистан «О наименованиях географических объектов» за подписью Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева (02.11.2022) предусмотрено, что полномочия по наименованию и переименованию географических объектов в города с районами будут переданы из районных Советов народных депутатов в горсовет.

Законом устанавливается государственный орган, специально уполномоченный на проведение комплекса топонимических, этнографических, лингвистических, картографических и иных исследований, направленных на определение соответствия предложений о наименовании и изменении их наименований всем географическим объектам на территории нашей страны требованиям законодательства. Эти важные задачи законом возложены на Кадастровое агентство и специально созданный при нем Центр республиканской топонимической службы.

Самое главное, с принятием этого закона урегулирование правоотношений в области наименования и переименования географических объектов, установление единой формы наименования для служебного и общего пользования, ведение государственного реестра, пополнение будут решены вопросы создания единой электронной базы данных, проведения экспертизы, национальной стандартизации, использования наименований, сохранения и охраны. Стоит отметить, что в настоящее время созданы все нормативно-правовые базы для проведения национальной топонимической политики в нашей стране.

Цель исследовательской работы - ознакомиться с содержанием и сущностью дополнений и изменений, вносимых в целях совершенствования

Закона Республики Узбекистан «О наименованиях географических объектов». Для достижения поставленной цели предусматривается выполнение следующих задач: а) сравнительный анализ дополнений и изменений в действующий закон; б) сущность нормы учета мнения местного населения при наименовании географических объектов и изменении их наименований; в) содержание и характер полномочий граждан по выдвижению инициатив по наименованию географических объектов; ж) анализ причин, по которым полномочия по наименованию географических объектов в городах с районами предоставлены городским Советам народных депутатов; г) определение порядка именовании составных частей населенных пунктов именами лиц, оставивших глубокий след в истории Узбекистана или мира.

В ходе исследовательской работы широко использовались географическое сопоставление, историческое сопоставление, этимологический анализ, лингвистические, статистические и картографические методы, а также возможности информационных технологий.

Согласно закону, хаким района или города может инициировать инициативу граждан о присвоении составным частям населенных пунктов (кварталам, проспектам, улицам, скверам, паркам, проспектам) имен лиц, оставивших глубокий след в истории Узбекистана или мира, а также органов самоуправления граждан, предприятий, учреждений., рассматривает ходатайства организаций и направляет их вместе с необходимыми документами в комиссию по наименованию и переименованию географических объектов, действующую на общественной основе при районной или городской управе.

Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан и дополнения к другим нормативно-правовым документам, принятые в целях обеспечения выполнения требований настоящего Закона, своевременного осмысления изменений, происходящих в топонимической политике нашей страны, создания и консолидации в короткие сроки единой электронной базы названий всех географических объектов, существующих в топонимике регионов,

необходимо будет досконально изучить проблемы, устранить их и строго придерживаться традиций нашего народа, сложившихся и совершенствовались на протяжении веков, в наименовании и переименовании новых географических объектов.

По решению Кабинета Министров Республики Узбекистан, которое в настоящее время находится на общественном обсуждении, будут внесены и утверждены дополнения в Положение о республиканских и региональных комиссиях по наименованию и переименованию географических объектов. Положение подтверждает, что республиканская и областные комиссии являются специальными органами, осуществляющими контроль за исполнением требований закона. При этом в данном решении четко определен порядок наименования вновь создаваемых географических объектов компетентными органами государственной власти и управления в соответствии с требованиями законодательства.

to earth phonetic. In accomplishing this objective, it is anticipated that EFL instructors can enhance their instructing linguistic use strategy and create it into their classroom hones based on their conceptual and procedural information. The investigate discoveries from quantitative information uncover that EFL instructors in Ambon City have the different concept of linguistic use concept and how it is contributed to their instructing language structure approaches, procedures, and strategies. The information of conveyed survey for English instructors in senior tall schools in Ambon appear that 58 instructors or 92% of the instructors get it that language structure is the department of the dialect that help understudies communicates them. The instructors realize that by mindfulness in utilizing language structure and making a difference understudies to get it language structure itself can energize them to specific their selves by a few of ways in English. It is almost instructors or 97% of the instructors have a clear concept of language structure that it is related to organization of design of words in sentences. This conceptual thought is inferred that utilizing language structure rules in communication is way better to communicate the message implications than as it were knowing the words within the single sentence. This thought depicts that the guideline objective of a dialect is to communicate the message in a critical way and the ways understudies learn it ought to be tired deliberate ways so that they not as it were comprehending the linguistic shapes but too can apply it in significant ways. Almost 57 instructors or 90% of the instructors put their conceptual information on language structure beneath prescriptive language structure sort in which instructing language structure ought to be centered on utilizing great standard dialect whether it is right or off-base utilize in communication. This thought is based on prescriptive language structure sort which alludes to standard utilize of dialect and it is the point of instructing English beneath the prescriptive language structure demonstrate. From the reactions, it can be deduced that the instructors center on the rules as they ought to be utilized, hence they expect that in certain condition, they apply redress shapes but other cases they still bargain with off-base shapes especially when they talk with local speakers. On the other hand, 44 instructors or 70% of the instructors put their conceptual

information beneath graphic linguistic use sort that displayed the ways of dialect related to kind of English structure that the everyday utilized of local dialect.

In summary, this sort of linguistic use endeavors to clarify the ways of a dialect utilized by local speakers in their existence and maintain a strategic distance from to making a judgment almost off-base or right utilization. Beneath the conventional linguistic use sort, 49 instructors or 77 % of the instructors accept that in their educating language structure, it ought to contain eight distinctive parts of discourse shaped by thing, verbs, articles, pronouns, relational words, participles, conjunctions and intensifiers. To learn a dialect, learners ought to think about these eight categories independently and create rules in agreement with them utilize in interpretation. Nearly English foreign language senior tall school instructors get it the concept of speculations beneath the umbrella of prescriptive language structure, clear linguistic use and conventional language structure. Their reactions appear that their instructing linguistic use encounters have as of now suit with the linguistic use speculations, and it can reflect from their linguistic use classroom hones. On the opposite, the comes about of classroom perception for the five chosen instructors appear that their conceptual information is based on conventional linguistic use sort. They see language structure as the set of rules comprise of eight categories such as things, verbs, pronouns, relational words, participles, conjunctions, articles and qualifiers, and it is reflected through their educating linguistic use materials. Because it is pointed out by the conventional language structure specialists that this sort of language structure is a question to be educating not as a device since it doesn't grounded hypothesis. For that reason, utilizing language structure course readings is basic and ordinarily understudies learn the grammar structures by keep in mind entries and composing chunks. The five chosen instructors for the most part utilize writings to instruct language structure point beginning with reading a text, recognize sentences, discover the dialect utilize of a content and after that make sentences utilize the standard rules of linguistic use.

References:

1. K. Safford, "Teaching Grammar and Testing Grammar in the English Primary School: The Impact on Teachers and their Teaching of the Grammar Element of the Statutory Test in Spelling, Punctuation and Grammar. 2016.
2. B. L. Sykes, A. Verma, and B. H. Hancock, 2018.
3. J. H. Hitchcock and A. J. Onwuegbuzie, "Developing Mixed Methods Crossover Analysis Approaches," 2020.
4. S. Kinn and J. Curzio, "Integrating qualitative and quantitative research methods," 2005.
5. J. Sargeant, "Qualitative Research Part II: Participants, Analysis, and Quality Assurance," 2012.
6. D. Amaratunga, D. Baldry, M. Sarshar, and R. Newton, "Quantitative and qualitative research in the built environment: application of 'mixed' research approach," 2002.
7. J. Agee, "Developing qualitative research questions: A reflective process," 2009.
8. J. H. M. van Rijt, P. J. F. de Swart, A. Wijnands, and P. A. J. M. Coppen, "When students tackle grammatical problems: Exploring linguistic reasoning with linguistic metaconcepts in L1 grammar education," 2019.
9. "Использование интеллектуальных игр в процессе обучения иностранному языку", стр352-353/ "Евразийский научный журнал» #4 апрель 2017. Ибадова Н.А.
10. "TEACHING WRITING THROUGH STORIES", / " INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH IN MANAGEMENT AND SOCIAL SCIENCES" 12.12.2021 Impact Factor(2021): 7.624. Bekturdiyeva G.S.

CHET TILLARINI O'RGANISHNING TEZ VA SAMARALI YO'LLARI

Tursunboyeva Mo'minaxon Alinazar qizi

Farg'ona Davlat universiteti ingliz tili va adabiyoti fakulteti

3- bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada chet tillarini qanday o'rganishni boshlash va qanday qilib tez va samarali o'rganish usullarini yoritib berilgan. Shuningdek, til o'rganishda innovatsion texnologiyalarning roli haqidagi axborotlarni olish mumkin.

Kalit so'zlar: interaktiv metod, motivatsiya, interaktiv suhbat, individual, "Wisdom dictionary", "OALD", struktura.

QUICK AND EFFECTIVE WAYS OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES

Abstract. The article shows how to start learning foreign languages and how to learn quickly and effectively. You can also get information about the role of innovative technologies in language learning.

Keywords: interactive method, motivation, interactive conversation, individual, "Wisdom dictionary", "OALD", structure.

БЫСТРЫЕ И ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация: статье показано, с чего начать изучение иностранных языков и как научиться быстро и эффективно. Вы также можете получить информацию о роли инновационных технологий в изучении языка.

Ключевые слова: интерактивный метод, мотивация, интерактивная беседа, индивидуум, «Словарь мудрости», «ОАЛД», структура.

Barchamizga ma'lumki hozirgi rivojlanib borayotgan taraqqiyot davrida chet tillarni bilish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi zamomaviy hayotda ingliz tilini bilish har bir yo'nalishda yaxshi mutaxassis bo'lishga katta imkoniyat eshiklarini ochib bermoqda. Shuningdek bu davr talabiga ham aylanib ulgurdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ingliz tilini o'rganishning siz uchun qulay tomoni hayotingizning deyarli barcha jabhalarida yaxshi natija olishga sizni moslashtirish qobiliyatiga ega. Ingliz tilini yaxshi o'rganish juda muhimdir va chet tilini o'rganish uchun ko'plab shunday sabablar bor. Demak ingliz tilini bilish biz uchun dolzarb bo'lsa, uni qanday tez va mukammal o'rgana olamiz? Uzoq yillar davomidagi izlanishlar natijasida shuni ko'ra olamizki, muammoning sababi til o'rganishga bo'lgan yondashuvdadir. Chet tilini o'rganish bu biz xayolimizga o'ylaganchalik qiyin emasligini kundan-kunga yaxshiroq anglab bormoqdamiz. Bu uchun muhimi chet tilini o'rganishda eng qulay yo'lni tanlay olishdir. Tilni o'rganish bugungi kunda o'qituvchidan ko'ra aynan til o'rganuvchi o'quvchining o'ziga ko'proq bog'liq bo'lib qoldi.

Kuchli motivatsiya. Har qanday tilni o'rganish uchun eng asosiysi hayotdagi barcha yo'nalishda bo'lganidek ishtiyoq. Bu motivatsiya bizning tilini o'rganishga qo'ygan maqsadimiz hisoblanadi. Sizning bu maqsadingiz qachonki siz tilni o'rganish paytida zerikish yoki charchash hissini sezganingizda sizni bu to'siqlardan olib o'tadi. Demak, siz o'zingizning ruhiy olamingizni til o'rganishga tayyorlasangiz, o'zingizga bo'lgan ishonchingizni oshirsangiz ya'ni fikringizni yaxshi maqsadlar bilan to'ldirsangiz yaxshi natijalarga erishasiz.

Kunlik mashg'ulot. Ko'pgina til kurslari haftada bir yoki ikki kun bir yarim-ikki soatdan dars tashkillashtiradi va kundalik ishlari bilan band bo'lgan til o'rganuvchi kishi boshqa kunlarda tilga vaqt ajratolmaydi va keyingi darsgacha oldingi darsdagi mavzularni esdan chiqaradi va bu tilni o'rganish jarayonini ancha sekinlashtiradi. Shu uchun ham xohlagan bir chet tilini o'rganayotganda, uni har kuni individual o'rganish kerak va shunda har kuni takrorlanish natijasida tilni o'rganish jarayoni ancha tezlashadi.

Lug‘at yodlash. Har qanday chet tilida tez orada yaxshi gapirish uchun albatta sizda ko‘p lug‘at boyligi bo‘lishi kerak. Lug‘atlarni har kuni 20-30tadan yodlab lekin 1hafta o‘tmay ularni esdan chiqarib yuborish holati barchamizga ma’lum. Demak, nima qilish kerak? Siz lug‘at yodlaganda ularni asosan gaplarda qo‘llashga va interaktiv suhbatda ishlatishda harakat qiling. Men sizga smartfoningizda oson ishlatiladigan "Wisdom dictionary" va "OALD" ilovalarini lug‘at yodlash uchun taklif qilaman. Bu ilovalarda so‘zlarning tarjimasi bilan ularni gaplarda qanday strukturalarda qo‘llanilishi o‘rgatadi. Siz so‘zlarni gaplarda ishlatganingizda esingizda qolish imkoniyati oshadi va gapda qo‘llash yo‘llarini o‘rganasiz.

Grammatika. Chet tillarni o‘rganishda o‘rganuvchiga eng qiyin va zerikarli narsasi bu grammatika hisoblanadi. Biz oylab, yillab grammatika kurslariga boramiz va amaliyotda qo‘llanilmaydigan ko‘pgina qoidalarga duch kelamiz. Har qanday tilni o‘rganishda eng sodda yo‘ldan borish kerak. Shu uchun ham e’tibor bering: chet tillarida asosan sodda gap nimalardan iborat? Ega+Kesim+To‘ldiruvchi. Demak, gapning shu qismlarida ishlatiladigan grammatikani o‘rganish tilni o‘rganish uchun yetarlidir.

Har qanday tilni o‘rganishdan maqsad shu tilda gapira olishdir. Shu tomondan o‘ylab chiqqanda, grammatikani o‘rganish siz uchun taxminan 80 foizga osonlashadi

Grammatikani o‘rganganda tilga olgandan so‘ng ularni o‘rganib chiqishni haftalarga taqsimlab oling. Har bir alohida mavzuga bir haftadan vaqt ajrating va hafta davomida bir mavzuni chuqurroq o‘rganib boring. Natijada, uch oyda chet tilida gapira olish uchun yetarli darajada grammatik asosga ega bo‘lasiz va ko‘rganingizdek bu siz o‘ylaganchalik ham murakkab narsa emas.

So‘zlashgichlar yordami. Chet tilni o‘rganishni osonlashtirishning yana bir yo‘li, bu chet tilidagi tayyor so‘zlashgich yoki gidlardadir. Bugungi kunda hatto oddiy smartfoningizda ham ko‘plab chet tilida turli holatlarda ishlatiladigan tayyor gaplardan iborat gid so‘zlashgichlar va ijtimoiy tarmoqlarda til kurslarini o‘rgatuvchi turli videolar bor. Aynan shu gidlarda siz tilda ishlatiladigan tayyor gaplarni yodlab olishingiz mumkin. Bu gaplar sizni chet tilida so‘zlashishingizni ancha osonlashtiradi.

Chet tilini o'rganish bo'lsa o'quv markazlari va o'qituvchilardan ko'ra bugun faqat va faqat sizga bog'liqdir. Texnika taraqqiyoti evaziga, bugun ishonch, ishtiyoq va to'g'ri tanlangan metodikaning o'zi chet tillarini o'rganish uchun yetarli. Kimlar bilan chet tilida gaplashaman?

Tabiiyki shunday savol tug'ilishi mumkin: "Xo'p", siz aytgan narsalarni barchasini qildik. Lekin, tilni gapirish uchun nima qilishim kerak? Kim bilan chet tilida gaplashsam bo'ladi? Og'zaki nutqimni qanday qilib o'stirsam bo'ladi?" Buning javobi borib bugungi ijtimoiy tarmoqlarga taqaladi. Ijtimoiy tarmoqlarida bugun tili o'rganilayotgan mamlakatdan do'st orttirish juda oson holat bo'lib qoldi. Lekin, o'rganishning eng oson yo'li bu xato qilishda ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Shu uchun xato qilishdan qo'rqmasdan, chet tilida gapirishga harakat qilish kerak va shu orqaligini xato qilish natijasida o'z kamchiliklaringizni tushunib borasiz va maqsadni keyin aynan shu kamchiliklarni to'g'rilashga qaratasiz. Eng asosiysi, xatodan uyalmasdan chet tilida gapirish. Men ham o'tgan yillarda chet tilida gapirish uchun bir necha marta "qovun tushirganman", hatto butun boshli gruppada oldida kulguga qolgan davrlar bo'lgan. Lekin bilasizmi, o'sha xatolarni qilmaganimda, xatolarimni bilmaganimda bugun tilni shu darajada o'rgana olmasdim.

Siz chet elliklar bilan tashkillashtirilayotgan ma'lum bir tadbir ishtirokchisiz, siz bilan suhbatda bo'lgan chet ellik qiynalib, xatolar bilan bo'lsada sizning tilingizda gapiryapti. Shu holatda, siz uning xatolari uchun unga past nazar bilan qaramaysiz, aksincha o'zingizni tilingizni o'rganayotganligi uchun, unga nisbatan hurmatingiz ortadi, xursand bo'lasiz va uni xatolarini tushunasiz. Demak, chet elliklar bilan ularning tilida suhbat qilish davomida, ular sizning xato qilishingizni tabiiy qabul qilishadi va ularning tilini o'rganayotganingizdan xursand ham bo'lishadi. Shu uchun ham xato qilishdan qo'rqmang.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, chet tillarni bilish har bir soha vakili uchun yangi imkoniyatlar kalitidir. Siz sohangizni yaxshi bilsangiz bitta eshik, chet tilini ham bilsangiz yana bir eshik ochiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalilov J. Chet tili o'qitish metodikasi, Toshkent .2012
2. Джалолов Д.Д., Методическая разработка для групповых руководителей
3. Djumaqulov A. A.The diffirence modular teaching texnlogy and traditional teaching, 2020.
4. Adilova S. ,Xidralieva Z.Pedagogika ilmiy nazariy va metodik jurnali,"Tahrir va nashr".2017.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA HARBIY XIZMATCHILARNING RUHIY BARQARORLIK MODELI

Norbutayev Samandar Abdubakirovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

***Annotatsiya:** Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari harbiy xizmatchilarining ruhiy barqarorligining modeli ko'p jixatdan shaxsni xizmat faoliyat sub'ekti toifasi nuqtai nazaridan o'rganish bo'yicha zamonaviy qarashlar bilan belgilanadi. Ushbu qarashdan foydalanishda, faqatgina harbiy xizmatchini ijtimoiy va xizmat faoliyati munosabatlari tizimga kiritish va xizmat faoliyat sub'ektiga aylantirish xizmat faoliyatining psixologik talablari va harbiy xizmatchining imkoniyatlari, qobiliyatlari sintezini ta'minlaydi.*

***Kalit so'zlar:** stress, ruhiy barqarorlik, hissiyot, zo'riqish, emotsiya, model.*

Kirish

Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari harbiy xizmatchilarining ruhiy barqarorligining modeli ko'p jixatdan shaxsni xizmat faoliyat sub'ekti toifasi nuqtai nazaridan o'rganish bo'yicha zamonaviy qarashlar bilan belgilanadi. Ushbu qarashdan foydalanishda, faqatgina harbiy xizmatchini ijtimoiy va xizmat faoliyati munosabatlari tizimga kiritish va xizmat faoliyat sub'ektiga aylantirish xizmat faoliyatining psixologik talablari va harbiy xizmatchining imkoniyatlari, qobiliyatlari sintezini ta'minlaydi.¹

Tadqiqot metodologiyasi va emperik tahlil

Ko'plab sotsiologik konsepsiyalar mavjud, ularda shaxsning aqliy rivojlanishi jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonining asosiy bosqichlarini birinchi navbatda uning ma'naviy hayoti va madaniyatining rivojlanishini ixcham shaklda takrorlaydi.

¹ Абульханова-Славская К.А. Категория деятельности в советской психологии // Психологический журнал. – 1980. – №4. – Стр. 11–28.

Bundan kelib chiqqan holda, biz harbiy xizmatchining ruhiy barqarorligini uchta omil orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin: *Biologik, psixologik va ijtimoiy*. Shu sababli ruhiy barqarorlik harbiy xizmatchining o‘z faoliyatini saqlab qolish qobiliyatidir. Psixologik lug‘atlarda barqarorlik tushunchasining 2 ta sinonimi keltiriladi: “stabillik va muvozanat”. “Stabiliti” termini: 1) Barqarorlik, stabillik, muvozanat holati; 2) Doimiylik, turg‘unlik, qat‘iylik sifatida qaraladi.”¹

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyati sub‘ekti ruhiy barqarorligining uch omilli modelini ko‘rsatishimiz mumkin, bular: 1) harbiy xizmatchining kuchi-zaifligi; 2) harbiy xizmatchining harakatchanligi-inersiyasi; 3) harbiy xizmatchining muvozanati-muvozanatsizligi. Ko‘p jihatdan aqliy barqarorlik resurslari hatto besh yoshga to‘lmasdan ham shakllanadi.²

Asab jarayonlarining kuchi xarakterlidir. Bu ish qobiliyati, harbiy xizmatchi ruhiy holatining chidamliligi, qo‘zg‘alishi yoki dosh berish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Zaiflik – asab hujayralarining kuchli qo‘zg‘alishiga bardosh bera olmasligi, sekinlashishi.

Shuni aytish joizki, aqliy zo‘riqish ruhiy barqarorligi zaif bo‘lgan harbiy xizmatchilarda erta buziladi. Kuchli ruhiy barqarorlikka ega bo‘lgan shaxslar keskin vaziyatlarga ko‘proq chidamli bo‘ladilar.³ **Ruhiy barqarorlik modeli ishlab chiqishdan maqsad** – jamoat havfsizligini ta‘minlashda harbiy xizmatchilarda o‘z-o‘zini boshqarish va ruhan barqarorlik sifatlarini oshirish.

Ruhiy barqarorlik modeli tamoyillari – harbiy xizmat qiyinchiliklariga moslashish va jamoat xavfsizligini ta‘minlash xizmatida stress hamda dipressiyaga tushmaslik, kommunikativlik, maqsadga mvoqfiqlik, hissiy irodaviylik.

¹ Низомий номидаги ТДПУ доценти, психология фанлари номзоди С.Х.Жалилова. Шахсининг психологик барқарорлиги психик саломатлик кўрсаткичи сифатида” мақоласи (Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) Халқаро анжуман тўплами. Тошкент 24 ноябрь 2021й). 317 бет.

² Н.А.Жожикашвили, А.С.Малых, А.А.Девятерикова. “Психическая устойчивость”. Теоретическая и экспериментальная психология • 2021 • Т. 14 • № 4 • С. 49–65. 49-стр.

³ Илин Е.П. “обеспечение надежности деятельности в связи с учетом типологических особенностей свойств нервной системы” // Проблемы инженерной психологии. Ярославл: ЯрГУ-ИП АН, -С. 121–133.

Ruhiy barqarorlikka erishishning asosiy yo'llari – o'z kasbidan qoniqish hissini uyg'otish, quvonch, ilxom, uyg'oqlik, to'yinganlik, kuchlanish, jamoat xavfsizligini ta'milashda stresslar psixoprofilaktikasi, psixologik bilimlarni tizimli o'qitish, madaniy- ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish.

Ruhiy barqarorlik modelini shakllantiruvchi nazariy asos - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 8-sentyabrdagi PF-60 "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 91-moddasi.

Ruhiy barqarorlik modelini shakllantiruvchi mezonlar – affektiv, konativ, kognitiv, ijodkorlik, kreativ.

Ruhiy barqarorlik modelini rivojlantiruvchi darajalari - hayajon (boshlag'ich), faollik (o'rtacha), zo'riqish (yuqori).

Ruhiy barqarorlik modelini rivojlantiruvchi bosqichlari - *birinchi bosqichda*: ijobiy hissiyotlarni shakllantirish; *ikkinchi bosqich*; o'tayotgan xizmatiga nisbatan qiziqish va extiyojni qondirishga intilish; *uchinchi bosqich*: qiziqish va extiyojni qondirish yo'lida amaliyotni tashkil etish; *to'rtinchi bosqich*; qiziqish va extiyojni qondirish yo'lida tashkil etilgan amaliyot natijalarini psixologik baxolash;

Ruhiy barqarorlik modelini rivojlantiruvchi muhim omillari - *biologik*-instinktlar, nerv tizimining kuchi, muvozanati va harakatchanligi, *psixologik*-bilish jarayonlari, temperament, xarakter, *ijtimoiy*-aholiga munosabatlari va atrofdagilarga munosabati, madaniyati, xulq-atvori.

Metodika: stress va dipressiyaning oldini olish uchun treninglar (oyoq kiyimidagi tosh, sayoxat, nizolashuvchanlik darajasini aniqlash testi, va boshqalar); interfaol metodlar – rolli o'yinlar, tinchlantiruvchi musiqalar, ilmiy ishlar- "Концептуальная модел психологической устойчивости специалиста МЧС России на основе системного подхода". V.V.Kazankov.

Kutilgan natijalar – jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari harbiy xizmatchilarida ruhiy barqarorlikni ta'minlash (empirik), harbiy xizmatchilarning stressga tushishlarining oldini olish (ijodiy);

Kuchli ruhiy barqarorlikka ega bo'lgan jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb qilingan harbiy xizmatchilar ekstremal vaziyatlar sodir bo'lganda oqilona tashabbus ko'rsatadilar. Temperamentlarni hisobga olib, introvert va ekstrovert harbiy xizmatchilarni barqarorlik va beqarorlik kabi xususiyat eagariga ajartish mumkin. Xarakter harbiy xizmatchining boshqa belgilaridan ko'ra barqarorligi bilan ajralib turadi.

Xulosa

Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari harbiy xizmatchilari yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda ruhiy barqarorlikka erishishi uchun qoniqish, quvonch, to'yinganlik tuyg'ularini his etishga harakat qilishlari zarur. Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari harbiy xizmatchisi xizmatga chiqish oldidan o'zini fuqarolar bilan xushmuomala bo'lishga ruhan tayyorlashi kerak. Komandir va boshliqlar tomonidan esa har bir harbiy xizmatchini individual psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholagan holda xizmatga taqsimlashi lozim. Harbiy xizmatchining o'z kelajagiga qo'yilgan maqsadlari uni amalga oshirish vositalari yoki usullarida ko'rinishi mumkin.

Harbiy xizmatchi ruhiy barqarorligini ta'minlashning biologik omilini shakllantirish harbiy xizmatchidan o'z instinktlari, nerv tizimining kuchi, muvozanati va harakatchanligini jilovlashga bog'liq bo'ladi. Psixologik omillari esa harbiy xizmatchining bilish jarayonlari, temperamenti va xarakteri xususiyatlariga yuorg'iq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy omillari o'z navbatida yuqoridagi uch omillar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти, Қуролли Кучлар Олий Бош Қўмондони Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 8-сентябрдаги ПФ-60 “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”нинг 91-моддаси.
2. Абульханова-Славская К.А. Категория деятельности в советской психологии // Психологический журнал. – 1980. – №4. – Стр. 11–28.
3. Низомий номидаги ТДПУ доценти, психология фанлари номзоди С.Х.Жалилова. Шахснинг психологик барқарорлиги психик саломатлик кўрсаткичи сифатида” мақоласи. 317 бет.
4. Н.А.Жожикашвили, А.С.Малых, А.А.Девятерикова. “Психическая устойчивость” Т. 14 № 4 С. 49–65. 49-стр.

TISH ILDIZI REZEKSIYASIDAN KEYINGI BO‘SHLIQNI OSTEOPLASTIK MATERIALLAR BILAN TO‘LDIRISH

Ospan Jaksimov

Toshkent davlat stomatologiya instituti

1-kurs Magistr talabasi

***Annotatsiya.** Tish ildizi rezektsiyasi-bu tish kistalari, apikal infeksiyalar va ildiz sinishi kabi turli xil og'iz kasalliklarini bartaraf etish uchun amalga oshiriladigan keng tarqalgan tish jarrohlik amaliyoti. Ta'sir qilingan ildizni olib tashlaganingizdan so'ng, natijada bo'shliq qoladi, bu muvaffaqiyatli davolanish va funktsiyani tiklash uchun tegishli boshqaruvni talab qiladi. Ushbu maqola tish ildizi rezektsiyasidan so'ng bo'shliqni to'ldirish uchun mos variant sifatida osteoplastik materiallardan foydalanishni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot qo'llanilgan usullarni muhokama qiladi, olingan natijalarni taqdim etadi va osteoplastik materiallarning suyaklarning yangilanishini rag'batlantirish va optimal klinik natijalarni osonlashtirishdagi samaradorligi to'g'risida keng qamrovli munozarani taklif etadi.*

***Kalit so'zlar:** tish ildizi rezektsiyasi, osteoplastik materiallar, stomatologik jarrohlik, suyak grefti, boshqariladigan to'qimalarning yangilanishi.*

Tadqiqot tish ildizi rezektsiyasidan keyin bo'shliqni to'ldirish uchun osteoplastik materiallardan foydalanishni o'rganish uchun tizimli yondashuvdan foydalandi. [Maxsus vaqt oralig'ini kiritish] o'rtasida nashr etilgan klinik tadqiqotlar, amaliy hisobotlar va eksperimental tadqiqotlarni o'z ichiga olgan tegishli tadqiqotlarni aniqlash uchun to'liq adabiyotlarni ko'rib chiqish o'tkazildi. Tanlangan tadqiqotlar metodologiyasi, namuna hajmi, aralashuv texnikasi, kuzatuv davomiyligi va natijalari uchun tanqidiy baholandi. Yuqori sifatli tadqiqotlarni tanlashni ta'minlash uchun inklyuziya va istisno mezonlari o'rnatildi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, osteoplastik materiallar tish ildizi rezektsiyasidan keyin bo'shliqni to'ldirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Suyak greftlarining har xil turlari, masalan avtograflar, allograflar, ksenograflarva sintetik greftlar, suyaklarning yangilanishini rag'batlantirish va uzoq muddatli barqarorlikka erishish samaradorligi uchun tekshirildi. Bundan tashqari, hidoyat to'qima regeneratsiya texnikasi shunt materiallar integratsiyasini oshirish va nuqson sohasida yangi suyak shakllanishiga ko'maklashish uchun ish qilindi. Natijalar osteoplastik materiallardan foydalangandan so'ng suyak shakllanishida va umumiy klinik natijalarda sezilarli yaxshilanishlarni ko'rsatdi.

Muhokama bo'limi tanlangan tadqiqotlar natijasida olingan natijalarni talqin qilish va tahlil qilishga qaratilgan. U turli xil osteoplastik materiallarning afzalliklari va cheklovlarini, ularning ta'sir mexanizmlarini va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni o'rganadi. Bundan tashqari, turli xil payvandlash usullarini taqqoslash va ularning suyaklarning yangilanishiga ta'siri muhokama qilinadi. Alveolyar tizma o'lchamlarini saqlab qolish, implant osseointegratsiyasini rag'batlantirish va estetik natijalarni oshirishda osteoplastik materiallarning roli ham ko'rib chiqilgan. Munozara osteoplastik protseduraning muvaffaqiyatini oshirishda bemorni to'g'ri tanlash, jarrohlik texnikasi va operatsiyadan keyingi parvarish muhimligini ta'kidlaydi.

Xulosalar:

Ko'rib chiqilgan adabiyotlarga asoslanib, tish ildizi rezektsiyasidan keyin bo'shliqni to'ldirish uchun osteoplastik materiallardan foydalanish ishonchli va samarali davolash usulini taqdim etadi. Suyak greftlari boshqariladigan to'qimalarning yangilanishi bilan birga suyaklarning muvaffaqiyatli tiklanishiga va normal og'iz funksiyasini tiklashga yordam beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, payvandlash materialini tanlash bemorning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak, bunda mavjudlik, biologik moslik va uzoq muddatli muvaffaqiyat salohiyati kabi omillar hisobga olinadi. Keyingi tadqiqotlar yangi Biomateriallarni o'rganish, uzoq muddatli natijalarni baholash va natijalarni optimallashtirish uchun jarrohlik usullarini takomillashtirish uchun kafolatlanadi.

Takliflar: Tish ildizi rezektsiyasidan keyin osteoplastik protseduralar sohasini rivojlantirish uchun bir nechta takliflar taklif etiladi. Birinchidan, turli xil osteoplastik materiallarning uzoq muddatli muvaffaqiyati va barqarorligini baholash uchun qo'shimcha klinik tadqiqotlar o'tkazilishi kerak. Turli xil payvandlash usullari o'rtasidagi qiyosiy tadqiqotlar eng samarali yondashuvlar haqida qimmatli tushunchalarni berishi mumkin. Bundan tashqari, suyak regeneratsiyasi uchun innovatsion Biomateriallarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish klinik natijalarga olib kelishi mumkin. Va nihoyat, bemorlarni tanlash, jarrohlik muolajalari va operatsiyadan keyingi parvarish uchun standartlashtirilgan protokollarni yaratish natijalarning takrorlanishi va ishonchliligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tish ildizi rezektsiyasidan keyin bo'shliqni to'ldirish uchun osteoplastik materiallardan foydalanish suyaklarning yangilanishi va klinik muvaffaqiyat nuqtai nazaridan istiqbolli natijalarni ko'rsatdi. Ushbu materiallar og'iz bo'shlig'ining funktsionalligi va estetikasini tiklashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, osteoplastik materiallarni tanlash va qo'llashni optimallashtirish, bemorlarning yaxshi natijalarini va stomatologik jarrohlikda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar va yutuqlar zarur.

Adabiyotlar.

1. Петрикас А.Ж., Захарова Е.Л., Ольховская Е.Б. Распространённость осложнений кариеса зубов. *Стоматология* 2014; (1): 19—20.
2. Миронова В.В., Физюкова Г.Г., Соломатина Н.Н. Использование светотерапии при деструктивных формах периодонтита. *Фундаментальные исследования* 2014; 4(2): 318—24.
3. Рабинович И.М., Снегирев М.В., Голубева С.А. Клиническая эффективность сочетанного применения метода фотодинамической терапии и медицинского озона у пациентов с заболеваниями периодонта. *Клиническая стоматология* 2013; 2(66): 14—7.

4. Robazza C.R., Alves e Motta J.C., de Carli M.L. Endodontic retreatment of dens invaginatus presenting with gutta-percha overfilling at the attached gingiva and chronic apical periodontitis: unusual clinical report. *J. Con-temp. Dent. Pract.* 2013; 14(3): 556—9.

5. Ешиев А.М., Сагынбаев М.А., Алимжанов С.К. Эффективность остецистэктомии с применением остеопластических материалов. *Фундаментальные исследования.* 2015; 1(3): 500—3.

6. Модина Т.Н., Маклакова И.С. Опыт использования нового отечественного остеопластического материала при лечении деструктивных форм периодонтита. *Эндодонтия Today.* 2012; 1

JALOLIDDIN MANGUBERDI – VATAN FAXRI, TARIXIMIZ G‘URURI**Eshonqulov Umurzoq Absamat o‘g‘li**

Jizzax davlat pedagogika universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlarda
masofaviy ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Tuxtamishev Xasan Xamidulla o‘g‘li

JDPU talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jaloliddin Manguberding o‘z vatanining ozodligi va erki uchun olib borgan kurashi xamda qaxramonliklari haqida ma‘lumotlar berilgan. Jaloliddin Mangu berdi mo‘g‘ullarga qarshi kurash bilan bir qatorda qo‘shni davlatlarni xam mo‘g‘ullarga qarshi kurashda birlashtira olganligi xamda o‘zining davlatini tashkil qilishi va o‘limiga qadar judda katta xududlarni idora etganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazmshox G‘azna, Parvon, Chingizxon, Xo‘ru, Hindiston, Ozarbayjon, Gurjiston Xolsulton Sind mo‘g‘ul, Qandaxor.

KIRISH

Fitna uyasiga aylangan poytaxtdagi saroydan ketgan Jaloliddin Niso ostonasida 300 otlıq qo‘shini bilan uning yo‘lini to‘sib turgan 700 otlıq mo‘g‘ul qo‘shishini yengadi. G‘aznaga kelib, yangi kuch to‘play boshlaydi. Mo‘g‘ullar ustidan bir necha bor zafar quchdi. Jaloliddin Qandahor shahrini qamal qilayotgan mo‘g‘ullarni shiddatli janglardan so‘ng tor-mor qiladi, G‘aznada Jaloliddin qo‘shiniga har tomondan harbiy kuchlar kelib qo‘shila boshladi¹. Xalaj qabilasi harbiy boshlig‘i Sayfiddin Ig‘roq, Balx hokimi A‘zam Malik, Afg‘on lashkarining sardori Muzaffar Malik va qarluqlar

¹ Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvitarixidan. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 72 b.

yo'lboshchisi Al-Hasan qo'shinlari Jaloliddinga kelib qo'shildilar. Jaloliddin Valiyon qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shinlarini ham yakson qildi. Bu g'alaba xabarlar Chingizxonga yetib borib turadi va bundan ancha bezovtalangan Chingizxon o'zining eng sinalgan sarkardasi Shiki Xutuqu Nuyon boshchiligidagi 45 ming kishilik qo'shinini Jaloliddinga qarshi yuboradi. Ikki yirik qo'shin Afg'onistonning Parvon shahri yaqinidagi past tekistlikda uchrashadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu jangda Sulton Jaloliddin o'zining harbiy dahosini yana birbor namoyon etdi. Jang shavqatsiz, beomon bo'ldi. Jangda Jaloliddin o'zigaxos noyob usullar qo'lladi. Mazkur jangda Jaloliddin qo'shinlari kuchli va makkor mo'g'ul qo'shinlarini tor-mor qiladi. Parvon yonidagi jangda mo'g'ullarning yengilishi ularning Xorazmshohlar davlatiga hujumlari davomidagi birinchi katta mag'lubiyati edi¹. Shunday qilib, Chingizxon ro'parasidagi raqibi uning o'ziga munosib ekanligini his etadi va u endi qat'iy, hal qiluvchi jangga hozirlik ko'rishning vaqti kelganligini sezadi hamda janga katta tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Jaloliddinning Parvon yonidagi ulkan g'alabasining eng e'tiborli tomonlaridan biri shu ediki, bir qancha shaharlar aholisi bu g'alabadan xabar topib, undan ruhanib, mo'g'ullarga qarshi isyon ko'tardilar, ularning noiblarini o'ldirdilar.

TADVIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bu mudhish holatdan Jaloliddinning harbiy kuchi keskin zaiflashdi. Oz qo'shin bilan kuchli dushman oldida nochor qolgan Jaloliddin Hindistonga o'tib ketish uchun tayyorgarlik ko'ra boshladi. Lekin Sind (Hind) daryosi bo'yida kemalar tayyorlanayotgan paytda unga qarshi shaxsan o'zi astoydil otlangan Chingizxon, o'z qo'shinlari bilan yetib keldi. Kuchlar nisbati Chingizxon foydasiga keskin farq qilardi. Mag'lub bo'lishiga aqli yetgan Jaloliddin dushman qo'lga asir olinib, haqoratlanmasligi uchun onasi, xotinlari va qizlarini ularning o'zlarining hohish-irodasi bilan daryoga cho'ktirishga farmon beradi. Lekin mo'g'ullar Jaloliddinning 8-9 yoshli o'g'ilchasini asir olib, Chingizxon huzuriga olib kelganlarida, hoqon uning

¹ Ishmuhammedov.R., Abduqodirov. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.T., 2008.

yuragini sug'urib olib, itga tashlashni buyuradi. Buyruq ijro etiladi. Niso viloyatidagi qal'alardan birining sohibi bo'lgan mashhur tarixchi Shahobiddin an-Nasaviy 1224 yildan 1231 yilgacha, ya'ni Jaloliddinning vafotigacha uning eng ishonchli mulozimlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. U doimo Jaloliddinning yonida bo'lgan va ko'rgan bilganlarini yozib borgan¹. Uning yozishicha, bu ikki yirik sarkarda qo'shinlari o'rtasidagi hayot-mamot uchun bo'lgan tarixiy jang 1221yil 24 noyabr kuni ro'y beradi. Tarixchi Juvayniy esa bu voqeani shunday ta'riflaydi: "Shu kuni tongda Sulton Jaloliddin suv va olov o'rtasida qoldi. Bir tarafda pishqirib oqayotgan Sind daryosi, orqada esa otashdek kuydiruvchi mo'g'ul lashkari. Shunday murakkab sharoitda Sulton o'zini yo'qotmadi va dushman bilan olishuv yo'lini tanladi". Bu tengsiz jangda Jaloliddin bor shijoat, mahorat va quvvatini ko'rsatib jang qilib, hatto mo'g'ul lashkarlarini ham lol qoldirdi. Lekin Chingizxon qo'shini soat sayin ko'payib borardi. Oxirgi marta katta urinish bilan qo'shinni bir oz chekinishga majbur qilib, jilovni orqaga burdi va sovutini yechib tashlab, otgaqamchi urdi. Qirg'oqdan turib 10 gaz yoki undan ortiqroq balandlik masofadan daryoga sakradi. Dovyurak arslon misoli daryoni kechib o'tdi va narigi sohilga chiqib oldi. Chingizxon bu holatni ko'rib otini daryo qirg'og'iga yeldirib keldi. Sulton bir shamshir, nayza va qalqon bilan daryodan o'tgan edi. Chingizxon bu holni ko'rib o'g'illariga yuzlanib aytdi: "Mard otaning o'g'li shunday bo'lmog'i lozim! Suv va olovning ikki girdobidan qutulib, najot sohiliga yetdimi, undan beadad ishlar va behisob tahlikalar tug'ilajak".

Jaloliddin o'z qo'shinini ahvolini ancha yaxshilab oladi, asta-sekin qo'shinisoni, qudrati oshib boradi. Hatto o'z nomidan tanga zarb qildiradi, barcha

viloyatlarda namozda uning nomini xutbaga qo'shib o'qiladigan bo'ladi.

Jaloliddin Hindistonda turli xil janglar va fitnalarni boshdan kechirib, uch yilu 7 oy hukmronlik qildi. Bu yerda u katta davlat barpo qildi. Unga tevarakdan yangi-yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Jaloliddin o'z davlati chegaralarini kengaytirib, katta kuch to'plab, so'ng mo'g'ullar bilan hisob-kitob qilishni qalbining eng to'riga tugib

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: "O'zbekiston Milliyensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 8 t. 2004. – B. 263.

qo‘ygandi. Shu maqsadda o‘zining harbiy yurishlarining dastlabkisini Iroqqa lashkar tortishdan boshladi. Iroq va eronning obro‘li amaldorlari Jaloliddin tomonga o‘tdilar. Misr va Suriya hukmdorlari ham Jaloliddinga tobeliklarini bildirib, elchi yubordilar. 1226 yilgacha Jaloliddin Ozarbayjon va Gurjistonni jang bilan egalladi. 1227 yil 5 sentabrda Jaloliddin Isfahon yaqinida eronni mo‘g‘ullardan himoya qilib, ular ustidan katta g‘alabani qo‘lga kiritadi.

Shu yili Chingizxon vafot etishi munosabati bilan chingiziylar bir oz muddat o‘z ichki ishlari bilan ovora bo‘ladilar. Ularning ayrim rahbarlari hatto bundan buyon Jaloliddin bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga ham harakat qiladilar.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, Chingizxon boshliq mo‘g‘ul istilochilarining 1219 yilning oxirlarida Oloviddin Muhammad Xorazmshohning nihoyatda katta va kuchli imperiyasi hududlarini egallash uchun boshlagan yurishlari shaxsan shohning o‘zi yo‘l qo‘ygan va tuzatib bo‘lmaydigan xatolari tufayli hudud xalqlari boshiga, fojeali qora kunlarni soldi. Yuzlab shahar-qishloqlar, turli inshootlar vayron qilinib, yer bilan yakson bo‘ldi. Xorazmshohlar dushman kuch- qudratini hisobga olmaganligi, o‘ziga tobe hududlar xalqlarini himoyasiga uyushtirmaganligi bir necha yuz minglab aholining yostig‘i qurishiga, o‘z saltanatining butunlay qulashiga, o‘zining esa kimsasiz bir orolda shon- shuhratsiz o‘lim topishiga sabab bo‘ldi. Mo‘g‘ullarning istilosidan so‘ngi yurtimiz hududlari holatini tasvirlash nihoyatda og‘ir. Bu hududlarda gullabyashnab borayotgan shahar va qishloqlar bamisoli kultepaga aylandi, hayot butunlay izdan chiqdi, bir mahallar aholisi gavjum bo‘lgan guzarlar, bozorlar, vohalar, savdo yo‘llari bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoldi¹. Chingizxon o‘limidan avvalroq o‘zi bosib olgan ulkan imperiya hududlarini to‘rtala o‘g‘liga taqsimlab bergandi. Jumladan, ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyga bizning hududlarimiz bo‘lmish Movaraunnahr, Xorazmning Sharqiy hududlari, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, shuningdek, Balx, Badaxshon, Qobul, G‘azna va Sind daryosigacha yerlarni berdi. Bu yerlar Chig‘atoy ulusi deb atalib,

¹ Uasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. - T.: Chulpon. 2014. B. 38-66.

ularning hukmronligiboshlandi. Mo'g'ullar bosqini o'lkamiz xalqlarining moddiy va ma'naviy, taraqqiyotini bir necha yuz yillar orqaga surib yubordi. Yozma manbalar, nodir, bebaho kitoblar yondirildi, oyoq osti qilindi. Ular xalqimizning turli sohadagi arboblarni, olimu-donolarini, ulug' kishilarini juda ko'pchiligini qirib tashladi. Umuman, taraqqiyotga shu qadar katta zarba berildiki, uni XIV asrning deyarli yarimlariga qadar ham tiklash juda mashaqqatli bo'ldi. Xalqimizning bunday og'ir kunlarda ham ozodlikka intildi va uning uchun kurashdi. Bu kurashga boshchilik qilish Turonzaminning, xususan, Xorazm xalqining jasur farzandi Jaloliddin Manguberdi chekiga tushdi. Darhaqiqat, o'n gulidan bir guli ochilmagan, endi o'ynab-kulish payti yetgan Jaloliddin shum tole taqozosi bilan hayotning juda murakkab va og'ir sinovlariga duch keldi. U bu sinovlarga bardosh bera oldi. To'g'ri, beayb parvardigor deganlaridek, kurashlar jarayonida bilib-bilmay ayrim jiddiy xatolar, kamchiliklarga yo'l qo'ydi. Lekin o'z xalqi, o'z mamlakati, o'z saltanati, o'z g'oyasi uchun umr bo'yi astoydil kurashdi. O'zining sarkardalik qobiliyati, jasurlik xususiyatlari va boshqa ijobiy xislatlarini to'liq namoyon eta oldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 72 b..
2. Ishmuhammedov.R., Abduqodirov. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T., 2008.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 8 t. 2004. – B. 263.
4. Abulg'ozzi Bahodirxon Shajarai turk. - T.: "Cho'lpon": 1992. 9-bob
5. Islom. Ensiklopediya. – T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 320 b
6. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. - T.: O'zbekiston. 2014. B. 195-211.
7. Jabborov I. O'zbek xalqining etnografiyasi. - T.: O'zbekiston. 2014.
8. U.Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. -T.: Chulpon. 2015.
9. Uasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. - T.: Chulpon. 2014. B. 38-66.

УЎК:633.2

**ТАКРОРИЙ БУРЧОҚ ВА ТРИТИКАЛЕНИ ЭКИШ УСУЛИ, УРУҒ
САРФИ ВА ЎҒИТ МЕЪЁРЛАРИНИНГ ТУПРОҚДА ҚОЛДИРГАН
АНГИЗ ИЛДИЗ ҚОЛДИҚЛАРИГА ТАЪСИРИ**

Асатиллаев Фурқатжон Рахматиллаевич

Андижон кишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти “Дехқончилик ва ўрмон мелиоратция” кафедраси катта ўқитувчиси.

Қамбаров Шоятбек Нематжон ўғли

Андижон кишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти талабаси.

Абдурашидов Жавлонбек Боходиржон ўғли

Андижон кишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти талабаси.

АННОТАЦИЯ.

Бурчоқни тритикале билан биргаликда қўшиб экиш хисобига юқори меъёрда ангиз илдиз қолдиқлари қолиши учун қатор ораси 60 см хар қаторда уруғ сарфи 250/150 кг/га уруғ сарфлаб, N_{100} , P_{70} , K_{50} кг/га фонида ўстириши мумкин. Бу вариантларда олинган жами ангиз ва илдиз қолдиқлари миқдорларини бурчоқни тритикале билан биргаликда қўшиб, 250/150 кг/га уруғ сарфлаб, қатор ораси 60 см хар қаторда экилгандаги билан таққосласак, 1,6-1,7 ц/га камроқ эканлиги аниқланди.

***Калит сўзлар:** Такрорий экин, бурчоқ, тритикале, экиш усули, уруғ сарфи, ўғит меъёри, ангиз илдиз қолдиқлар.*

КИРИШ. Республикамизда тупроқ унумдорлигини сақлаш ва ошириш бўйича илмий асосланган жадал технологиялардан фойдаланиб кўп тармоқли, чорвачиликка ихтисослашган фермер хўжаликларини озуқа базасини мустаҳкамлашда суғориладиган ерлардан унумли фойдаланиб, озуқабоп

экинлардан юқори ҳосил олишда озучабоп экинларни экиш (аралаш, зичлаштирилган) усулларини қўллаб минерал ва органик ўғитлардан самарали фойдаланиб, ҳар бир гектар ердан олинадиган озуча бирлигини қўпайтириш, таннархини камайитириш ва уларнинг сифатини яхшилаш бугунги куннинг зарур масалаларидандир.

Г.Ш.Ўринбоевнинг [60; Б-165] Фарғона вилоятини ўтлоқи соз кучсиз шўрланган тупроқлари шароитларида ўтказган тажрибаларида такрорий экинлар-маккажўхори, мош, ловия ва соядан уч йилда ўртача мутаносиб равишда 38,2; 15,5; 12,7 ва 23,3 ц/га дон ҳамда 307,3 (кўк масса), 32,2; 12,3 ва 33,5 ц/га пичан ҳосили олиш мумкинлиги, уларни анғиз ва илдиз қолдиқлари жами 52,2; 45,5; 32,9; 42,4 ц/га ни ташкил қилган ҳолда таркибида 15,8; 65,2; 34,8 ва 39,6 кг умумий азот тўпланиши аниқланди.

Бизни тадқиқотларда эса 2008 йилни шароитида кузги буғдой (такрорий экинлардан олдин) 15,2 ц/га анғиз ва 19,1 ц/га илдиз қолдиқларини (34,3 ц/га) тўпланганлиги аниқланди. Мана шу майдонга хайдов ўтказилиб ерни экишга тайёрлаб, бурчоқни алоҳида 250 кг/га уруғ сарфлаб, қатор ораси 15см қатор оралатиб, маъдан ўғитларни N_{100} , P_{70} , K_{50} ва N_{130} , P_{90} , K_{65} кг/га меъёрлари фонидан фойдаланиб амал даври охирида ўғит меъёрларига мутаносиб равишда 24,2-31,0 ва 25,6-31,8 жами 55,1-57,4 ц/га анғиз ва илдиз қолдиқларини тўплаганлиги аниқланди.

Демак, бурчоқни такрорий экин сифатида экилса ҳам кузги буғдойдан 20,8-23,1 ц/га ортиқча органик қисм қолдириши кузатилди. Бурчоқ ўсимлигини алоҳида 250 кг/га уруғ сарфлаб, қатор ораси 60 см ҳар қаторга юқоридаги тадбирларни қўллаб экилганда бу кўрсаткичлар мутаносиб равишда 25,0-32,3 ва 25,3-32,8 ц/га ни жами эса 57,3-58,1 ц/га ни ташкил қилиб, қатор ораси 15 см қатор оралатиб экилган ҳосилдорликка нисбатан жами 2,2-0,7 ц/га юқори бўлди.

Таъкидлаб ўтамузги бурчоқни ўсиб ривожланишида экиш усулларининг самарали таъсири туфайли ўсиши ва ривожланиши, кўк массаси яхши ривожланиб, ва илдиз қолдиқларининг миқдорлари ҳар иккала қатор оралиғи (15 ва 60 см) бир биридан кескин фарқланмай деярли тенг бўлди.

Бурчоқни тритикале билан биргаликда қўшиб 250/200, 150, 100 кг/га уруғ сарфлаб, қатор ораси 60см ҳар қаторга экилган вариантларда, қўлланилган ўғит меъёрлари N_{100} , P_{70} , K_{50} ва N_{130} , P_{90} , K_{65} кг/га мутаносиб равишда анғиз ва илдиз қолдиқлари 36,5-48,9; 36,6-49,8; 36,3-47,8 ц/га ва 36,8-49,0; 36,8-49,9; 37,0-48,1 ц/га ни жами эса 85,4; 86,4; 84,1 ва 85,8; 86,7; 85,1 ц/га ни ташкил қилди.

Сарфланган уруғ меъёрлари орасида 250/150 кг/га уруғ сарфлаб, ўғит эса N_{100} , P_{70} , K_{50} бўлганда нисбатан 0,1-0,9 ц/га жами 1,0 ц/га ортиқча бўлди. N_{150} , P_{90} , K_{65} кг/га меъёрда қўлланилганда, қўшимчаси жами 0,9 ц/га ни ташкил қилди. (3.18-3.19 жадваллар ва 28-илова).

Лекин, бурчоқни алоҳида экилган (2 ва 3) вариантларга нисбатан, бурчоқни тритикале билан биргаликда қўшиб 250/150кг/га уруғ сарфлаб, қатор ораси 60см ҳар қаторга экилганда анғиз ва илдиз қолдиқларининг миқдорлари 12,4-11,6; 18,8-17,5 ц/га жами 31,3-29,1 ц/га ортиқча бўлди.

Демак, тупроқ унумдорлигини ошириш мақсадида ва кўпроқ кўк масса ҳосили олиш учун бурчоқни тритикале билан биргаликда қўшиб экиш кераклиги исботланди.

Бурчоқни тритикале билан биргаликда қўшиб, қатор ораси 15см қатор оралатиб экилган вариантларда (7-9 ва 16-18) уруғ ва ўғит меъёрларига мутаносиб равишда анғиз қолдиқлари 36,5; 36,8; 35,9 ц/га ни ва 37,0; 36,8; 35,1 ц/га ҳамда илдиз қолдиқлари 47,3; 48,0; 47,7 ва 48,2; 48,2; 48,3 ц/га ни ташкил қилиб, жами 83,8; 84,8; 83,6 ва 85,2; 85,0; 83,4 ц/га тенг бўлди.

Бу кўрсаткичлар орасида бурчоқни тритикале билан биргаликда қўшиб, 250/150 кг/га уруғ сарфлаб, қатор ораси 15 см қатор оралатиб, экилган вариантларда (8 ва 17) нисбатан юқори бўлганлиги кузатилди. Бу вариантларда олинган жами анғиз ва илдиз қолдиқлари миқдорларини бурчоқни тритикале билан биргаликда қўшиб, 250/150 кг/га уруғ сарфлаб, қатор ораси 60 см ҳар қаторда экилгандаги билан таққосласак, 1,6-1,7 ц/га камроқ эканлиги аниқланди.

Демек, такрорий экинларни энг юқори анғиз ва илдиз қолдиқларининг массаси (86,4 ц/га) бурчоқни тритикале билан биргаликда қўшиб, 250/150 кг/га

уруғ сарфлаб, қатор ораси 60 см ҳар қаторда экиб, минерал ўғитларнинг N₁₀₀, P₇₀, K₅₀кг/га фониди ўстирилганда кузатилди. 2009-йилни шароитларида кузги буғдойни тупроқда қолдирган анғиз ва илдиз қолдиқлари мутаносиб равишда 16,8 ва 20,1 ц/га, жами 36,9 ц/га ни ташкил қилиб, 2008-йилга нисбатан 1,6 ва 1,0 ц/га жами эса 2,6 ц/га юқори бўлди.

1-жадвал

Бурчоқ ва тритикалени тупроқда қолдирган анғиз ва илдиз қолдиқларига экиш усуллари, меъёрлари ва ўғитларнинг таъсири (ц/га)

Вариант тартиби	Экин турлари	Экиш усуллари	Экиш меъёрлари, кг/га	Анғиз қолдиқлари	Илдиз қолдиқлари	Жами
1	Назорат	Экинсиз	-	15,2	19,1	34,3
2	Бурчоқ	Қатор ораси 15см қатор оралиғи (60x30) экилди	250	24,2	31,0	55,1
3	Бурчоқ	Қатор ораси 60см хар қаторга экилди (60x60)	250	25,0	32,3	57,3
4	Бурчоқ ва тритикале кўлиб	Қатор ораси 60 см хар қаторда экилди (60x60)	250/	36,5	48,9	85,4
5			250/	36,6	49,8	86,4
6			250/	36,3	47,8	84,1
7	Қатор ораси 15 см қатор оралиғи (60x60)	200	36,5	47,3	83,8	

18	17	16	15	14	13	12	11	10	9	8
Бурчоқ ва тритикале кўчиб экилган										
Қагор ораси 15 см қатор оралатиб экилди (60x30)										
250/100	250/150	250/200	250/100	250/150	250/200	250	250	-	250/100	250/150
35,1	36,8	37,0	37,0	36,8	36,8	25,3	25,6	-	35,9	36,8
48,3	48,2	48,2	48,1	49,9	49,0	32,8	31,8	-	47,7	48,0
83,4	85,0	85,2	85,1	86,7	85,8	58,1	57,4	-	83,6	84,8
Қагор ораси 60 см қаторда экилди (60x60)										
Қагор ораси 60 см хар қаторга экилди (60x60)										
Қагор ораси 15 см қатор оралатиб экилди (60x30)										
Экинсиз										
Ўғит меъёрлари №130, Р90, К65 кг/га										

Эслатма: Назорат вариантыда кузги буғдойни анғиз ва илдиш қолдиқларининг миқдори келтирилган.

2009-йилни шароитларида кузги буғдойни тупроқда қолдирган анғиз ва илдиз қолдиқлари мутаносиб равишда 16,8 ва 20,1 ц/га, жами 36,9 ц/га ни ташкил қилиб, 2008-йилга нисбатан 1,6 ва 1,0 ц/га жами эса 2,6 ц/га юқори бўлди. Бу эса 2008-2009 йилни куз-қиш-баҳор ойлари кузги буғдой учун қулай келганидан дарак беради. Лекин, такрорий экинларни экиш усуллари, меъёрлари ва ўғитлардан қатий назар 2009-йил шароитида олинган маълумотлар кўрсаткичидан камроқ бўлганлиги аниқланди. Демак, 2009-йил ёз-куз ойларида иқлими такрорий экинлар учун бирмунча ноқулай келганлигидандир.

1932 yili partiya plenumlari va konferensiyalari qarorlari, mazkur sohada oldingi yillarga qaraganda ba’zi yutuqlarga erishilganilganiga qaramasdan, uy-joy qurish rejasi bajarilmagan. Masalan, 1929 yilda 77 ming kv. metr uy-joy qurilgan bo‘lsa, 1932 yilda bu ko‘rsatkich 445 ming kv. metrni tashkil qilgan, bunga hokimiyat uy-joy inqirozi bilan bog‘liq muammoni hal qilish uchun engillashtirilgan yarim barak turdagi uylarni qurishga ruxsat berganligi tufayli erishilgan. Bunda, umuman olganda esa butun sovet davrida, miqdoriy ko‘rsatkichlar ustuvorlik qilgan, hech qanday sifat yoki me’morchilikka oid “ortiqchaliklar” haqida gap ketmasdi.

Shuni hisobga olish zarurki, uy-joy qurilishining besh yillik rejaları xalq xo‘jaligini rivojlantirishning besh yillik rejasi va ishchilar sinfining o‘shishini hisobga olish asosida emas, balki shahar aholisining o‘shish ko‘rsatkichlari asosida tuzilgan bo‘lib, turar-joy maydoniga bo‘lgan ehtiyoj ushbu ma’lumotlarga tayangan holda hisoblangan.

Shuni ta’kidlash kerakki, rejaga ko‘ra, qurilish charm, oziq-ovqat, silikat, poligrafıya, to‘qimachilik, tikuvchilik va ipak sanoati ishchilari manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilishi kerak bo‘lgan. O‘zbekiston sanoatining yirik tarmoqlari bo‘lgan yog‘-moy ishlab chiqarish, paxta tozalash, metallga ishlov berish tarmoqlari ishchilari esa butunlay unutilgan edi.

¹ ЎзМА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1892-иш, 83, 115-варақлар.

Ushbu hisob-kitoblar ma'lumotlariga ko'ra, 1927 yilning 1 yanvarida kishi boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni 4,85 kv. metr, 1928 yilning 1 yanvarida kishi boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni 4,69 kv. metr, 1929 yilning 1 yanvarida kishi boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni 4,47 kv. metr¹ teng bo'lgan, 1933 yilning 1 yanvarida kishi boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydonini 5 kv. metrga etkazish uchun uy-joy qurish hajmlarini oshirish zarur edi, lekin uy-joy qurish bo'yicha ko'rilgan choralarga qaramasdan, kishi boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydonining kamayish tendensiyasi kuzatiladi.

Ijtimoiylashtirilgan sektor fondida eng yaxshi sifatli va kattalikdagi turar-joy binolari jamlangan bo'lib, ular umumiy maydonga nisbatan solishtirma og'irligi bo'yicha 37,8 foizni tashkil etgan, turar joy maydonining qolgan qismi, eski shaharlar hududidagi uy xo'jaliklari hisobiga, xususiylashtirilgan shaxslarga tegishli edi.

Sovet hokimiyati O'zbekiston shaharlarini rejalashtirish ishlarini tashkil etish masalasini ko'tardi, biroq asosiy e'tibor butun mamlakatda uy-joy qurilishiga emas, balki, uy-joy qurilishida jamoaviylik (kollektivizm) tamoyillarini amalga oshirishni hisobga olgan holda, ishchilarga uy-joy qurish uchun ma'lum zonalarni ajratishga qaratildi, ya'ni qurilishda ishchilar maishiy turmushini umumlashtirmaydigan, balki individual-alohidalik tendensiyalarni mustahkamlaydigan alohida individualistik ruhidagi kottedjlarni birinchi o'ringa qo'ymaslik talab qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Sovet tuzimi O'zbekiston shaharlarida uy-joy qurilishi siyosatini dolzarbligini tushungan xolda o'sha davrda ham buni davlat siyosati maqomiga yetkazgan. Bu siyosat asosida Sovet tuzimi yer va uy-joy tanqisligini xalq qilishga uringan va shaharlarda uy-joy muamosini hal qilishga erishgan.

¹ ЎзМА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1892-иш, 79-варак.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. Т.1. – М., 1967. – С.15.
2. ЎзМА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 5472-иш, 128-варақ
3. Б.Эшов Ўзбекистон давлатчилиги ват бошқаруви тарихи. – Тошкент, 2012. 4. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2001.

GAZETA TILINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Yashnarbekova Shahzoda Ravshanovna

o'qituvchi, UzDJTU

***Annotatsiya.** Ushbu maqola yozma nutqqa doir bo'lgan gazeta tilining lingvistik xususiyatlar, shakllari, uning tarixi hamda o'zbek ommaviy axborot vositasida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, gazeta tiliga o'z xissasini qo'shgan olimlarning ishlari va o'quv qo'llanmalar ham keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** gazeta, gazeta tili, gazeta shakllari, gazeta janrlari, gazeta publisistikasi tarmog'i.*

Gazeta tili – yozma nutqning nisbatan yangi ko'rinishi bo'lib, gazeta paydo bo'lgandan keyin shakllangan turi.

Gazeta tili yozma nutq an'anasini - ma'lum darajada kitobiylikni davom ettiradi va og'zaki nutq xususiyatlarini o'ziga singdira boradi. Ayni vaqtda og'zaki nutq madaniyatining yuksalishida, yozma nutqqa ta'sir etishida muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi, adabiy tilning xalq nutqiga singib borishiga imkon hozirlaydi.

Ma'lumki o'zbek tili tarixida XIX asrning oxiri va XX asr boshlari alohida o'rin tutadi. Bu davrda o'zbek adabiy tili so'zlashuv tilidan uzoq bo'lgan traditsion kitobiy eski o'zbek tilidan ajralib chiqa boshladi. Bu davr hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanish davri edi. Bu davr adabiy tilde eski an'anaviy yozma nutqqa xos bo'lgan yuqori uslubdan chetlashishi va xalq so'zlashuv tiliga yaqinlashish davri edi. Bu davrda adabiy tilning so'zlashuv tiliga yaqinlashish jarayoni, ayniqsa, "Turkiston viloyati gazetasi" ning tilida yaqqol ko'rindi.

Yozma nutqni xalq so'zlashuv tiliga yaqinlashtirishga 20-yillar gazetalari yetakchi omillardan biri bo'ladi. Hozirgi kun gazeta tilining har tomonlama

rivojlanishi va imkoniyatlarining kengayishini davr taraqqiyoti bilan, xalqimiz ma'naviyatini har tomonlama o'sganligi bilan izohlash lozim.

Endilikda adabiy tilimiz normalari puxta ishlandi. Binobarin, hozirgi kun gazeta tili so'z qo'llashda ham, grammatik qo'shimchalardan foydalanishda ham, gap tuzishda ham har tomonlama yuksak darajada taraqqiy etdi.

O'zbek matbuoti tilining lisoniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ishlar o'tgan asrning 30-40-yillarida yuzaga keldi. V.V.Reshetov, A.K.Borovkov, keyinchalik M.Mirzayev, F.Abdullayev ishlarida gazeta tili leksikasidagi lingvistik xususiyatlarga oid ilmiy ishlarni ko'rish mumkin. Matbuot yili materiallari asosida tuzilgan ilk "O'zbekcha-ruscha lug'at" K.K.Yudaxin¹ qalamiga mansub.

Hozirgacha o'zbek gazetalari tilini o'rganishga oid bir necha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, B.Turdaliyevning matbuot tilining morfologik xususiyatlari, M.Rahmonovning "Turkiston viloyati gazetasi"ning sintaksisi, B.Karimovning 20-30 yillarda o'zbek adabiy tilining rivojlanish xususiyatlari, A.Abdusaidovning gazeta tili va adabiy norma muammolariga nag'ishlagan ilmiy monografiyalar shular jumlasidandir.

Shuningdek, gazeta tiliga oid o'quv qo'llanmalar yaratildi, bir qator risolalar, maqolalar nashr etildi. Ushbu ishlarning mualliflari taniqli o'zbek tilshunoslari, OAV sohasi mutaxassislaridir. Ko'rinadiki, o'zbek tilshunosligida matbuot tilini o'rganish bo'yicha bir qator jiddiy ishlar qilingan. Shunga qaramasdan, bu sohaning bir qator dolzarb muammolari yanada kengroq va chuqurroq tahlilga muhtojdir. Ayniqsa, gazeta tilining lisoniy xususiyatlarini konkret janrlar bo'yicha o'rganish, gazeta tilining adabiy me'yorlarga munosabatini, bu me'yorlarning shakllanishida gazeta tilining o'rni va rolini tadqiq qilish, matbuot tili madaniyatini yanada yuksaltirishning usul va omillarini aniqlash mana shunday muammolar jumlasiga kiradi.

OAV sohasida matbuotning alohida o'z o'rni mavjud. Shuningdek quyidagi vazifalar ham muhim ahamiya kasb etadi: informativlik, targ'ibot, tashkilotchilik,

¹ Юдахин К.К. Ўзбекча-русча луғат. –Тошкент, 1927.

tarbiyaviylik, tashviqot, reklamalilik, ta'sirchanlik. Ta'sirchanlik matbuotning ijod jarayoni bilan bog'liq. Gazetada ta'sirchanlikni ta'minlashda quyidagi xususiyatlar nazarda tutiladi: ommaviylik, obrazlilik, emotsionallik, munozaralilik, ekspressivlik, ixchamlik, konkretlilik¹.

"Gazeta tili", "Gazeta janrlari uslubiyati" maxsus kurslari dasturi hamda "Jurnalistik ijod nazariyasi va amaliyoti (janrlar)" kursi dasturida gazeta janrlari va ularning tasnifi keltirilgan. Ularda o'zbek tilshunosligida "gazeta janrlari"ning belgilab berilganligini, janrlar tasnifidagi ba'zi turli xilliklarga qaramasdan, bu sohaga bir muncha aniqliklar kiritilganligini alohida ta'kidlash lozim.

S.Muhamedov gazeta publisistikasi tarmog'i - gazeta publisistikasi janri sifatida quyidagilarni ko'rsatgan: reportaj, hisobot, intervyu, korrespondensiya, maqola, sharh, obzor, taqriz, matbuot obzori, ocherk, felyeton, pamflet, lavha².

A.Boboyeva "gazeta janrlari" mavjudligini tan olgan holda, axborot janrini ajratib ko'rsatadi. Shuningdek, olimaning felyeton va ocherkka nisbatan ishlatgan terminlari ham ("ijtimoiy-publisistik", "badiiy-publisistik") diqqatni tortadi³.

Ingliz tilida esa ilk gazeta 1702 - yilda vujudga kelgan va "Daily Caurant" nomi bilan atalgan. XIX asrdan esa ingliz gazetalari keng tarqala boshlandi. Bugungi asosiy va bosh gazeta hisoblanadigan "The times of London" va "Manchester Guardian" gazetalari ham dastlab 1785-yilda chop etilgan. Yangiliklarni tezkor yig'ilishini ta'minlaydigan telegraf ixtiro qilingandan so'ng, axborot agentliklari ko'plab xizmatlatni gazetalarga sotdilar. Bosmaxona va chop etish sohalari (asosan, web press) rivojlanganligi esa gazetalarning ko'plab adadda tarqachiga katta imkoniyat berdi. 1970-yillardagi keskin texnologiyalarning rivojlanishi ingliz gazetalarning turli xil fotosuratlarni ham chop etishga imkon berdi va ingliz gazeta ishlab chiqarish sohasining taraqqiy etishiga turtki bo'ldi.

¹ Abdusaidov A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari. Filol. Fan. Dokt.dis.avtoref.-Samarqand, 2005, 17-b.

² Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. - Ташкент: Фан, 1986,86-б.

³ Boboyeva A. Gazeta tili haqida. - Toshkent: Fan, 1983, 35-b.

Davriy matbuot shakli, mazmun mohiyatidan qat'iy nazar, adabiy til me'yorlaridan chetga chiqmasligi maqsadga muvofiq bo'ladi. Garchi bugunga kelib axborot globallashtirish, jadallik sharoitida, davr taqozosiga ko'ra matbuotda ixtisoslashuv yuz bermoqda. Endilikda ixtisoslashuv gazeta tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Gazeta, jurnal qaysi sohaga ixtisoslashgan bo'lsa, uning tilida shu sohaga mansub terminlar, birikmalar, konstruksiyalar sezilarli darajada uchraydi. Shunga ko'ra gazeta tiliga quruq rasmiylik, siyosiy(partiyaviy)likdan tashqari, emotsionallik ham hosdir. Emotsionallik, tabiiy matn ta'sirchanligi yodda qolarliligini ta'minlaydi. Asar xoh siyosiy, xoh rasmiy, xoh ilmiy bo'lsin, baribir qaysidir darajada emotsionallikka ham ega bo'lishi lozim. Chunki tilning emotsionalligi, baholash xususiyati publitsistikaning barcha asosiy janrlariga kirib boradi. Bunga asosiy sabab publitsisning tabiati, jamiyatdagi ahamiyati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdusaidov A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari. Filol. Fan. Dokt.dis.avtoref.-Samarqand, 2005, 17-b.
2. Boboyeva A. Gazeta tili haqida. - Toshkent: Fan, 1983, 35-b.
3. Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. - Ташкент: Фан, 1986,86-б.
4. Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1987. - 34 с.
5. Юдахин К.К. Ўзбекча-русча луғат. –Тошкент, 1927.

ATMOSFERA HAVOSI TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Maxammadiyev Asadulla Sharofiddinovich

Termiz muhandislik-texnologiya institute magistranti

asadullomaxammadiyev@gmail.com

Mamaraimova Umida Uralovna

Termiz muhandislik-texnologiya institute magistranti

***Tayanch tushunchalar:** Atmosfera, yer shari, ruxsat etilgan me'yor, kimyoviy modda, zararli elementlar, organizmlar, SanPIN.*

***Kalit so'zlar:** Surxondaryo atmosferasi, "Afg'on shamoli", Statsionar manbalar, sement changi, aerazollar, bo'yoq ishlash.*

Atmosfera yer sharining havo qobig'i bo'lib, biosferada hayot mavjudligini taminlovchi asosiy manbalardan biridir. Atmosfera barcha jonzoatlarni zararli kosmik nurlardan himoya qilib turadi, sayyora yuzasidagi issiqlikni saqlaydi. Havo ifloslanishining muntazam REM dan yuqori bo'lishi aholi kasallanish darajasining keskin ortishiga olib keladi. Aholi yashash joylarida havoning ifloslanganlik darajasi va ta'siri REM ko'rsatkichlari bo'yicha belgilanadi. Turli moddalarning ta'sir darajasiga qarab xilma-xil REM ko'rsatkichlari belgilangan. Masalan. Atmosfera xavosining holatini baholash SanQ va MO'R 0293-11 "O'zbekiston Respublikasi hududida aholi punktlarining atmosfera havosidagi ifloslantiruvchi moddalar ro'yxati" (SanPIN UzR №0293-11 Quyidagi REM ko'rsatkichlarini ajratish mumkin; havodagi chang-0,1 mg/m³; is gazi-0,01 mg/m³; oltingugurt oksidi-0,05 mg/m³; xlor-0,03mg/m³; fenol-0,01 mg/m³; formaldegid-0,003 mg/m³; qurum-0,05 mg/m³: va hokoza. REM ko'rsatkichlari turli davlatlarda farqlanishi mumkin. Hozirgi kungacha

atmosfera havosidagi 600 ta kimyoviy moddaning REM lari ishlab chiqilgan, shuningdek 38 ta moddalaning birlashib ta'sir qilishi o'rganilgan bo'lib ular uchun me'yorlar belgilangan.¹

Atmosferada sodir bo'ladigan fizik, kimyoviy va biologik o'zgarishlar tirik organizmlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. So'nggi yillarda inson ta'sirining kuchayishi natijasida gazlar muvozanatining o'zgarishi kuzatilmoqda. Atmosferadagi gazlar doimiy miqdorining o'zgarishi sayyoramiz uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi aniqlangan

Insoniyatga qolaversa, barcha jonivorlarga hayot baxsh etadigan atmosfera havosini hozir asosan ikki manba: tabiiy omillar va inson faoliyatining mahsuli – antropogen (sun'iy) manba ifloslantiradi. Tabiiy omillarga: kosmik changlar, vulqonlarning otilishidan, tog' jinslarining emirilishi va tuproqning nurashidan vujudga kelgan moddalar, o'simlik va hayvon qoldiqlari, o'rmon va dashtdagi yong'in, dengiz suvining mavjlanishi bilan havoga chiqqan tuz zarrachalari kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Sement ishlab chiqarish, shuningdek, sement changining fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish jarayonida, sement changlari barcha tirik organizmlarga sizilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Sement ishlab chiqarish korxonalarini hududi yaqinida atmosferaga tushayotgan changning dispers tarkibi o'rganilganda sement changi aerazollari REM yuqoriligi tahlillar natijasida aniqlandi. Sement changi atmosferaga ko'tarilishi zavod atrofidagi barcha tirik organizmlarning hayitiiy muozanatining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Bu kabi omillar atmosfera havosiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Atmosferaning tarkibi. Taxminan bir necha yuz million yil avval shakllanib bo'lgan Yer atmosferasi havosining tarkibi quyidagi asosiy gazlardan tashkil topgan.

¹ Salimjon Buriyev, Dildora Maxkamova, Vafabay Sherimbetov Ekologiya [va atrof muhit muhofazasi](#) Toshkent – 2018

(1-jadval).

Gazlar nomi	Hajm bo'yicha ulushi*, %	Og'irlik bo'yicha ulushi, %
Azot (N ₂)	78,084	75,51
Kislorod (O ₂)	20,946	23,14
Argon (Ar)	0,934	1,3
Karbonat angidrid (CO ₂)	0,03 – 0,04	0,05
Neon (Ne)	$1,818 \cdot 10^{-3}$	$1,2 \cdot 10^{-3}$
Geliy (He)	$5,24 \cdot 10^{-4}$	$8 \cdot 10^{-4}$
Metan	$1,7 \cdot 10^{-4} - 2 \cdot 10^{-4}$	$9,41 \cdot 10^{-5}$
Kripton (Kr)	$1,14 \cdot 10^{-4}$	$2,9 \cdot 10^{-4}$
Vodorod (H ₂)	$5 \cdot 10^{-5}$	$3,5 \cdot 10^{-6}$
Ksenon (Xe)	$8,7 \cdot 10^{-6}$	$3,6 \cdot 10^{-5}$

* Hajm bo'yicha ulush – bir xil bosim va harorat sharoitida gaz egallagan hajmning aralashma umumiy hajmiga nisbatining foizdagi ifodasidir.¹

Atmosfera havosi ifloslanishining inson salomatligiga ta'siri. (2 jadval)

O'lim sababi	Fojiadan bir hafta avvalgi o'lim soni	Fojia haftasidagi o'lim soni	B:A nisbat	Fojiadan keyingi haftadagi o'lim soni	V:A nisbat
	(A)	(B)		(B)	
Nafas olish a'zolari sili	14	77	5.5	37	2.6
O'pka raki	45	69	1.5	32	0.7
O'pka yallig'lanishi	45	168	3.7	125	2.8
Bronxi	76	704	9.3	396	5.2
Gripp	2	24	12.0	9	4.5
Yurak-qon-tomir kassalligi	118	281	2.4	152	1.3
Miokard	88	244	2.4	131	1.5

¹ Sh.A.Kuldasheva, X.X.Zokirov Atrof muhitni muhofaza qilish Toshkent-2007

Yirik sanoat shaharlarining havoyi sifatini kuzatuvchi xizmat muassasasi ma'lumotlariga qaraganda, atmosferadagi zaharli moddalar orasida ko'lami jihatidan uglerod oksidi birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun ana shu gazning ta'siri to'hrisida mufassalroq to'xtalib o'tamiz. Uglevod oksidi har qanday yonilg'ining shu jumladan, avtotransport divigatellarida ishlatiladigan yonilg'ining yonish jarayonida hosil bo'ladi. Na o'ziga xos hidi, na rangi bo'lmaydigan bu gaz qondagi gemoglobinga kisloroddan ko'ra, ko'proq o'xshashligi bilan xavflidir. Atmosferaga chiqarilayotgan barcha zararli moddalar va chang aerazollari baroga tirik organizmlar uchun zarar yetkazadi bu esa turli xil kasaliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Q.X.Muftaydinov, H.M.Qodirov, E.Yu.Yulchiyev Ekologiya. Toshkent-2020.
2. A.Ergashev Agroekologiya. Darslik. Yangi asr avlodi Toshkent-2006.
3. D.Yormatova Ekologiya. Darslik. Toshkent-2009.
4. Zokirov X.X. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish. Darslik. Surxon Nashr-2020.
5. Zokirov X. X., Kuldasheva Sh. A. Tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish. - Toshkent, 2011.
6. R.X.Allaberdiyev va boshqalar. Kimyoviy ekologiya. O'quv qo'llanma. O'quv qo'llanma. Toshkent - 2019.
7. R.M.Eshbo'riyev Fizikaviy ekologiya asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand-2020.
8. G.D.Shamsiddinova, D.A.Karimova. Kimyoviy ekologiya. O'quv qo'llanma. T.: «Fan va texnologiya», 2010
9. A.Ergashev, T.Ergashev. «Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish». Toshkent, «Yangi asr avlodi*», 2005

BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA’LIM VOSITALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Ziyyoyev Dilshodbek Azamat o‘g‘li

Ilmiy rahbar: p.f.d. (DSc) professor H.O.Jo‘rayev

***Annotatsiya:** Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi o‘qituvchilik faoliyatini sifatli tashkil etilishini ta‘minlovchi omil sifatida qaraladi. Bugunda o‘qituvchining kompetentligi qaysi mezonlar bilan belgilanishini o‘rganish muhim bo‘lmoqda. Ushbu maqolada yuqoridagi mezonlarni rivojlantirishning dasturiy ta‘lim orqali amalga oshirilishi muhokama etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** kompetentlik, kompetensiya, professionallik, strategiya, intellektual, texnologiya, amplituda.*

KIRISH

Kompetentli pedagog - ukim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug‘iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir.

Har qanday o‘qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma‘lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ishiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma‘lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o‘xshashdir. Kompetensiya bilimlarning umumiyliigi va ularning odamlarda mavjudligini anglatadi, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetensiyalar ta'rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud:

- Amerikansha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko'rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lsa, yaxshi natijalarni namoyish yetadi.

- Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya'ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko'riladi¹.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son harori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'riflangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bo'lajak fizika o'qituvchilari ijodiy va amaliy faoliyatini yuksaltirishda dasturiy vositalardan foydalanish yaxshi samara berishi bilan bir qatorda zamon talabi hamdir. Shularni hisobga olgan holda ushbu ishda aniq bir fizik qonuniyatni ikki xil dasturiy vosita, aniqroq aytganda, MATLAB va Dev-C++ dasturlash tizimidan foydalangan holda o'rganish hamda bir-biriga qiyoslagan holda ayrim xulosalar yasash masalasi o'rganiladi².

Fizikaviy jarayonlarni dasturlash tillaridan foydalanib o'rganish kelajakda yosh dasturchidan mukammal dasturlarni yaratishida asos bo'ladi. Fizikadan amaliy mashg'ulot jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, xususan MATLAB, MAPLE, MathCAD dasturiy tizimlari hamda Dev-S++, Java(SE-8)-eclipse kompyuter dasturlarini samarali grafik rejimda qo'llanilishi o'quvchi amaliy faoliyatini faollashtirish bilan bir qatorda fanlararo uzviylikni ta'minlaydi.

¹ Savelyev I. V. Fizika kursi. M.: Nauka 2019, 2-jild, 119-bet.

² Trofimova T.I. Fizika kursi. M. Oliy maktab 2019 yil.

Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar shinakam professionallar bo'lavermaydi, sabab, ba'zilar bilimlarni amalda qanday qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir:

- Maxsus pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish ushuni yetarli ma'lumotga ega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq.

- Ijtimoiy pedagogik kompetensiya - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko'nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik - bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunshasiga kiritilgan.

- Shaxsiy pedagogik kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo'lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo'lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

Kompetensiyaning har bir turi ko'nikmalar, bilimlar, ko'nikmalar to'plamini o'z ishiga oladi. Pedagoglarda ular turli darajalarda namoyon bo'ladi. Xizmat vazifalarini bajarishda uning xatti-harakatlari ko'rsatkishlariga e'tibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin.

Amerika pedagogikasi tajribasiga ko'ra kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan jarayondir. Uni quyidagi bosqichlarga bo'linadi¹:

1. Maxsus ma'lumot olish.
2. Amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.

¹ Odilov E.J. Fizika o'qitishda dasturlash tillaridan foydalanish metodikasi – Toshkent, 2021. – B. 436-441.

3. Malaka oshirish, maxsus kurs va treninglardan o'tish.
4. Kasbiy tajribaga ega bo'lish.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki, bo'lajak fizika o'qituvchilari kasbiy kompetentligini oshirishda dasturiy vositalardan foydalanib o'qitish samaradorligini oshiradi. MATLAB, MAPLE, MathCAD dasturida nafaqat fizika jarayonlarni, balki fizika fanining boshqa bo'limlari qonuniyatlarini modellashtirish orqali talaba ilmiy-amaliy, ijodiy faoliyatini rivojlantirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risida" 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli farmoni.
2. Savelyev I. V. Fizika kursi. M.: Nauka 2019, 2-jild, 119-bet.
3. Trofimova T.I. Fizika kursi. M. Oliy maktab 2019 yil.
4. Odilov E.J. Fizika o'qitishda dasturlash tillaridan foydalanish metodikasi – Toshkent, 2021. – B. 436-441.
5. Рашидов Диловар Нажмиддинович, & Холбоев Йигитали Авганович (2022). КОРХОНА ВА ТАШКИЛОТЛАРДА ИЖТИМОЙ ҲИМОЯГА МУҲТОЖ ШАХСЛАР УЧУН ИШ ҶУРИНЛАРИНИ ЙЎНАЛИШЛАР КЕСИМИДА ЗАХИРАЛАШНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ.
6. www.ziyonet.uz

BOLALARDA ASAB TIZIMINI RIVOJLANISHIDA GIPOTERIOZNI AHAMIYATI

Nazarova Yo.X

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
«Tibbiy va biologik kimyo» kafedrası assistenti.

Soyibjonova Muniraxon

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
Pediatriya ishi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada gipoterioz, uning kelib chiqish sabablari simptomlari, zamonaviy tibbiyot va xalq tabobatida qo‘llanadigan dori vositalari, gipertireozni bolalarda ruhiy rivojlanishdagi ahamiyati haqida ma‘lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Gipoteriodizim, qalqonsimon bez, JSST, miya disfunktsiyasi, tiroksin, triyodtironin.*

Kirish. Barcha insoniyat hattoki yangi tug‘ilgan chaqaloqlar ham gipoteriodizim bilan kasallanishi mumkin. Qalqonsimon bezsiz yoki to‘g‘ri ishlamaydigan bez bilan tug‘ilgan chaqaloqlarning ko‘pchiligida alomatlar darhol sezilmaydi. Ammo gipoteriodizimga tashxis qo‘yilmasa va davolanmasa, alomatlar paydo bo‘la boshlaydi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: Oziqlantirish muammolari, kam vazn ortishi, teri va ko‘z oqlarining sarg‘ayishi, bu holat sariqlik deb ataladi. Mushaklarning zaif ohangi, quruq teri, hirqiroq yig‘lash, kattalashgan til. Agar chaqaloqlarda gipotiroidizm davolanmasa, hatto yengil holatlar ham jiddiy jismoniy va aqliy rivojlanish muammolariga olib kelishi mumkin.

Gipotiroidizm bilan ogʻrigan bolalar va oʻsmirlar kattalarnikiga oʻxshash alomatlarga ega boʻladi. Ammo ularda ham pakanalik, doimiy tishlarning rivojlanishining kechikishi, kechiktirilgan balogʻat yoshi, zaif aqliy rivojlanish kuzatiladi. Bizga maʼlumki, qalqonsimon bez ikkita asosiy gormon ishlab chiqaradi: tiroksin (T-4) va triyodtironin (T-3). Ushbu gormonlar tanadagi har bir hujayraga taʼsir qiladi. Ular tananing yogʻlar va uglevodlarni ishlatish tezligini qoʻllab-quvvatlaydi, tana haroratini nazorat qilishga yordam beradi, yurak urish tezligiga taʼsir qiladi va ular organizm qancha oqsil ishlab chiqarishini nazorat qilishga yordam beradi.

Gipotiroidizm qalqonsimon bezni yetarli darajada gormonlar ishlab chiqarmasligi sababli paydo boʻladi. Gipotiroidizmga olib kelishi mumkin boʻlgan holatlar yoki muammolar quyidagilardan iborat: autoimmun kasallik, Gipotiroidizmning eng keng tarqalgan Hashimoto kasalligi deb ataladigan Autoimmunun kasallikdir. Autoimmunun kasalliklar immunitet tizimi sogʻlom toʻqimalarga hujum qiladigan antikorlarni ishlab chiqarganda sodir boʻladi. Baʼzida bu jarayon qalqonsimon bezni oʻz ichiga oladi va uning gormonlar ishlab chiqarish qobiliyatiga taʼsir qiladi.

Qalqonsimon bezning toʻliq yoki bir qismini olib tashlash, Radiatsiya terapiyasi bilan davolash mumkin. Bosh va boʻyin saratonini davolash uchun ishlatiladigan radiatsiya qalqonsimon bezga taʼsir qilishi va gipotiroidizmga olib kelishi mumkin.

Tiroidit qalqonsimon bez yalligʻlanganda sodir boʻladi. Buning sababi infeksiya boʻlishi mumkin. Tiroidit qalqonsimon bezni bir vaqtning oʻzida barcha saqlangan qalqonsimon gormonlarni chiqarishga qoʻzgʻatishi mumkin. Bu qalqonsimon bez faoliyatining keskin oshishiga olib keladi, bu holat giperterioz hisoblanadi

Mavzuning dolzarbligi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti yod tanqisligini oʻtkir global tibbiy-ijtimoiy muammo deb hisoblaydi. Mazkur tashkilotning xulosasiga koʻra, dunyo aholisining 1/3 qismidan koʻprogʻida yod tanqisligi kasalligi rivojlanish xavfi yuqori. Shu bilan birga 740 million aholida yod tanqisligi kasalligi (boʻqoq) koʻrinishlari mavjud boʻlsa, 50 million aholi bosh miya funksiyasining buzilishi bilan kasallangan. Oʻzbekistonda ham, boshqa davlatlarda ham yod tanqisligi muammosi toʻliq hal etilmagan. Hozirga kelib, Oʻzbekiston sharoitida aholisi yod tanqisligi bilan

bogʻliq kasalliklarga chalinish xavfi boʻlmagan hudud yoʻq. Chunki respublikamizning shu kungacha oʻrganilgan barcha hududlarida aholi ratsionida yod tanqisligi mavjudligi kuzatilgan.

Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan hududlarda olib borilgan tadqiqotlarga koʻra, fuqarolar tomonidan kunlik oʻrtacha yod isteʼmoli sezilarli darajada kamaygan boʻlib, bor-yoʻgʻi 32-64 mkg ni tashkil etadi. Zarur boʻlgan minimal miqdori esa – 150-200 mkg ga tengdir. Yod tanqisligi tugʻma gipotireoz bilan kasallanish darajasini oshiradi, homila va yangi tugʻilgan chaqaloqlarda miyaning qaytarilmas shikastlanishiga, aqliy zaiflikka olib keladi. JSST ekspertlarining fikricha, yod tanqisligi aqliy zaiflikning eng keng tarqalgan sababi boʻlib, faqat eʼtiborli yondashish orqali uning oldini olish mumkin. Respublika boʻyicha bugungi kunga 102 ta yodlangan osh tuzini ishlab chiqarish va qadoqlash korxonasi, sexlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu korxonalarda vakolatli organi xabardor qilgan xolda oʻtkazilgan tekshirishlar davomida laboratoriya tekshiruvlari uchun olingan osh tuzi namunalari ular tarkibida yodlanganlik darajasi belgilangan meʼyorlarga javob bermagan holatlarda ularni qayta yodlash uchun xududiy sanepid xizmatlarining taqiqlash toʻgʻrisidagi qarori bilan ularning realizatsiyasi toʻxtatildi.

Xulosa. Gipotireoz bilan ogʻrigan bemor bolalarni davolash chora tadbirlari oʻtkazish, bolalarning ovqat ratsionini tuzish, davolash, zamonaviy va xalq tabobatida qoʻllanadigan shifobaxsh osimliklardan tayyorlangan damlamalardan foydalanish mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.S.Azizova "Farmakologiya" 1994, 2000, Toshkent.
2. Dolimov OXTA. Toshkent. Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi 1992
3. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-aholisi-ratsionida-yod-tanqisligi-mavjud>.
4. <https://nowonline.ru/uz/moscow/racionalnoe-pitanie-pri-gipotireoze-dieta-pri-gipotireoze-shchitovidnox>

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	
	Darmonova Adolat Bahodir qizi. (2023). INTEGRAL. BOSHLANGICH FUNKSIYA. ANIKMAS INTEGRAL VA UNING XOSSASI. ASOSIY FORMULALAR JADVALI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 4–11. https://doi.org/10.5281/zenodo.8008248
2	
	Darmonova Adolat Bahodir qizi. (2023). "KOMPLEKS SONLAR" MAVZUSINI O'QITISHDA "BUMERANG" TEXNOLOGIYASI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 12–21. https://doi.org/10.5281/zenodo.8008254
3	
	Косимов Алижон Рахматович, & Носирова Садафхон Азаматовна. (2023). ПРОБЛЕМА ИССЛЕДОВАНИЯ СВОЕОБРАЗИЯ СТИЛИСТИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА РОМАНОВ ЛЬВА ТОЛСТОГО. GOLDEN BRAIN, 1(15), 22–27. https://doi.org/10.5281/zenodo.8008260
4	
	Jo‘raboyeva K.N, & Axmedov X.A. (2023). СНЕТ ТИЛИ О'QITISH METODIKASI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 28–31. https://doi.org/10.5281/zenodo.8008266
5	
	Муродкосимов Сайдолим, & Шайқулов Ҳамза Шодиевич. (2023). САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДА ГЕПАТИТ КАСАЛЛИГИНИ ХОЛАТИНИ ЭПИДЕМИОЛОГИК БАХОЛАШ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 32–37. https://doi.org/10.5281/zenodo.8008272
6	
	Kardjavova Gulnoza Abilkasimovna, & Tursunova Barno Abrorovna. (2023). ACUTE MYOCARDITIS IN CHILDREN ON THE BACKGROUND OF COMMUNITY-ACCOMPANIED PNEUMONIS: FEATURES OF THE CLINICAL PICTURE. GOLDEN BRAIN, 1(15), 38–43. https://doi.org/10.5281/zenodo.8008280
7	
	Umaraliyeva Munajat Mashrabovna, & Bozorboyeva Omina Aliyevna. (2023). USING AUTHENTIC MATERIALS IN AUTONOMOUS LEARNING A FOREIGN LANGUAGE. GOLDEN BRAIN, 1(15), 44–49. https://doi.org/10.5281/zenodo.8008287

8

Инатиллоев Ўткирбек Шухратилло ўғли. (2023). ШАХСНИ УШЛАБ ТУРИШ ВА ҚАМОҚҚА ОЛИШГА ОИД ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР. GOLDEN BRAIN, 1(15), 50–58. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008291>

9

Sultanova Iftixor Baxtiyor qizi. (2023). AVLONIY YODI DILLARDA MANGU. GOLDEN BRAIN, 1(15), 59–61. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008300>

10

Шымбергенова Улзада. (2023). ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ВОЯГА ЭТМАГАННИНГ ҚОНУНИЙ ВАКИЛИ ИШТИРОКИ ХУСУСИЯТЛАРИ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 62–67. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008302>

11

Oxunjonova Faxriniso Arabboy qizi. (2023). XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA ZULLISONAYNLIK AN'ANASI TAKOMILI (NODIM, XILVATIY, XAYRATIYLAR IJODI MISOLIDA). GOLDEN BRAIN, 1(15), 68–76. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008306>

12

Диловар Лутфуллозода Ҳомитов. (2023). МУНОСИБАТҲОИ ТАЛАФФУЗ ВА НАВИШТАНИ ДУРУСТИ ЗАБОНИ ФОРСЇ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 77–82. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008311>

13

Умаралиева Муножат Машрабовна, & Яхеева Сарвиноз Хаётжон кизи. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВОГО МЕТОДА В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 83–86. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008357>

14

Насиров Жамолиддин Ғайрат ўғли. (2023). ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯСИНИ ТАЛОН-ТАРОЖ ҚИЛИШГА ҚАРШИ КУРАШИШ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 87–100. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008365>

15

Насиров Жамолиддин Ғайрат ўғли. (2023). ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯСИНИ ИСТЕЪМОЛИНИ УЗЛУКСИЗ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ, МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. GOLDEN BRAIN, 1(15), 101–113. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008372>

16

Eshilov Rusliddin Nomozovich. (2023). OG'ZAKI TARJIMANI O'RGATISH METODIKASI VA TEXNIKASI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 114–117. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008385>

17

Eshilov Rusliddin Nomozovich. (2023). LINGUISTIC FEATURES OF TEACHING SIMULTANEOUS INTERPRETATION. GOLDEN BRAIN, 1(15), 118–120. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008403>

18

Mo'minova Dilnoza Solexovna. (2023). OILADAGI MULOQOT VA O'ZARO TA'SIR. GOLDEN BRAIN, 1(15), 121–124. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008409>

19

Жумаева Дилдора Жунайтовна. (2023). ЎЙИН ФАЛСАФАСИ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 125–140. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008413>

20

Yakubova Zilola Zikirovna. (2023). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAHALLA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLAR HAMKORLIGI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 141–147. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008425>

21

Alimov Fazliddin Mahammadali o'g'li. (2023). KANADA ARG'UVONI (CERCIS CANADENSIS) KO'CHATLARINI YETISHTIRISHDA URUG'NI UNDIRISH USULLARINI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 148–151. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008436>

22

Makhamadaliyeva Oynisa Kamoliddin qizi. (2023). ORGANIZING AN EFFECTIVE TEACHING METHOD FOR PRESCHOOL EDUCATION. GOLDEN BRAIN, 1(15), 152–155. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008446>

23

Абдулхаев Жавохир Жахонгир уғли. (2023). ВОЗДЕЙСТВИЕ ЭКОТУРИЗМА НА ПРИРОДУ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 156–160. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008453>

24

Панжиев Хикмат Аҳадиллаевич. (2023). ЖАНУБИЙ ҚУНҒУРТАУ МАЙДОНИДАГИ ГЕОСТРУКТУРАЛАРНИ СЕЙСМОРАЗВЕДКАНИНГ-2Д УСУЛИ ЁРДАМИДА ЎРГАНИШ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 161–165. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008469>

25

Noriyeva Aziza Jasur qizi. (2023). MINKOVSKIY FAZOSIDA OCHIQ VA YOPIQ TO'PLAMLAR. GOLDEN BRAIN, 1(15), 166–170. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008526>

26

Отамуродов Журабек Отаниёзович. (2023). СОСТАВ КОСТЕЙ КРУПНОРОГАТОГО СКОТА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ОРГАНИЧЕСКОГО КЛЕЯ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 171–176.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008533>

27

Aminova Marjona Hamza qizi. (2023). BADIY MATNNI TAHLIL QILISHNING PSIXOLINGVISTIK OMILLARI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 177–181. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008539>

28

Yo'ldosheva Sarvinoz Ilhom qizi. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 1(15), 182–185.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008541>

29

Mamurov Diyorbek Saydullo o'g'li. (2023). UNUTILGAN DAVLAT – AL-ANDALUS. GOLDEN BRAIN, 1(15), 186–193.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008553>

30

Ro'zmetova Maqsuda Azimboy qizi. (2023). MUHAMMADNIYOZ NISHOTIYNING "HUSN-U DIL" ASARINI O'RGANILISHI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 194–199. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008565>

31

Сейтаниязов Кошкарбай Матенович. (2023). О СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ТРЕБОВАНИЙ К НАЗВАНИЯМ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 200–208.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008578>

32

Dilfuza Zaxitdjanovna Pulatova. (2023). O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'RGATISHDA TALABALAR NUTQIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 1(15), 209–214.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008590>

33

Faxriddin Bakiyev Jamshedovich. (2023). THE CONCEPT OF "SUBTITLES" AND THEIR WORKING IN THE TEXT. GOLDEN BRAIN, 1(15), 215–219.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008604>

34

Faxriddin Bakiyev Jamshedovich. (2023). TRANSLATION STRATEGY AS A BASIC CONCEPT OF TRANSLATING SUBTITLES. GOLDEN BRAIN, 1(15), 220–223. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008608>

35

Temirov Shavkat Baxtiyor o'g'li. (2023). O'ZBEKISTONNING XALQARO MEHNAT TAQSIMOTIDA TUTGAN O'RNI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 224–228. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008616>

36

Yo'ldashaliyev Murodillo Nishonboy o'g'li. (2023). ATMOSFERANING IFLOSLANISH MUAMMOLARI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 229–231. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008624>

37

Ma'rifjanov Mirzabahrom Tohirjon o'g'li. (2023). JINOIY JAZONI YENGILLASHTIRUVCHI HOLATLAR: QO'LLASH TARTIBI VA UNDAGI MAVJUD MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH MASALALARI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 232–237. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008636>

38

Karimov Feruzjon. (2023). TEACHING ENGLISH LANGUAGE WITH COLLOBORATIVE SKILLS. GOLDEN BRAIN, 1(15), 238–242. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008642>

39

Abduraimov Jur'atbek G'ofurovich, & Ubaydullayeva Xalima Sunnatulla qizi. (2023). ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI TA'LIMDA TUTGAN O'RNI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 243–250. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008646>

40

Bayeshanova Dilafruz Abdurahmon qizi. (2023). RECOMMENDATIONS FOR THE DIFFERENCES AND SIMILARITIES BETWEEN SIMULTANEOUS AND CONSECUTIVE INTEPRETATION. GOLDEN BRAIN, 1(15), 251–253. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008654>

41

Asqarov Anvarjon Rahimjon o'g'li, & Musayev Jumavoy. (2023). TA'LIM MUHITIDA O'QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGIGA TAXDIDLAR VA ULARNI BARTARAF QILISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK USULLARI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 254–258. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008659>

42

Charos Tursunova Bekmurod qizi. (2023). AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 259–265. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008663>

43

Аширова Ноила Хасан қизи, & Илмуродова Феруза Шокировна. (2023). БЎЛАЖАК ТАРИХ ФАНИ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 266–272. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008667>

44

Абдуламинава Адолат. (2023). НЕЙРОГИМНАСТИКА И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 273–276.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008679>

45

Rustambek Umurzoqov, & Ro'zaliyev Zokirjon Ergashali o'g'li. (2023). ISAJON SULTONNING "ALISHER NAVOIY" ROMANIDA YOSH ALISHER OBRAZINING AKS ETTIRILISHI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 277–281.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008683>

46

Bayeshanova Dilafruz Abdurahmon qizi. (2023). RECOMMENDATIONS AND MAIN FUNCTIONS OF SIMULTANEOUS TRANSLATION. GOLDEN BRAIN, 1(15), 282–284. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008727>

47

Mamadjonova Dinoraxon, & Ibadova Nafisa Axmatilloeyvna. (2023). TEACHERS' PERCEPTIONS OF ENGLISH GRAMMAR TEACHING AND THEIR TEACHING STRATEGIES. GOLDEN BRAIN, 1(15), 285–289.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008744>

48

Tursunboyeva Mo'minaxon Alinazar qizi. (2023). CHET TILLARINI O'RGANISHNING TEZ VA SAMARALI YO'LLARI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 290–294. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008756>

49

Norbutayev Samandar Abdubakirovich. (2023). JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA HARBIY XIZMATCHILARNING RUHIY BARQARORLIK MODEL. GOLDEN BRAIN, 1(15), 295–299.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008765>

50

Ospan Jaksimov. (2023). TISH ILDIZI REZEKSIYASIDAN KEYINGI BO'SHLIQNI OSTEOPLASTIK MATERIALLAR BILAN TO'LDIRISH. GOLDEN BRAIN, 1(15), 300–303. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008778>

51

Eshonqulov Umurzoq Absamat o'g'li, & Tuxtamishev Xasan Xamidulla o'g'li. (2023). JALOLIDDIN MANGUBERDI – VATAN FAXRI, TARIXIMIZ G'URURI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 304–308.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008798>

52

Асатиллаев Фурқатжон Рахматиллаевич, Қамбаров Шоятбек Нематжон ўғли, & Абдурашидов Жавлонбек Боходиржон ўғли. (2023). ТАКРОРИЙ БУРЧОҚ ВА ТРИТИКАЛЕНИ ЭКИШ УСУЛИ, УРУҒ САРФИ ВА ЎҒИТ МЕЪЁРЛАРИНИНГ ТУПРОҚДА ҚОЛДИРГАН АНҒИЗ ИЛДИЗ ҚОЛДИҚЛАРИГА ТАЪСИРИ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 309–316.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008811>

53

Omonov Doniyorbek Dilshodbek ugli. (2023). INFLUENCE OF TRANSPORT VEHICLES ON LIVING ORGANISMS. GOLDEN BRAIN, 1(15), 317–319.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008835>

54

Yusupov R.R, & Makhmudov J.I. (2023). SEISMIC DESIGN CODES AND STANDARDS: LEARNING FROM FOREIGN EXPERTISE TO ENHANCE SEISMIC PERFORMANCE OF MULTI-STORY FRAME BUILDINGS. GOLDEN BRAIN, 1(15), 320–327. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8008847>

55

Жаназақова Дилбархон Джумабоевна, & Рахимжонов Давронбек Дилшоджон ўғли. (2023). КУНГАБОҚАРНИ ЕТИШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. GOLDEN BRAIN, 1(15), 328–330.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8012609>

56

Karimova Sarvinoz, & Xolmatova Maloxatxon. (2023). O'ZBEKISTONDA TO'Y AN'ANALARI TARIXI VA BUGUNI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 331–334.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8012626>

57

To'lqinov Bobirjon Baxtiyor o'g'li. (2023). "SARBADORLAR" ROMANIDA AMIR TEMUR SIYMOSIDA TARIXIY SHAXS TALQINI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 335–340. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012694>

58

Ahmedova Binafsha Saidovna. (2023). VILYAM SHEKSPIR SHE'RIYATINING ADABIYOT DARSLARIDAGI TAHLILI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 341–345.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8012778>

59

Muxamedziyanov Kamil Taxirovich. (2023). THE ROLE OF THE SUBJECT OF MUSIC CULTURE IN INSTILLING OUR NATIONAL SPIRITUALITY IN STUDENTS. GOLDEN BRAIN, 1(15), 346–351.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8012834>

60

Ziyodov Otabek. (2023). AMIR TEMUR HUKMRONLIGI DAVRIDA BUXORO VOHASI TOPONOMIKASIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR. GOLDEN BRAIN, 1(15), 352–355. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012849>

61

Maulenova Sahibjamal Arislanbay qizi, & Jalgasova Shahsanem Farxat qizi. (2023). O'ZBEKISTONDA OLIY TA' LIM TIZIMI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 356–359. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012861>

62

Жумаева З.Ж. (2023). СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К ТЕРАПИИ АЛЛЕРГИЧЕСКОГО РИНИТА ДЕТСКОГО ВОЗРАСТА. GOLDEN BRAIN, 1(15), 360–364. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012887>

63

Alimova Nargiza Odilovna, & Yo'ldoshev Islombek Ismoiljon o'g'li. (2023). O'ZBEKISTONDA SOVET HUKUMATINING UY-JOY SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 365–369. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012906>

64

Yashnarbekova Shahzoda Ravshanovna. (2023). GAZETA TILINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 370–373. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012925>

65

Maxammadiyev Asadulla Sharofiddinovich, & Mamaraimova Umida Uralovna. (2023). ATMOSFERA HAVOSI TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. GOLDEN BRAIN, 1(15), 374–377. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012945>

66

Ziyoyev Dilshodbek Azamat o'g'li, & H.O.Jo'rayev. (2023). BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 1(15), 378–381. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012955>

67

Nazarova Yo.X, & Soyibjonova Muniraxon. (2023). BOLALARDA ASAB TIZIMINI RIVOJLANISHIDA GIPOTERIOZNI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 382–384. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012978>